



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
tarmoq markazi

ADABIYOT O'QITISHNI YANGILASH METODIKASI

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ALISHER
NAVOIY

TOSHKENT-2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

ADABIYOT O'QITISHNI YANGILASH METODIKASI
moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi:

O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent-2021

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Q. Yo‘ldoshev – pedagogika fanlari doktori, professor. ToshDO‘TAU

Taqrizchilar:

I. Yoqubov – filologiya fanlari doktori. TDPU

R. Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor. ToshDO‘TAU

S. Normamatov – filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

E. Ushenmez – filologiya fanlari doktori, Turkiya Istanbul universiteti professori

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)**

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	3
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	15
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	28
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	78
V.	KEYSLAR BANKI	120
VI.	GLOSSARIY	122
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	134
VIII.	TAQRIZ	137

I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019- yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzliksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz

tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi” moduli oliy maktab professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldiga davr tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar asosida tuzilgan. Mamlakat hayotida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarish va yangilanishlar, shubhasiz, oliy filologik ta’lim tizimida adabiyot o‘qitishni yo‘lga qo‘yish borasida ham tubdan yangilanish bo‘lishini taqozo qiladi.

Ochunning mavjudligi va taraqqiyotida shaxsning o‘rni tobora yuksalib borayotganligi butun dunyoda insonda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Bu hol, o‘z navbatida, filologik ta’lim samaradorligini oshirishni talab etadi. Chunki badiiy adabiyot odamda ezgu ma’naviy sifatlar tarkib topdirishning eng samarali yo‘lidir.

Davr o‘zgarishi bilan badiiy adabiyotga munosabat va unga yondashuv yo‘sini ham o‘zgarib bormoqda. Oldinlari badiiy bitikka odamlarga nasihat qilish, ortidan ergashtirish vositasi tarzida qaralib kelingan bo‘lsa, endilikda adabiyot va adabiy ta’limga o‘qirmando akseologik munosabat uyg‘otish, baho berishga ichki ehtiyoj paydo qilish omili sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv yo‘sini oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishga ham yangicha munosabatda bo‘lishni talab qilmoqda.

Bugungi odam ma’naviyati shakllanishi uchun badiiy asarni o‘qish, tushunish va tahlil qilish hamda bitikdan kelib chiqadigan ijtimoiy-estetik ma’noni anglash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu hol ta’lim-tarbiya tuzilmalarida adabiyot o‘qitish samaradorligini oshirishni taqozo qilmoqda.

Shuning uchun ham ushbu modul oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilariga adabiyot o‘quv fanlarini o‘qitishda yangicha yondashuv yo‘llari borasida tushuncha beradi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida adabiyotga doir turli fanlar, ayniqsa, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish borasida yangicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu modulning **vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

- oliy maktab professor-o‘qituvchilarini adabiyotga tegishli fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik yangiliklar bilan tanishtirish;
- Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarida o‘zbek adabiyoti yo‘nalishidagi istalgan fandan ma’ruza o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar o‘tish malakasini qaror topdirish;
- tinglovchilarda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kursi bo‘yicha samarali saboqlar uyushtirish ko‘nikmasini shakllantirish;
- professor-o‘qituvchilarda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kursini o‘tishda turli innovatsion usullardan foydalana bilish ko‘nikmasini tarkib topdirish;
- tinglovchilarda adabiyotga doir fanlarni o‘qitishda interfaol usullarni qo‘llay olish malakasini shakllantirish;
- tinglovchilarni turli janr va adabiy yo‘nalishlardagi badiiy asarlarni tahlil qilishga o‘rgatish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka va kompetent-liligi darajasiga qo‘yiladigan talablar

“**Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi**” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilim** larga ega bo‘lishi kerak:

- adabiy ta’lim mazmunini tashkil etadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarini;
- adabiyot o‘qitish kechimiga kreativ yondashuvni;
- adabiyot o‘qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligini;
- adabiy ta’limning mazmunini tashkil etadigan pedagogik unsurlarni;
- adabiyot o‘qitish samaradorligiga erishishda professor-o‘qituvchining talabalar bilan, talabalarning o‘zaro bir-biri bilan sherikligini yo‘lga qo‘yishni;
- adabiyot o‘qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini
- adabiy ta’lim birinchi navbatda kishining tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirish vositasi ekanini.

Ushbu modul tinglovchida tubandagi **ko‘nikmalar** shakllantirishga xizmat qiladi:

- tilni mukammal va nomukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish;
- adabiyot saboqlarini o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlar qaror topdirishga yo‘naltirish;
- har qanday badiiy asarni o‘quv yoki ilmiy tahlilga torta olish;
- adabiyot saboqlarida ko‘rkam bitik borasidagi qarashlarning har xil bo‘lishiga yo‘l qo‘yish;
- o‘rganilayotgan ko‘rkam asar yuzasidan talabalarning fikr-mulohazalarini, ularga qo‘shilmagan taqdirda ham, xotirjam qabul qila bilish;

- badiiy asardagi muhim unsurlarni nomuhimlaridan ajrata olish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tubandagi **malakalarni** egallashlari mo‘ljal qilinadi:

- turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qilish orqali nutqiy kompetentlikni o‘stirish texnologiyasini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- istalgan bilim darajasiga ega auditoriya ahli bilan aloqaga kirisha bilish;
- adabiyot saboqlarida o‘qitishning interfaol usullaridan foydalana bilish;
- adabiyot bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda muammoli ta’lim usulini qo‘llay olish;
- adabiyotga doir fanlar yuzasidan talabalar bilimini xolis baholay bilish;
- adabiyot saboqlarini talabalar uchun qiziqarli mashg‘ulotlarga aylantira olish.

Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o‘qituvchilar kreativ kompetentlilikni shakllantirish, badiiy tahlil **kompetentligiga** ega bo‘ladilar. Unda tekshirilayotgan asarning qaysi tur va janrda ekanidan qat’i nazar bitikka xos asosiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish yo‘llarini egallaydilar.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“**Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi**” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning adabiyot o‘qitishga doir

yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;

- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruqlar bilan ishslash singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“**Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi**” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rnii

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “**Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi**” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratiqlar to‘g‘risida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o‘qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish yo‘llari.	2	2	
2.	Bo‘lajak filologlarda badiiy tahlil kompetentliligini shakllantirish yo‘llari.	2	2	
3.	Turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qilish orqali nutqiy kompetentlikni o‘stirish texnologiyasi.	2	2	
4.	Talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o‘rgatish yo‘llari.	2		2
5.	Filologlarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish.	2		2
6.	Badiiy asarni ilmiy tahlil qilishda tur va janr xususiyatlarini hisobga olish.	2		2
7.	Lirik asarlarni o‘rganish samaradorligiga erishishda yangicha yondashuvlar texnologiyasi.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish yo‘llari. Bo‘lajak filologlar har qanday badiiy matnga ijodiy yondashish yo‘llarini bilishi, badiiy bitikdagi sirtdan ko‘zga tashlanib turmaydigan qirralarni topa va ularni ilmiy izohlay bilishlari lozim. Buning uchun talabalardahar bir narsaga ijodiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Negaki, har qanday masalaga, har qanday yumushga ijodiy yondashilgandagina uning mohiyatini anglash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, avval boshdan qoliplarni buzishga tayaniladigan adabiyot o‘qitishda talabalardagi ijodkorlik birlamchi sifat bo‘lmog‘i kerak.

2-mavzu. Bo‘lajak filologlarda badiiy tahlil kompetentliligin shakllantirish yo‘llari. Hozirgi kunlarda pedagogik hamkorlik tushunchasi oldingi vaqtdagilarga nisbatan bir qadar keng ma’no tashishiga tinglovchilar diqqati tortiladi. Agar oldinlari ta’lim-tarbiya jarayoni uchun o‘qituvchi bilan talabalarning hamkorligi yetarli bo‘lsa, endilikda buning ustiga talabalarning bir-biri bilan o‘zaro hamkorligiga erishish ham ko‘zda tutilmoxda. Oliy filologik ta’limda talabalar o‘quv kechimining obyektlarigina emas, balki chinakam subyektlari maqomiga ko‘tarilgan paytdagina ta’lim kutilgan samarani beradi.

Zamonaviy ta’lim shunday uyushtirilishi kerakki, bu kechimda har bir talaba ham o‘zi, ham boshqalar uchun javobgarlik his qilsin. Individning yutug‘i jamoaning yutug‘iga, mag‘lubiyati ko‘pchilikning mag‘lubiyatiga evrilsin. Amaliy mashg‘ulot mobaynida tinglovchilar bunga qanday erishilishi yuzasidan mashq qilib ko‘radilar.

Filologik ta’lim kechimiga ham axborot-kommunikativ vositalar kirib bormoqda. Shuningdek, ta’limni tashkil etishda konstruktiv pedagogik falsafaga tayanish yetakchilik qilib, borgan sari talabalarning mustaqil ta’lim olishiga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

Ayni damlarda filologik ta’limda ham katta samaralar keltirayotgan yondashuv yo‘sinlaridan biri interfaol o‘qitish usullaridirki, adabiyot saboqlarini yusushtirishda bu yo‘ldan foydalanish ta’limning natijadorligini sezilarli darajada yuksaltirishga olib keladi.

3-mavzu. Turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qilish orqali nutqiy kompetentlikni o‘stirish texnologiyasi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya tajribasidan foydalanish. Badiiy asarni ilmiy tahlil qilishda tur va janr xususiyatlarini hisobga olish. Davr talabalari darajasidagi yetuk filolog mutaxassis bo‘lish uchun adabiyot o‘qitish metodikasi saboqlari yordamida badiiy asar tahlili yo‘llarini egallash katta ahamiyat kasb etadi. O‘z bilimini tinimsiz o‘stirib, yangilab borish bo‘lajak filologning tabiiy ehtiyojiga aylanmay turib, kutilgan didaktik natijaga erishish mumkin emasligini vaqt ko‘rsatmoqda. Zotan, ilm-u fan tinimsiz o‘zgarib bormoqda. Auditoriya soatlari esa cheklangan. Talaba auditoriyadan chiqib ketgandan so‘ng ham adabiy ta’limni davom ettirmasa, hatto, oliy maktabni bitirgandan so‘ng ham uzluksiz o‘qimasa, davr talabiga javob bera oladigan filolog bo‘lolmaydi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg‘ulot. Talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o‘rgatish yo‘llari. Adabiyot o‘qitish samaradorligiga erishishda talabalarning badiiy asarni tahlil qilish kompetentliliginin ta’minalash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, bo‘lajak filolog uchun har qanday badiiy matn mohiyatiga kirish, uning yozilgan va tekshirilayotgan vaqtdagi hayotiy hamda badiiy mantig‘i va estetik jozibasini ochishga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat ko‘rsata bilish oliy ta’lim olish kechimidagi eng muhim natijadir.

2- mashg‘ulot. Filoglarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish. Kreativlikning bir qator ko‘rinishlari mavjud: filologik kreativlik; pedagogik-psixologik kreativlik; kulturologik kreativlik va bq. Talabalardagi ijodiy yondashuvning bu turlari filolog-mutaxassisning ham badiiy matnga, ham unda

aks etgan badiiy voqelikka, ham estetik tovarning iste’molchisiga xos jihatlarni hisobga ola biladigan soha egalari tarzida shakllanish imkonini beradi.

Badiiy asar konkret subyekt tomonidan noma’lum subyektlar uchun yoziladi. Har bir subyekt esa muayyan ijtimoiy va milliy qatlamga mansub bo‘ladi. Bu xil mansublik subyektning tasvirni amalga oshirish tarzida ham, badiiy tasvirni idrok etish va undan ta’sirlanish yo‘sinida ham namoyon bo‘ladiki, bu hol badiiy asar tahlilida ko‘zda tutilmasa, tahlil ilmiy ahamiyat kas etmay, yuzaki bo‘lib qoladi.

3- mashg‘ulot. Badiiy asarni ilmiy tahlil qilishda tur va janr xususiyatlarini hisobga olish. Badiiy asarni tahlil etishda milliy mentalitetga xos jihatlarni hisobga olish. Folklor asarlarini filologik tahlil qilish yo‘llari. G‘oyat qadimiy ildizga ega o‘zbek folklori ilmiy tahlil uchun sanoqsiz material beradi. Lekin bu xil asarlar yuzasidan bildirilgan fikrlar muayyan ilmiy qimmat kasb etishi uchun har bir bitikka o‘ziga xos yondashish talab etiladi. Folklor asarlarida millatning etnik tomiri, udum va odatlarining kelib chiqish qaynog‘i, millat ruhiyatiga xos qirralar aks etishiga e’tibor qaratilishi kerak. Xususan, “Alpomish” dostonini sinchkovlik bilan o‘rganish o‘zbek millatini ruhiyatidagi ko‘plab fazilat va illatlarning ildizini topib olish va izohlash imkonini beradi.

4- mashg‘ulot. Lirk asarlarni o‘rganish samaradorligiga erishishda yangicha yondashuvlar texnologiyasi. Lirk asarlarni o‘rganish oliy filologik ta’limdagi eng murakkab yumushlardan biri sanaladi. Negaki, oniy his-tuyg‘uga yo‘g‘rilgan fikrning moddiylashuvidan paydo bo‘lgan bu turdagи bitiklarni tahlil qilish har qanday mutaxassisda muayyan qiynichiliklar tug‘diradi. Lirk she’r deyarli hamisha birinchi shaxs tilidan, uning qirg‘og‘idan toshgan tuyg‘ulari ifodasi o‘laroq paydo bo‘ladi. Tahlil davomida “men”, “sen”, “raqib” timsollari ifodasidagi originallikka e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

- Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilaniladi:
- masofadan o‘qitish;

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.



“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili;

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sirlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga

ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma`no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruqli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (quriishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish


shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali


natijalarini beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib
ko‘ring!**

Harakatlar mazmuni	Yakka bahos	Yakka xatosi	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyoziy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalananish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi



III. NAZARIY MASHG’ULOT MAZMUNI

1-MAVZU:

OLIY O‘QUV YURTLARIDA ADABIYOT O‘QITISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA MAZMUNI HAMDA ULARNI ZAMON TALABLARIGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

REJA:

- 1. Professor-o‘qituvchi va talabalar pedagogik hamkorligining tarixiy taraqqiyot yo‘li*
- 2. Pedagogik hamkorlikni tashkil etishning yangi tendensiyalari*
- 3. Interfaol usullar – ta’limiy sheriklikning puxta ko‘rinishi*
- 4. Interfaol usullarning asosiy tamoyillari*

Tayanch tushunchalar: *Pedagogik falsafa, transmissiya, transformatsiya, transaksiya, interfaol, kichik guruhlar, jismoniy tafakkur, hissiy tafakkur, pedagogik hamkorlik.*

Professor-o‘qituvchi va talabalar pedagogik hamkorligining tarixiy taraqqiyot yo‘li. Insoniyat tarixi bilan teng bo‘lgan pedagogik amaliyot, umumlashtirib olganda, uch asosiy yondashuv asosida uyushtirilib kelinadi. Bu yondashuvlar pedagogika ilmida transmissiya, transformatsiya, transaksiya tarzida nomlanadi. Qo‘shma so‘zlardan iborat bu atamalardagi dastlabki trans so‘zi lotincha bo‘lib, “orqali”, “orqali o‘tish”, “vositasida o‘tish” ma’nolarini anglatadi.

Ta’limni **transmissiya** falsafasi asosida tashkil etish g‘oyat uzoq davom etib, insoniyat tajribasi va fanning taraqqiyoti ko‘proq **empirik** xarakterda bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu falsafiy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchi bergan bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bu davrda

insoniyat o‘zlashtirigan bilimlarning o‘zi ancha kam va soddarоq bo‘lganligi sababi o‘qituvchi ularni o‘ziga singdirgan kam sonli odamlardan biri sifatida bilganlarini o‘quvchilariga tushunarli yo‘sinda uzatganlar. Bunda o‘qituvchi – **subyekt**, o‘quvchi – **obyekt**, maqsad – **bilim berish** bo‘ladi.

Insoniyat egallagan bilimlar miqdori nisbatan ko‘payib, ularni yosh avlodga o‘zgarishsiz o‘rgatish imkonsiz bo‘lib qolgach, ta’lim kechimi **transformatsiya** falsafiy yo‘nalishi asosida tashkil etiladigan bo‘ldi. Bunda o‘qituvchi u yoki bu fanning o‘zini emas, balki uning asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirildi. Chunki bu bosqichda fan juda rivojlanganligi uchun o‘quvchilarning uni to‘liq egallab olishlari mumkin emas edi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchi transformator vazifasini o‘tar, ya’ni muayyan fanning asosiy mohiyati bilan o‘quvchining intellektual imkoniyatini bir-biriga moslashtiriga urinardi. E’tibor qilingan bo‘lsa, har ikki holatda ham o‘qituvchi ta’lim jarayonining subyekti bo‘lib, bilim bosh qadriyat hisoblanadi. Bu falsafiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’limda asosan xotirani mustahkamlashga zo‘r berilib, o‘quvchi miyasining chap yarim sharini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu yondashuvda ham o‘qituvchi – **subyekt**, o‘quvchi – **obyekt**, maqsad – **bilim berish** bo‘ladi.

Hozirgi o‘qitish kechimi uchun o‘qituvchining aytganlarinigina eslab qoladigan yoshlarni tayyorlash yetarli bo‘lmay qoldi. Chunki har qanday kuchli xotira ham cheksiz ochundagi beedad hodisalarning barchasini qamrab ololmaydi. Buning ustiga, xotira yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar faqat standart vaziyatlardagina foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Notanish vaziyatga duch kelinsa, mashaqqat bilan o‘zlashtirilgan bu bilimlar hech narsaga yaramay qoladi. Ma’lumki, tiriklik hech qanday standartu qolipga tushmaydigan darajada rang-barangdir. Shuning uchun yosh avlodni mustaqil izlanadigan, nostandard vaziyatlarda eng maqbul va original qarorlar qabul eta oladigan qilib tarbiyalash kun tartibiga chiqdi.

Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi va inson ruhiyatining

hozirgi holati o‘qitish kechimining o‘zgacha falsafiy yo‘nalish asosida tashkil etilishini taqozo etdi. Ana shu zaruriyatning natijasi o‘larоq **transaksiya** falsafasi paydo bo‘ldi. Bunga ko‘ra, ta’limning mazmuni o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlari, intilishlari natijasida o‘zlashtirilishi ko‘zda tutiladi. Ya’ni bu falsafiy yo‘nalishda o‘quvchi shaxsini shakllantirish ta’lim kechimining **bosh qadriyati** va o‘qitish jarayonini o‘qituvchi bilan bирgalikda amalga oshiradigan **subyekt** maqomida bo‘lishi lozim deb hisoblanadi. Negaki, bu davrga kelib ilm shu qadar rivojlanib ketdiki, endi o‘quvchilarga ularning asoslarini o‘rgatish ham mumkin bo‘lmay qoldi.

Pedagogik hamkorlikni tashkil etishning yangi tendensiyalari. Ilm-u fanning tezkor taraqqiyoti oldinlari xayolga ham kelmagan bir qator muammolarni paydo qildi. Chunonchi, o‘quvchilarga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay tartibda o‘rgatish kerakligi masalasini hal etish mushkul bo‘lib qoldi. Mabodo, bu muammo hal etilguday bo‘lsa ham har bir o‘quvchining bularni o‘zlashtirishi zarurmi degan inson huquqi bilan bog‘liq savol ham ko‘ndalang qo‘yiladigan bo‘ldi.

Transaksiya falsafasi olamni har bir odam o‘zi mustaqil, o‘z nazari bilan ko‘rgani kabi uni o‘z kuchi bilan o‘rganishi ham kerak deb hisoblaydi. Bu falsafiy yo‘nalish olamga o‘quv predmeti nuqtai nazari bilan qarashni rad etadi. U olam hodisalarini butunicha, yaxlit o‘zlashtirish mumkin deb qaraydi va buning uchun o‘sha hodisalarni anglatadigan ilmiy qonuniyatlarni didaktik jihatdan hazm qilish mumkin bo‘lgan holatda taqdim etish lozim deb biladi.

Ana shunday falsafiy yondashuv tufayli bugunga kelib butun dunyo miqiyosida ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish jarayoni kechmoqda. Amerika olimlarining bilimlarni o‘zlashtirish borasida olib borgan keyingi tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bugunga kunda dunyoni bildirishi jihatidan o‘qituvchi, ya’ni maktab **oila, axborot vositalari** va **muhitdan** keyingi **to‘rtinchi o‘ringa** tushib qolgan. Olamdagи har bir ilmning bo‘yiga chuqurlashib, eniga kengayishi shu darajaga yetdiki, bir kishi fanning kichik bir sohasini ham to‘liq o‘zlashtirib

olishi mumkin bo‘lmay qoldi.

Jamiyat a’zolari ma’rifat darajasining o‘sishi natijasida oilaning ichki imkoniyatlari ortib ketdi. Deyarli har bir o‘tboshi (oila) o‘z bolalariga mustaqil ravishda ma’lum darajada bilim bera oladigan darajaga yetdi. Axborotlar oqimi miqiyosining behad kengayishi axborot vositalarining ko‘payishiga olib keldi. Taraqqiyot esa, bu tiyiqsiz axborotlar oqimidan keraklilarini o‘zlashtirib olishning g‘oyat qulay texnik vositalarini yaratdi. Odamlarning umumiy intellektual saviyasi ochun miqiyosida sezilarli yuksaldi. Bu isonlarning birlariga ko‘rsatadigan o‘zaro ma’rifiy ta’siri darajasini ortirdi. Natijada, o‘qituvchi oldingiday ma’rifat osmonida chaqnagan yolg‘iz yorug‘ yulduz bo‘lolmay qoldi.

Agar oldinlari butun ta’lim tizimi o‘quvchi miyasining chap yarim sharini, ya’ni xotirasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan va bu shaxs hamda jamiyat taraqqiyoti uchun kifoya qilgan bo‘lsa, bugungi kunda xotira uchun ishslash shaxs shakllanishi uchun ham, jamiyatning o‘sishi uchun ham yetarli bo‘lmay qoldi. Inson xotirasining o‘rnini bosa oladigan shunday texnik vositalar yaratildiki, odam istagan paytda o‘zini zo‘rlab o‘tirmay, juda ko‘p narsalarni esiga tushirish imkoniga ega bo‘ldi. Endi mavjud imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo‘lida to‘g‘ri foydalana oladigan, hamisha nimanidir o‘rganishga ichki ehtiyoj sezadigan va buning samarali yo‘llarini izlaydigan kishilarni shakllantirish zaruriyati yuzaga keldi. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalar shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda.

Ta’lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtarda ochun miqiyosida keng yoyilib borayotgan **interfaol metodlarning** yuzaga kelishini taqozo etdi. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e’tiborga loyiqidir. Ta’limning bu usullari o‘qitish jarayonining asosiy og‘irligi o‘quvchilarning zimmasiga ortilishini, o‘quvchilar ta’limning obyekti emas,

balki subyekti, ya’ni ijrochisi bo‘lishini taqozo qiladi. Interfaol metodlarning negizida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning, hamda o‘quvchilar bilan o‘quvchilarning o‘zaro sheriklikdagi faoliyat ko‘rsatishi yotadi. “Interfaol” atamasi lotincha “***inter akt***” so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, “***inter***” – o‘zaro va “***akt***” – faoliyat ma’nolarini anglatadi¹. Ya’ni interfaol metodlar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birqalikda faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etishga qaratiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarga ijodiy yondashishini ko‘zda tutadi.

Interfaol metodlar ta’lim kechimida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga tayanadi. Bunda o‘qish talaba uchun qiziqarli va zarur faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda, talabalar o‘qitilmaydi, balki o‘qituvchi-professor bilan birqalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi adabiy bilimlarni ularning o‘zlari egallashadi. Bu hol talabalarda mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bunday yo‘sinda uyushtirilgan ta’lim kechimining qatnashchilari o‘zaro bemalol bahslashadilar, materialni o‘zlashtirishni o‘zlari xohlaganiday erkin amalgaga oshirishadi. O‘quv topshiriqlarining alohida talabaga emas, balki kichik guruhlardagi barcha talabalarga berilishi ularda jamoa tuyg‘usini shakllantirib, tashabbuskorligi ortuviga olib keladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta’lim kechimi uchun qiziqarlilikning o‘zi maqsad bo‘lmaydi. U – vosita, xolos. Interfaol usullar, barcha ilg‘or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol usullar – ta’limiy sheriklikning puxta ko‘rinishi. Interfaol metodlar negizida transaksiya pedagogik falsafasining **konstruktivizm** yo‘nalishi yotadi. Konstruktivizm keyingi qirq yil davomida ochun pedagogika ilmida ham nazariy qarash, ham amaliy yo‘nalish sifatida keng yoyildi. Bu ilmiy dunyoqarash o‘z nomini lotincha “***constructio***”– “qurilma”, “qurilish”

¹ Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198.

so‘zlaridan olgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘qish talabalarning aqliy faoliyatlari natijasida bilimlar konstruksiya qilinadigan, ya’ni muayyan aqliy qurilma holiga keltiriladigan jarayondir. Minglab yillik pedagogik amaliyot hech kim hech kimni o‘qitolmasligini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir shaxsning o‘zi o‘qishga intiladi va erishiladigan ta’limiy natija uning intilish darajasiga mutanosib bo‘ladi.

Konstruktivistik qarashlarning yuzaga kelishiga shvesariyalik mashhur faylasuf va pedagog Jan Piaje bilan birgalikda zamonaviy amerika pedagogikasining otasi Djon Dyui, taniqli rus psixologi L. S. Vigotskiy, amerikalik psixolog Benjamin Blum kabi olimlar jiddiy ta’sir ko‘rsatganlar. Bu yondashuvning o‘zagida **Jan Piajening**: “...*talaba o‘z intellektining me’moridir*”,- degan qarashi yotadi. Bu qarashga ko‘ra o‘qitish faol kechim bo‘lib, har bir kishi yangi bilimlarni oldin orttirgan tajribalari ustiga o‘zi “quradi”. Chindan ham hayotda har bir odam hech kimdan tayyor g‘oyani olmaydi, balki hamisha o‘z g‘oyasini yaratadi. Shuning uchun ham dunyodagi har bir odam ayni bir narsani turlicha qabul qiladi. Har bir odam umri davomida atrof olam haqidagi tasavvurlarini o‘ziga xos yo‘sinda “quradi” va dunyonи o‘zi qurbaniday anglaydi. Aynan shu bois har bir odam o‘ziga xos dunyoqarashga, e’tiqodga ega bo‘ladi va shunisi bilan betakror hamda qimmatli sanaladi. Boshqalarnikiga o‘xshamaydigan qarashlarning e’tiborga sazovorligi, o‘z qiyofasi va uslubiga ega odamning qadr topishi sababi shundadir.

Konstruktivizm odamga bilim tayyor holda berilmaydi degan o‘zak qarashga tayanadi. Kishiga hech kim bilim bermaydi, balki u bilimlarni egallash uchun o‘zi harakat qiladi, intiladi. Ta’lim muhiti esa, faqat odamlarga bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ko‘paytirish uchun zarur *sharoit yaratib berishi* kerak.

Konstruktivizm o‘rganuvchining nuqtai nazari, qarashlari qanchalik “xom” va ibridoiy bo‘lishiga qaramay, o‘qitish kechimiga asos qilib olinishini talab etadi. J. Piajening fikriga ko‘ra, odamda oldin shakllangan mavjud ichki bilimlar

bilan tashqi dunyo noma’lumligi orasidagi ziddiyatning bartaraf etilishi yangi bilimlar “qurilmasini” yuzaga keltiradi.

Konstruktivizm *haqiqatga erishish kechimini haqiqatning o‘zidan ko‘ra qimmatroq deb biladigan* pedagogik falsafadir. Shuning uchun ham interfaol metodlarda *erishilgan didaktik natijadan ko‘ra, unga kelish yo‘li, talabalarning bu kechimdagi izlanishlari, tashabbus ko‘rsatishlari muhim sanaladi*. “*Ilmiy bilim turg‘un hodisa bo‘lmay, tinimsiz qurish va qayta qurishdan iborat kechimdir*”, - deydi Jan Piaje. Chindan ham ta’limning biror yo‘nalishi ma’lum nuqtaga yetgach, to‘xtab qolmaydi, balki uzluksiz ravishda yangi marralar sari intilishlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida domlaning vazifa va maqomi bir qadar o‘zgaradi. Interfaol metodlardan foydalanilganda domla shunchaki dars beruvchi emas, balki tinglovchi uchun maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o‘rganuvchining mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratib, uning tashabbuskorligini har tomonlama qo‘llaydi. O‘rganuvchi ta’lim kechimi va unda erishiladigan natija uchun javobgar bo‘lgan to‘laqonli “sherik”ka aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish ta’limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o‘zidagi kabi sinkretik yo‘sinda tashkil etishni ko‘zda tutadi. Bunda o‘rganuvchi va o‘rgattuvchi o‘quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O‘qituvchi-professor talabalar oldiga ularni o‘rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo‘yishi, buning uchun hayotda ko‘p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo‘lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni talabalarning o‘zları tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan muammo o‘ylab topilgan sun’iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo‘lmasligi kerak.

Interfaol metodlarni qo‘llayotgan o‘qituvchi-professor biror dars yuzasidan talabalarga topshiriq berayotganda talabani faoliyatga undovchi tasniflang,

asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, andaza bering (modellashtiring), tashxis qo‘ying, baho bering kabi so‘zlarni qo‘llagani maqsadga muvofiq. Ta’lim kechimiga bu xilda aniq vazifalar qo‘yish talabalarni izlanishga, faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltiradi.

O‘z tajribasida interfaol usullarni qo‘llayotgan o‘qituvchi-professor qarama-qarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to‘qnashtirish orqali talabalarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko‘zda tutishi kerak. Shunda talabalarda o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi va o‘zgalarning fikriga tezlik bilan qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz joylarni darhol topa olish kabi sifatlar shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchi-professordan o‘rinli berilgan aqli savollarni qadrlashni, bitta aqli savolni o‘nlab to‘g‘ri, ammo jo‘n javoblardan ustun qo‘yishni talab qiladi. Shunday qilinsa, talabalarda chuqur va kerakli savollar berishga ichki ehtiyoj, intilish paydo bo‘ladi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o‘qituvchi-professor talabalar oldiga muammo qo‘yganidan keyin talabalarga muammo ustida chuqurroq o‘ylash imkonini bera bilishi lozim.

Interfaol usullarning asosiy tamoyillari. O‘quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko‘rshiga tayanib ta’lim bermoqchi bo‘lgan o‘qituvchi-professor talabalar tabiatidagi o‘ta qiziquvchanlikdan o‘rinli foydalanib, ta’lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini ko‘proq qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o‘tilganda “**izlanish – faraz – yechim – izoh – yangi izlanish**” tarzidagi ta’limiy sikl yuzaga kelsa, talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishlari va shaxs sifatida shakllanishlari ta’milanadi. Bu siklda talabalar muammo yuzasidan izlanishlari, izlanishning farazni yuzaga chiqargani, faraz va uni asoslashga urinish muayyan yechimga olib kelgani, talabalar tomonidan tavsiya etilgan yechim o‘qituvchi-professor tomonidan izohlangani, bu esa keyingi izlanishlarni keltirib chiqargani aks etadi.

Badiiy tahlil filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishslashga o‘rgatish omilidir. Badiiy tahlildan xabarsizlik yoki bu borada yetarli

malakaga ega bo‘lmaslik oliy filologik ta’limni samarasiz qiladi. O‘zbek adabiyotshunoslik ilmining dunyo adabiyottanuvi darajasidan orqadaligi, hermenevtik usullardan yiroqligi, psixonalistik tahlil imkoniyatlaridan foydalanolmasligi, badiiy tahlilning, asosan, sotsiologik talqin (interpretatsiya) yoki syujetni qayta hikoyalash tusida ekanligi badiiy matnga yondashish yo‘lini bilmaslik oqibatidir.

Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalarining diqqatini tortib kelgan. Dunyo olimlari unga turlicha ta’rif berishgan. Badiiy tahlil Kunchiqish adabiyotshunosligi ilmida ham azaldan muhokama mavzusi bo‘lgan. Miloddan to‘rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish mumkinligi to‘g‘risida gap boradi. Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan.

San’at inson hissiy-intellektual va ijodiy (kreativ) faoliyatining oliy ko‘rinishidir. Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘quvchi tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go‘zallik hayotdagi foydalanilmagan imkoniyat kabi shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun ham oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega, ahamiyatga egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallab olishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay turib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Buning uchun esa filolog mutaxassis va adabiyot o‘qituvchilari badiiy tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishlari kerak. Chinakam badiiy tahlil bo‘lмаган joyda badiiy asar o‘qirmanning tuyg‘ulariga ta’sir

etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Badiiy tahlil tushunchasi ko‘p asrlar mobaynida o‘z ta’rifiga ega bo‘lmay keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida Ovro‘po adabiyotshunosligida badiiy tahlilga ta’rif berishga dastlabki urinishlar bo‘ldi. Lekin kunbotishliklar ta’rifida badiiy tahlilni interpretatsiya (talqin) tarzida tushunishga moyillik kuchli edi. Bunday yondashuv esa badiiy asarlardan ko‘proq ijtimoiy ma’no qidirishga olib kelardi

Ko‘rinadiki, ta’lim konstruktivizm pedagogik falsafasi asosida tashkil etilganda pedagogik hamkorlik degan tushuncha o‘z ma’nosida sezilarli darajada kengaytiradi. Endi u professor-o‘qituvchi bilan talabaning sherikliginigina emas, balki bir vaqtning o‘zida ham talabaning pedagog bilan, ham talabalarning bir-birlari bilan o‘zaro hamkorligini anglatadigan tushunchaga aylanadi. Oliy adabiy ta’lim shunday tashkil etilgandagina chinakam pedagogik hamkorlik yuzaga kelib, o‘qitish samaradorligi keskin ortadi.

Jan Piajening to‘rt qoidasi:

- Har bir o‘quvchi o‘z tafakkurining me’moridir.
- Insoniyat paydo bo‘lgandan beri hali birorta ham o‘qituvchi biron ta ham o‘quvchini o‘qita olgan emas.
- Ta’lim jarayoni uchun o‘quv haqiqati bilan birgalikda unga kelish yo‘li ham muhim.
- O‘qitish kechimida o‘quvchilar fikrining sifati bilan birga soni ham ahamiyat kasb etadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Konstruktivizm haqidagi qarashlaringizni bayon eting.
- Interfaol so‘zining ma`nosini?
- Jan Piaje Konstruktivizm haqida nima deydi?
- Qaysi mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan?
- Interfaol usulda o‘qitish qaysi pedagogik falsafaga tayanadi?

6. Badiiy tahlil filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishslashga o‘rgatish omillari haqida fikr bildiring.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богданова О. Ю., Леонов С. А., Чертов В. Ф. Методика преподавания литературы (учебник). Москва: "Academa", 2004.
2. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиши методикаси, -Т.: «Ўқитувчи», 1967.
3. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Университет», 1994.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. -Т.: «Ўқитувчи», 1996.
5. Зуннунов А. ва бк. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Ўқитувчи», 1992.
6. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усувларда ташкил этиш. –Т.: “Tamaddun”, 2010.
7. Резь З. Я. и др. Методика преподавания литературы. -М.: “Просвещение”, 1985.
8. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Теоретические основы интерактивного обучения. Учебное пособие. – Т.: 2007.
9. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.
10. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.
11. Ҳусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. –Т.: “Muharrir”, 2013.

2-MAVZU:**BO‘LAJAK FILOLOGLARDA BADIY TAHLIL
KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI****REJA:**

- 1. Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida*
- 2. Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o‘rni*
- 3. Talabalarni badiiy asar tahliliga o‘rgatish omillari*

Tayanch tushunchalar: Filologning kasbiy tayyorgarligi, tahlil kompetentliligi, nutqiy kompetentlilik, badiiy tahlilning filologik ta’limdagi o‘rni, tahlilga o‘rgatish yo‘llari

Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida. Badiiy tahlilga o‘qitishdan maqsad filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga o‘rgatishdan iboratdir. Badiiy asarlarni tahlil qilish borasida yetarli malakaga ega bo‘lmaslik oliy filologik ta’limni samarasiz qiladi. O‘zbek adabiyotshunoslik ilmining dunyo adabiyottanuvi darajasidan orqada qolayotgani, badiiy tahlilda yangicha va samarali yondashuvlardan yetarlicha foydalanilmayotgani, matn tahlilining hanuz asosan sotsiologik talqin yoki syujetni qayta hikoyalash tusida ekani badiiy matnga yondashish va uning mohiyatini ochishning ilmiy yo‘sirlari yetarlicha egallanmaganligi oqibatidir.

Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon fikr egalarining diqqatini tortib kelgan. Turli davrda yashagan, har xil maqom va darajadagi olimlar badiiy tahlilning mohiyati va unga xos xususiyatlarni tasniflab, ushbu tushunchaga ta’rif berishga urinib kelishgan. Miloddan to‘rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish ham mumkinligi aytildi.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga islomiy-turkiy dunyoqarash asosida yondashuv namoyon bo‘lgan.

Qator yillar davomida badiiy asar bilan ishlash va uni tadqiq etish kechimini kuzatishlar shundan dalolat beradiki, Oliy o‘quv yurtida saboq olayotgan yoki oliy filologik ma’lumotga ega bo‘lib, o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, hatto, oliy o‘quv yurtlarida ishlayotgan filolog mutaxassislarning kattagina qismi badiiy asarni tahlil qilish borasida yetarlicha malakaga ega emaslar. Badiiy asarni tahlil qila bilmaslik domladan talabaga, o‘qituvchiga aylangan sobiq talabadan o‘quvchiga, talabaga aylangan kechagi o‘quvchidan yana talabaga tarzida uzilmas halqa bo‘lib davom etib kelmoqda. Bu holni adabiyot o‘qitish amaliyotining aybidan ham ko‘ra fojiasi deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, na talabalar va na o‘qituvchilar va, hatto, na oliy o‘quv yurtida ishlaydigan filolog-domlalar badiiy matnni tahlil qilish yumushiga maxsus o‘rgatilmaydi. Oshib borsa, biror domla tomonidan qilingan matn tahlili shundayicha olinib, o‘qitish amaliyotiga ko‘chiriladiki, badiiy matnga yondashishda bir xillik va fikrlashda qolipni yuzaga keltiradigan bunday yo‘lning foydasidan zarari ko‘proqdir.

Bundan qirq yillar oldin kuyunchak o‘zbek adabiyotshunos olimlari oliy o‘quv yurtiga kirish uchun yozilayotgan insholarning bir xilligidan norozi bo‘lib va bu holatni o‘zgartirishga urinishib matbuotda qator chiqishlar qilgan edilar. Yaxshi niyatda qilingan bu harakatlarning samara keltirmasligi oldindan aniq edi. Negaki, respublikadagi barcha maktablardagi adabiyot saboqlarida badiiy asarlar yagona qolip asosida tahlil qilinadigan o‘sha vaqtarda insholarning bir xil bo‘lmasligi mumkin emasdi. Insholarning bir xilligi o‘quvchilar bir xil fikrlashining emas, balki adabiyot o‘qitishning bir xil fikrlashni, demakki, amalda fikrlamaslikni talab qiladigan tarzda yo‘lga qo‘yilishi oqibati edi. Afsuski, maktab adabiy ta’limida bu hol hozirga qadar ham davom etib kelmoqda.

Albatta, badiiy asarni maromiga yetkazib tahlil qila oladigan adabiyotshunoslar hamma davrda ham bo‘lgan. Ammo ularning malakasi, tahlil kechimida tayanadigan ilmiy tamoyillari hamda qo‘llaydigan usullari ilmiy g‘oyaga aylantirilmagan edi. Shuning uchun ham imkon boricha milliy sinchilikning tahlil borasidagi tajribalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mutaxassis badiiy tahlil o‘zi nima, uni amalga oshirishda qanday ilmiyestetik asoslarga tayanish kerak, matn tahlili jarayonida nimaga birlamchi e’tibor qaratilishi lozim qabilidagi ko‘plab savollar atrofida fikrlashish lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich maktabdan tortib, oliy filologik ta’limga qadar bosqichlardagi tahlil amaliyotida bugungi kunda muayyan darajada qo‘l keladigan ilmiy taklif va tavsiyalarni taqdim etib, ular to‘g‘risida fikrlashish maqsadga muvofiqli.

Badiiy tahlilga o‘rgatishdan **maqsad** filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga odatlantirishdan iborat deb belgilash baravarida badiiy tahlilning o‘zidan qanday **maqsad** kuzatiladi degan savolga ham javob berish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mualliflardan tahlil nima, tahlilchi kim, uning adabiyottanuvchidan farqi bormi qabilidagi masalalarga ham yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, to‘xtalishni taqozo qiladi.

Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o‘rnini. Badiiy tahlil nima va uning mohiyati nimadan iborat degan muammoni yechishga ushbu kitobdan alohida bo‘lim ajratilganini nazarda tutib, bu o‘rinda adabiy tanqid va uning belgilarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblandi. Adabiyot va san’at to‘liq mafkuralashgan sovet sharoitida, xuddi badiiy adabiyotga bo‘lgani kabi, adabiy tanqidga ham uning asl imkoniyati va funksiyasidagidan ko‘ra ko‘proq yuk ortilgan edi. Sovet davrida muayyan asarning badiiy-estetik qimmati va milliy adabiy jarayon taraqqiyotidagi o‘rnini belgilab berishi kerak bo‘lgan tanqidchilik ko‘p hollarda estetik qozilik yoki qoralovchilik vazifasini bajarishga yo‘naltirilardi.

Tanqidchilik adabiyot o‘rmonidagi sanitar hisoblangan sharoitda badiiy asarlarni tadqiq etishdan ko‘ra u haqda hukm chiqarishga moyil edi. Shuning

uchun ham biror asarning ham jamoatchilik, ham hukmron mafkura tomonidan qabul qilinishi ko‘p jihatdan sinchilikning ilk reaksiyasiga bog‘liq bo‘lar, shu boisdan ham sovet davrida tanqidchilik katta mavqega ega edi. Alovida ta’kidlash joizki, u davrda adabiy tanqidchilik nomiga yarasha tanqid qilishga juda moyil etilgandi. Aslida adabiy tanqid badiiy matndan nuqson, kamchilik izlashdan ko‘ra fazilat qidirish va topishga ko‘proq diqqat qaratsa, adabiyotning rivojiga, ayniqsa, o‘qirmanlarda badiiy did hamda sog‘lom ma’naviyat shakllanishiga ko‘proq xizmat qilgan bo‘ladi. Buning ustiga, o‘qirmanlarning tanlash huquqi, bugungi bozor iqtisodi atamasi bilan aytildigan bo‘lsa, iste’molchining talabi degan tushuncha borki, u hisobga olinadigan bo‘lsa, qanchalik yaxshi niyat va qanday yuksak professionalizm bilan amalgamoshirilmasin, biron-bir tanqidiy qarashni jamiyatning barcha qatlamlari nomidan yagona haqiqat tarzida taqdim etish mumkin emas. Bozor munosabatlari o‘rgatadiki, har qanday tovar o‘z olarman (xaridor)iga ega va har bir odamda istagan tovarni sotib olish yoki olmaslik huquqi bor. Binobarin, chop qilingan badiiy asar ham pulga sotib olinadigan bir ma’naviy tovar o‘laroq, olarmanning istagiga muvofiq yo sotib olib o‘qiladi va maqtaladi, yoki sotib olib o‘qiladi va tanqid qilinadi, yoxud sotib olinmaydi va o‘z-o‘zidan kasodga uchrab sinadi. Shuning uchun ham bosib chiqarilgan va o‘qilayotgan bitikki bor, undagi inson ma’naviyatiga foyda keltirishi mumkin bo‘lgan jihatga e’tibor qaratib, o‘qirmanning diqqatini shu qirralarga tortish adabiy sinchilikning asosiy vazifasi deb qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ko‘pchilikda “tanqidchilik” atamasining nomidan kelib chiqib, badiiy asarlar haqidagi qarash va xulosalar “tishli”roq, og‘riqliroq bo‘lishi, yozuvchilar tanqidchilardan cho‘chib turishi kerak, hatto, tanqidchilar ayrim sayoz asarlarning bosilib chiqishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlasalar yanada yaxshi bo‘lardi deganga o‘xshash yondashuv ham bor. Ayniqsa, keyingi vaqtida bunga o‘xshash fikrlar ko‘payib bormoqda. Holbuki, ijod erkinligi o‘z-o‘zidan, tabiiy ravishda, yomon yozish erkinligini ham anglatadiki, buni tan olmaslik adabiy

kechimga zug‘um o‘tkazishga urinishdan boshqa narsa emas. Ijod erkinligi amalda bo‘lgan sharoitda adabiy tanqidchilik asosiy e’tiborni o‘qirmanlarning didini o‘stirish, ularni asldan soxtani, go‘zaldan xunukni ajratadigan darajaga yetkazishga qaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu munosabat bilan yana bir jihat, ya’ni tanqidchilik atamasining ma’nosiga e’tibor qaratish va bu borada muayyan to‘xtamga kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizningcha, arab tilida “*tanlab olish, saralash*” hamda “*tanqidiy tekshirish va tanqid qilish*” ma’nolarini anglatadigan نقد(*naqada*) o‘zagidan olingan “*tanqid*” va undan yasalgan “*tanqid qilish, ayplash*” ma’nolaridagi تتفيد (*tanqidun*) hamda bundan kelib chiqqan va “*tanqid qiluvchi, tanqidchi*” ma’nosidagi صنفه (munaqqid) atamalari ushbu estetik hodisa mohiyatini aniq va to‘liq ifodalay olmaydi. Buning o‘rniga o‘z tilimizda bor va qozoq hamda qirg‘iz qardoshlar tomonidan ham ishlatilib kelinayotgan baholash ma’nosidagi “*sin*” so‘zi va shu yumush bilan shug‘ullanadigan kasb egasini anglatadigan “*sinchi*” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqroq bo‘lardi.

Bizningcha, har qanday badiiy asarning o‘qishli va jozibali tomonlarini tashkil etgan estetik, psixologik, hayotiy, ruhiy hamda badiiy tasvirga doir omillarni topish, muayyan bir asar o‘qilayotganda uning qaysi jihatlariga e’tibor qaratilsa, asar mohiyatiga yetish osonroq bo‘lishini ko‘rsatish borasida o‘qirmanga ko‘mak berish sinchilikning asl mohiyatini anglatadi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, badiiy asarni tushunish va, ayniqsa, tushuntirishning qiyinligi, adabiy tanqidda yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan subyektivlik badiiy asarni ilmiy tahlil qilish mumkin-nomumkin va kerak-nokerakligi borasida keskin qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday qarashlarda bir-biriga keskin zid bo‘lgan ikki yondashuv borligini kuzatish mumkin.

Bu yondashuvlarning biri adabiy sinchilikda faqat *subyektiv* qarashlar ifodasini ko‘radi va shu sababli uni ilm emas deb hisoblaydi. Chindan ham tahlil amaliyoti ko‘rsatadiki, ayni bitta badiiy matn bir necha sinchi tomonidan

tamomila har xil yo‘sinda tekshirilishi va turlicha baholanishi ko‘p uchraydi. Bunday yondashuv tarafдорлари adabiy sinchilikning ilmiyligi xuddi tabiiy va matematik fanlardagi kabi aniq ko‘rinib turadigan hamda boshqacha izohlash mumkin bo‘lmagan birgina yo‘sinda ifodalanishida namoyon bo‘lishini istaydilar. Ancha keng yoyilgan bunday qarashdagi mutaxassislar kibernetikaning otasi N. Vinerning: “...*har qanday fanning ilmiylik darajasi uning matematikalashish darajasiga tengdir*”,- degan qarashiga tayanib, matematik apparatga ega bo‘lmagan va xulosalari arifmetik miqdorlarda o‘lchanmaydigan ilmiy hodisa fan bo‘lolmaydi deb hisoblaydilar.

Matematik aniqlik tarafдорлари bilan tortishuvlar natijasida adabiyotshunoslik fanining aniqligi va ilmiyligi borasida muhim to‘xtamlar yuzaga keldi. Chindanda mutaxassislar o‘ylanib qolishdi: agar adabiyottanuvning aniqligi matematik tabiatga ega bo‘lmasa, qanday xususiyatga ega? Uni ilm deb atash mumkinmi? Shu xildagi keskin savollarga javob izlash asnosida biror fanning aniqligi va ilmiyligi uning matematik mohiyatga ega bo‘lganligi darajasi bilan emas, balki o‘z predmetining qonuniyat va xulosalariga muvofiq kelish darajasi bilan belgilanadi degan muhim to‘xtamga kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi. XX asr rus adabiyottanuvchiligining ulkan vakili D. Lixachev aytmоqchi: “*Fanning aniqligini tayin etishda faqat aniqlikning o‘ziga intilmaslik kerak. Tabiatida aniqlik bo‘lmagan va bo‘lishi mumkin ham bo‘lmagan materialdan o‘ta darajadagi aniqlikni talab qilish g‘oyat xatarlidir*”². Haqiqatan, biror fan tomonidan qo‘llaniladigan tamoyil va usullar shu fanning tabiatiga qanchalik ko‘p mos kelsa, ushbu fan predmeti mohiyatining muhim, obyektiv va o‘ziga xos jihatlarini shunchalik to‘la ko‘rsatadi hamda bu sohadagi izlanishlar o‘shanchalik ilmiylikka ega bo‘ladi. Zero, ilmiylikning asosiy, mohiyatan

² Лихачев Д.С. О точности литературоведения // Литературные направления и стили. –Москва. 1976. С. 15.

yagona belgisi fan predmetiga mos keladigan qoida va qonuniyatlarni tayin eta olishdan iboratdir.

Adabiyotshunoslikning ilmiyligi badiiy adabiyotga doir yetarlicha turg‘unlikka ega bo‘lgan qonuniyatlar hamda adabiy hodisalar bilan ularning rivojlanish tamoyillari orasidagi muhim va muqim bog‘liqliklarni belgilab berishda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikdan uning tabiatiga xos bo‘lmagan tarzda o‘ta aniqlikni talab qilishga urinuvchilar bilan bir qatorda ***badiiy asarni ilmiy izohlash kerak emas deb qaraydigan*** yondashuv tarzi ham mavjud. Bu tamoyil tarafdarlari o‘z qarashlarida fan hech qachon san’at asarining sehrli ohanrabosi va sirli jozibasini berolmasligiga asoslanadilar. Ular ilmiy tahlil natijasida asarning badiiy-estetik tarkibi buzilib, jozibasi yo‘qolishi mumkin, deb qaraydilar. Badiiy matnga xos muhim qonuniyatlarni ochmoqchi bo‘lib, uni tahlil qilishga kirishgan sinchi oldida asarning yaxlitligiga daxl etib, amalda uni vayron qilish xavfi ham turadi. Ijodiy intuitsiyaning mahsuli bo‘lmish san’at asari faqat intuitiv yo‘sinda qabul qilinishi, intuitiv bilishning natijalari faqat subyektiv taassurot hamda g‘ayrishuuriy (irratsional) tuyg‘ular shaklida qayd etilishi lozim. Bu taassurot va tuyg‘ularni badiiy asarning o‘zi bilan jiddiy yo‘sinda solishtirish kerak emas. Negaki, ularning fikricha, ***adabiyotshunoslik uchun ilmiylik nafaqat keraksiz, balki zararli*** ham. Zero, adabiyottanuvchilik fandan ko‘ra san’atga – asardan ta’sirlanish va o‘z kechinmalarini hissiy, imkon qadar obrazli yo‘sinda bayon etish san’atiga yovuqdir.

Holbuki, badiiy asarni ilmiy tahlil qilish mumkinligini tan olmaydigan mutaxassislar badiiy adabiyotga doir tushunchalar bilan adabiyot haqidagi ilmning tamoyillarini aralashtirib, adabiyot hamda adabiyotshunoslikni qorishtirib yuboradilar. Ilmiy tafakkurdan uning tabiatiga yot bo‘lgan obrazli badiiylik mahsulini kutadilar. Mashhur rus adabiyotshunosi A. Bushmin ancha yillar oldin haqli ravishda ta’kidlaganidek: “*Ma’lumki, ilmiy fikrlash tarzi badiiy obrazni bus-butun qamrab ololmaydi, undagi ko‘pma’noli mohiyatning barcha*

*qirralarini to‘liq ilg‘ayolmaydi, u ko‘rsatgan ta’sir o‘rnini bosolmaydi. Shunday qilish mumkin bo‘lganda, san’atning keragi bo‘lmay qolardi*³. Mantiqiy kategoriyalar, ilmiy atamalar, tushunchalar, ta’rifu qoidalar badiiy obrazni bilishning mohiyati bo‘lib, ular badiiy asardagi asosiy jihatni ajratib, uning qonuniyat darajasidagi muhim qirralarini qabariq tarzda ko‘rsatish orqali bizning asar haqidagi hissiy kechinma va tasavvurimizni to‘ldiradi, boyitadi.

San’at odam hissiy-intellektual va ijodiy (kreativ) faoliyatining oliy ko‘rinishidir. Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘qirman tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. Hayotda mavjud, ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlar borliqqa ta’sir qilolmagani kabi his etilmagan, anglanmagan go‘zallik ham shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish, ya’ni badiiy asar o‘qitish orqali yoshlarda ezgu ma’naviyat hamda yuksak did shakllantirish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallagan bo‘lishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay turib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Buning uchun esa filolog mutaxassislar o‘rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishlari kerak. Chinakam badiiy tahlil qilish yo‘llari egallanmagan o‘quv muassasalarida badiiy asar o‘quvchilarning tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Sovet davridagi mafkuraviy adabiyot o‘qitishni amalda badiiy matnsiz adabiy ta’lim edi, deyish mumkin. Bunday adabiy ta’limda badiiy asarning o‘zi

³ Бушмин А.С. Наука о литературе. –Москва. 1980. С. 112.

emas, balki undan keltirib chiqariladigan ijtimoiy ma’no birlamchi sanalar edi. Natijada, adabiyot o‘qitish asosan ochiq g‘oyabozlik, primitiv o‘gitchilik, yalang‘och aqidaparastlik va ensaqotirar ijtimoiyotchilik yumushiga aylanardi. Bu faqat O‘zbekiston o‘rta va oliv maktablaridagi adabiy ta’limgagina xos xususiyat bo‘lmay, kommunistik mafkura hukmronlik qilgan barcha o‘lkalarda ham ahvol deyarli shunday edi. Sovet Ittifoqi atalmish bepoyon imperiyaning hamma joyida ham talabalarga muayyan asardan keltirib chiqariladigan yalang‘och haqiqatlar, partiyaviy aqidalar, sinfiy kurash mohiyatiga daxldor umumlashmalar, adiblar umrbayoniga doir ma’lumotlarni yetkazish adabiy ta’limdagi eng zarur yumushlar deb qaralar, yoshlar chinakam badiiy so‘z ta’mini his kilishdan, adabiy asar matni bilan bevosita tanishish orqali olinadigan zavqdan uzib qo‘yilgan edi.

Holbuki, jamiyat a’zolarining biror ilmiy yoxud hayotiy haqiqatni bilmay qolishi jamiyat uchun ham, shaxsning o‘zi uchun ham qachondir harakat qilinsa, o‘rni qoplab olinishi mumkin bo‘lgani holda, biror ma’naviy qadriyat, axloqiy sifatni o‘zlashtirmaslik chinakam insoniy fojiadir. Qachondir o‘rta maktabda tahsil ko‘rgan deyarli barcha odam Pifagor teoremasini yoxud suvning kimyoviy tarkibi nimadan iborat ekanini tutilmay aytib beroladi. Hatto, bugungi kunda ham “*To‘g‘ri burchakli uchburchak gipotenuzasi kvadrati katetlar kvadratlari yig‘indisiga teng*” ekani haqidagi ta’rifni bilish ta’lim tizimi uchun o‘zlashtirish nihoyatda zarur bo‘lgan haqiqat hisoblanadi. Holbuki, bu ta’rifni o‘zlashtirish yoki o‘zlashtirmaslik na tabiat, na jamiyat va na alohida olingan shaxs o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsata oladi. Eng muhimi, darslikdagi standart vaziyatdan tashqari biror o‘rinda amaliyotga tatbiq etilmaydigan shunga o‘xshash haqiqatlarni bilish o‘quvchi intellekti, ma’naviyati va ruhiyatiga deyarli ta’sir qilmaydi.

Pifagor teoremasi yoki suvning formulasini bilganda ham, bilmaganda ham kishining, uni o‘rab turgan olamning mohiyati o‘zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning: “*Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o‘t, Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o‘t*” matla’li yoki: “*Meni men istagan*

o‘z suhbatiga arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas” bayti bilan boshlanadigan g‘azallarining badiiy jozibasi va mantiqiy qudratini his etgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo‘lib qolishi aniq. Bulardan bexabar yoki bahasiz odamning ruhiyatida esa anchagina kemtiklik bo‘lishi ham shubhasizdir. Demak, asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiatи va manaviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi.

Abdulla Oripovning har satridan insoniy dard balqib turuvchi “Sarob” (“O‘ylarim”) she’ridan olingan quyidagi satrlar mohiyati va jozibasini anglab yetish har qanday o‘quvchi yoki talaba tuyg‘ularida ulkan o‘zgarishlar yasashi mumkinligini inkor etib bo‘lmaydi:

Olti oykim, she’r yozmayman, yuragim zada,

Olti oykim, o‘zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do‘stilarim ham pana-panada

Iste’dodim so‘nganidan qilar karomat...

Nimanidir axtaraman she’rdan ham ulug‘,

Nimanidir qidiraman nondan azizroq.

Dunyo o‘zi bepoyon-ku ranglarga to‘lug‘,

Biroq mening ko‘zlarimdan ranglar ham yiroq.

...She’r izlayman bukun Toshkent ko‘chalarida,

Sekingina zirqiraydi beoram qalbim.

Men umrimning bu suronli kechalarida

Na bir taskin topa oldim, na she’r topoldim.

...Ta’na qilmay axir sevgim mukofotini

Inson uchun ming otashda kuyar edim men.

O, qanchalar sevar edim inson zotini,

Qanday buyuk muhabbat-la sevar edim men.

Bugun to‘nib atrofimga qarayman g‘amgin,

O‘t berolmas, qalbga endi u yoshlik damlar.

Men insonni bir insonday sevardim, lekin
Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar...

Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go‘zallik kitobxonning nafaqat ruhiyati, balki tafakkuriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to‘g‘ri yo‘nalish beradi.

Badiiy adabiyotni faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o‘quvchilarni yashashga o‘rgatadigan amaliy vosita tarzida tushunish va izohlash noto‘g‘ri va, hatto, zararlidir. Chunki bunday izoh badiiy adabiyotning mohiyatini buzib ko‘rsatadi va jo‘nlashtiradi. Adabiyot hayotdagi muammoli vaziyatlardan chiqib ketishning retsepti yoxud voqelikdagi mushkul savollarga javob topib beradigan vosita emas, balki o‘qirmanda o‘zi, o‘zgalar, olam va odamiyat to‘g‘risida muayyan tarzdagi ma’naviy-fikriy munosabat uyg‘otishga xizmat qiladigan estetik hodisadir. Bu munosabat oldin adabiy qahramonlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi, keyinchalik o‘qirmanning o‘zi va tutumlariga qaratiladi. Demak, anglangan badiiyat o‘qirmanni o‘ylashga, o‘ylanishga o‘rgatadi. Shuningdek, adabiyot u yoki bu tarzda yashash kerak deb insonga tavsiya ham bermaydi, yo‘l ham ko‘rsatmaydi. Chunki odam tabiatining xilma-xilligi, u tushishi mumkin bo‘lgan hayotiy vaziyatlarning sanoqsizligi, hisobsiz muqobilarga egaligi har qanday retsept va tavsiyalarni darrov samarasiz qiladi. Shu bois badiiy asarga jo‘n maishiy pragmatik nuqtai nazar bilan yondashib, undan hayotdagi biror yomonlikni darhol bartaraf etishni kutib bo‘lmaydi. Mabodo, adabiyot biror buzilgan narsani tuzatsa ham, faqat munosabat dorisi bilan, ruhiy taftish malhami bilan tuzatishi mumkin.

XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab, millat ijtimoiy hayoti va taraqqiyotida asar tahlilining katta ahamiyatga egaligi bir qadar anglanadigan bo‘ldi. O‘sha anglanishning, asar tahlili inson ma’naviyati shakllanishida tutgan yuksak mavqe tan olinishining natijasi o‘larоq, XX asr so‘nggi dekadasida “Badiiy tahlil asoslari” degan fan yaratilishiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shu ehtiyoj natijasi o‘larоq respublikamizning bosh oliy maktabi – O‘zbekiston

Milliy universiteti filologiya fakultetida 1996-yildan maxsus kurs, 1998-yildan e’tiboran tanlama fan sifatida o‘tila boshlandi. 2004-yildan boshlab esa ushbu kurs o‘zbek filologiyasi yo‘nalishida mutaxassislik fani sifatida o‘qitilishi o‘zbek oliy filologik ta’limi uchun juda katta ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi.

Qachonki, bo‘lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan darajasida o‘rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratiqni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan asl maqsadga to‘liq erishilishi mumkin emas. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – ma’naviy barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, oliy adabiy ta’limda badiiy asarning butun jozibasini ochish ilmiy asoslarda yo‘lga qo‘yilmaganicha qoladi. Chinakam badiiy tahlil o‘rniga quruq chaqirig‘u aqidabozlik sabab o‘quvchi hamda talabalar haqiqiy adabiyotni soxtasidan farqlay olmaydilar. Shu bois ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirilmay qolaveradi.

Badiiy asarni tahlil qilish malakasiga yetarlicha ega bo‘limgan filolog mutaxassis talabalarga nima “berish”ni bilmaganidek, ulardan nimani “talab etish”ni ham tasavvur qila olmagani bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga kerakli yuk qo‘yilmaydi. Talabalar xayolotini yuksaltirmaydigan, aqlini zo‘riqtirmaydigan yengil-yelpi “bilim”lar adabiyot bo‘yicha ijobjiy baho olish uchun yetarli hisoblanib kelinadi. Chunonchi, fizika fanida butun olam tortilish qonunini yaratish uchun Nyutonning boshiga tasodifan tushib ketgan olma turkti bo‘lganini aytgan, ammo qonunning mohiyatini bilmagan talabaga “yomon” baho qo‘yiladi va to‘g‘ri qilinadi. Ammo Alisher Navoiy “Xamsa”sining besh dostonidan iboratligi, uning ikki yarim yil mobaynida yaratilgani va dostonlarning joylashish tartibini bilgan talabaga, garchi u “Xamsa”ni ochib ko‘rmagan bo‘lsa-da, “ijobjiy” baho qo‘yilaveradi. Adabiyot

bo‘yicha nimani talab qilish kerakligi aniq belgilab olinmagani uchun o‘sha “bilim” ham yetarli deb qaraladi.

Talabalarni badiiy asar tahliliga o‘rgatish omillari. Badiiy asar matni bilan ishlashni o‘z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta’lim avval-boshdan samarasizlikka mahkumdir. Badiiy tahlilsiz adabiy ta’lim natijasi ma’naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogika o‘z oldiga ma’naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maqsadini qo‘ygan ekan, adabiy ta’limda badiiy tahlil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir. Malakali badiiy tahlil bo‘limgan joyda mo‘jizaviy asarning sehri, siri, jozibasi yo‘qqa chiqadi. Chunki uning zamiridagi badiiy va hayotiy ma’no payqalmay qolaveradi. Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlilga e’tibor g‘oyat sust bo‘lganligi uchun ham millat ahlining bir necha avlodni Navoiy, Bobur, Mashrab va Qodiriy asarlarini o‘qigani holda ularsiz yashab kelmoqda. Chunki milliy adabiyotshunoslik tomonidan hali bu ijodkorlarning asarlariga xos badiiy jihatlarni butun ko‘لامи, ko‘pqirraliligi bilan aniqlab, talaba va o‘quvchilarga yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgani yo‘q.

Badiiy tahlil yo‘llari o‘zlashtirilmaguncha talabalar ham, o‘quvchilar ham haqiqiy adabiyot namunasini qiziq syujetli yengil-yelpi bitiklardan farqlay olmaydilar. Chunki ular asl badiiy matnning qimmati nimadan iboratligini bilmaydilar. Bu holat ularni badiiy shabko‘rlik – daltonizmga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabko‘rlik, didsizlik esa ma’naviy kemtiklik va axloqiy loqaydlik kabi illatlarga sabab bo‘ladi. Adabiy asar o‘qimaydigan, uni tahlil qila olmaydigan, binobarin, undan ta’sirlana bilmaydigan kishi ma’naviy qadriyatlarni tuymaydi, tushunmaydi, binobarin ularga mensimay qaraydigan bo‘ladi. Bunday odamga o‘zgani his etish, birovga darddosh bo‘lish tuyg‘usi begona. Unda tor amaliyotchilik, xudbinlik, manfaatparastlik illatlari mavjud bo‘lish xavfi katta. Shuning uchun ham badiiy tahlilni amalga oshirish oddiy didaktik yumushgina emas, balki o‘ta muhim ma’naviy-axloqiy tadbir hamdir.

Fanlar metodologiyasida ilmning biror tarmog‘i alohida fan hisoblanishi

uchun quyidagi uch shartga javob berishi kerak deyiladi: a) o‘ziga xos mustaqil tadqiqot predmeti bo‘lishi; b) o‘ziga tegishli ilmiy-tadqiqot usullar tizimiga egaligi; v) salmoqli ijtimoiy ahamiyati borligi.

Shu ma’noda badiiy tahlilning boshqa biror fan bevosita shug‘ullanmaydigan o‘z obyekt va predmeti mavjud. Ochun bo‘yicha eng qadimgi zamonlardan bugunga qadar yaratilgan og‘zaki va yozma badiiy asarlar badiiy tahlilning *obyektidir*. Badiiy tahlilning *predmeti* adabiy asarning badiiyligini ta’milagan omillar, uning estetik jozibasini yuzaga chiqargan unsurlar, yozuvchining uslubi, badiiy asar va ijodkor dunyoqarashi, badiiy asar hamda jamiyat munosabati, badiiy yaratiqda inson ruhiyatining ifodalananish yo‘sini kabi bir ko‘p jihatlarni nazariy tekshirib, ularga asosli ilmiy baho berish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir.

Bo‘lajak filolog mutaxassislarni istalgan badiiy asarni professional darajada ilmiy tekshirishga o‘rgatish badiiy tahlilning *maqsadidir*. Fanning *vazifalari* sirasiga filolog-mutaxassislarga muayyan adabiy yaratiqning milliy badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni, konkret asarning o‘ziga xos jihatlari, tasvirdagi yutuq va kamchiliklar hamda bularning sabablari nimadan iboratligini topish yo‘llarini o‘rgatish singarilar kiradi.

Ilmning har qanday tarmog‘i kabi badiiy tahlilning ham o‘ziga xos tadqiqot metodlari mavjud. Chunonchi, *kuzatish*, *dalillash*, *umumlashtirish*, *baholash*, *akseologiya*, *shartlilik*, *komparativistika*, *ruhiy asoslash*, *badiiy qimmatni tayin etish*, *solishtirish*, *umumlashtirish*, *evristik* singari ilmiy-tadqiqot metodlari mazkur fanga doir dalillarni to‘plash, umumlashtirish, tahlil etish, tizimga solish va muayyan ilmiy to‘xtamga kelish kechimida qo‘llaniladigan usullar hisoblanadi. Bu tadqiqot metodlaridan ba’zilari boshqa fanlarni tekshirishda ham qo‘llanishi mumkindir, lekin unday holatda o‘zgacha yo‘sin va maqsadda ishlatiladi.

Badiiy tahlil – ulkan *ijtimoiy-estetik ahamiyatga ega*. Asosli badiiy tahlil bo‘lmaidan joyda adabiy asar to‘la anglanmaydi. Badiiy matnni to‘la anglamagan

filolog o‘zga odamlar ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyati mobaynida kutilgan samaraga erisha olmaydi. Holbuki, filologlar millat ahli ma’naviyatini shakllantirishga mas’ul bo‘lgan kasb egalaridir. Jamiyat a’zolari hayotida badiiy adabiyotning baland martabada ekanligi, ta’lim tizimida adabiyot alohida imtiyozli mavqeda turishining sababi uning ulkan ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqadi. Ezgu ma’naviyat, yuksak axloqiy qadriyatlar shu yo‘nalishdagi tajribalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan shakllantiriladi. Bu xil tajriba har bir odamning, albatta, o‘z boshidan kechirilishi shart emas. Balki badiiy asar qahramonlari holatini chuqur anglash, ularning hissiyotlari qo‘zg‘alishi, tuyg‘ulari junbushga kelishi sababini tushunish kishida adabiy qahramonlarniki singari ijobiy sezimlarning tarkib topishiga sabab bo‘ladi.

Tilga olingan ana shu omillar filolog mutaxassislarda badiiy tahlil kompetentliligin shakllantirish ular faoliyatining samaradorligini oshirish omili ekanini ko‘rsatadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tahlilning obyekti nima?
2. Mashhur rus adabiyotshunosi A. Bushminning badiiy asarning tahlili haqidagi fikrlariga qanday qaraysiz?
3. Badiiy tahlilning predmeti haqida fikr bildiring.
4. XX asr rus adabiyottanuvchiligining ulkan vakili D. Lixachev haqida nimalarni bilasiz?
5. Kibernetikaning otasi N. Viner fan haqida qanday fikrlar bildirgan?
6. Badiiy tahlilning maqsadi nima?
7. Badiiy tahlilning ijtimoiy-estetik ahamiyati haqida fikringiz qanday?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бобылев Б. Г. Теоретические основы филологического анализа художественного текста в национальном педвузе. Дисс. докт. пед. наук. -М.: 1991.
2. Бушмин А.С. Наука о литературе. –Москва. 1980.
3. Долимов ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967.
4. Выготский Л. С. Психология искусства. -М.: «Педагогика», 1987
5. Лихачев Д.С. О точности литературоведения // Литературные направления и стили. –Москва. 1976.
6. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Университет», 1994.
7. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. -Т.: «Ўқитувчи», 1996.
8. Зуннунов А. ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Ўқитувчи», 1992.
9. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усууларда ташкил этиш. –Т.: “Tamaddun”, 2010.
10. Тараносова Г. Н. Анализ художественного текста в системе подготовки учителя русского языка и литературы в национальной школе. Дисс. докт. пед. наук. —М.: 1991. -С. 15.
11. Ховардсхолм Э. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами». -М.: «Прогресс». 1986. -С.
12. Қозоқбай Йўлдош, Мұхайдіә Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. –Т.: “Камалак”, 2016.
13. Ҳусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. –Т.: “Muhabbir”, 2013.

3-MAVZU:

**TURLI JANRLARDAGI BADIY ASARLARNI
FILOLOGIK TAHLIL QILISH ORQALI NUTQIY
KOMPETENTLIKNI O‘STIRISH TEXNOLOGIYASI**

REJA:

- 1. Badiy asarlarni filologik tahlil qilishning maqsad va vazifalari*
- 2. Turli janrlardagi badiy asarlarni filologik tahlil qilishning ijtimoiy va ilmiy ahamiyati*
- 3. Badiy asarlarni filologik tahlili tushunchasining mohiyati*
- 4. Badiy asarlarni filologik tahlilining shakliga ko‘ra turlari*
- 5. Tahlilning maqsadiga ko‘ra turlari va nutqiy kompetentlikni o‘stirishdagi ahamiyati*
- 6. Badiy tahlil tamoyillari*

Tayanch tushunchalar: “Badiy tahlil», *sinchilik*, “badiy matn idroki”, “ma’naviyat va badiy asar”, “adabiyotshunoslik va tahlil”, “tahlil va ma’naviyat”, *tahlil turlari*, *tahlil tamoyillari*, *o‘quv tahlili*, *filologik tahlil*, *asar tahlili* va *hayot*.

Badiy asarlarni filologik tahlil qilishning maqsad va vazifalari. Adabiyot tanuv ilmida hozirga qadar badiy tahlil nima, u qanday maqsadlarni ko‘zda tutgan holda amalga oshirilishi kerak degan savolga qat’iy javob berilgani yo‘q. Garchi, Kunbotish filologlari tomonidan “hermenevtika”, “interpretatsiya” nomlari bilan bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, tushunchaga aniq ta’rif berilgan emas. Har bir olim badiy asar tahlilini o‘zicha

izohlaydi. Hatto, rus olimi A.B. Yesinning to‘g‘ridan to‘g‘ri badiiy asarni tahlil qilishga bag‘ishlab 2000-yilda Moskvaning “Флинта”-“Hayka” qo‘shma bosmasida chop etilgan “Принципы и приемы анализа литературного произведения” (“Adabiy asarni tahlillashning tamoyil va usullari”) asarida ham “badiiy tahlil” tushunchasining o‘ziga ta’rif berilmagan.

Ayni vaqtda, rus adabiyotshunosligida badiiy asar tahlili tushunchasining mohiyatini aniqlash, unga xos xususiyatlarni tayin etish borasida qator urinishlar bo‘lganini qayd etish kerak. Jumladan, metodist olim B. Bobilev “Milliy oliy o‘quv yurtlarida badiiy matnni filologik tahlillashning nazariy asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy tahlilning mohiyatini shunday tushuntiradi: “Badiiy matnning filologik tahlilidan asosiy maqsad muallif obrazini to‘la idrok etib, unga yetishishdir. Ayni shu holat badiiy matnni filologik tahlil qilishinng asosiga qo‘yilishi lozim”. Mazkur qarash ko‘p jihatdan, tahlilga oid xususiyatlarni qamrab olgan. Darhaqiqat, kitobxon yoki tadqiqotchining muallifni idrok etishi, uning qarashlari mohiyatiga yetishishi o‘rganilayotgan adabiy asarni butun serqirraligi bilan anglaganligini bildiradi. Badiiy asarni muallif darajasida idrok etish san’at namunasiga xos juda ko‘p jihatlarni his etish, asar zamiridagi mantiqiy va badiiy ma’noni to‘liq ilg‘ab olish imkonini beradi. Adabiyottanuv ilmi uchun muallif darajasiga yetib, uning holatini ilg‘ab tahlil qilish badiiy asarni tushunishning orzu qilingan oliy bosqichi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, badiiy adabiyot namunalari orasida muallif istagidan tashqari ma’nolarni tashiydigan, uning mo‘ljalidan ko‘ra oshiqcharoq ijtimoiy-estetik “yuk”ni zimmasiga olgan, muallifning o‘zi kutmagan yoki bilmagan holda badiiy kashfiyotlarga aylangan ko‘plab asarlar borligiga adabiyot tarixi tonig‘dir. Chunki biror asardagi muallif tasvirlagan badiiy manzara bilan o‘quvchi-talaba yoxud tahlilchi tomonidan idrok etilgan badiiy manzara hamisha ham bir xil bo‘lavermaydi.

Ba’zan o‘quvchi-talaba muayyan asardan adib mutlaqo ko‘zda tutmagan,

xayoliga keltirmagan, hatto uning qarashlariga zid, ammo sog‘lom mantiq va o‘quvchi-talaba nazarida to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadigan badiiy xulosa chiqarishi ham mumkin. Chunki hayotiy vaziyatning o‘zgarishi, ijtimoiy voqelikda yuzaga kelgan yangicha holatlar ba’zan ijodkorning oddiy bir asaridan kutilmaganda, o‘zgacha bir chuqur ijtimoiy-hayotiy ma’nolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Negaki, haqiqiy badiiy asarning umri uzun, garchi u muayyan zamonda dunyoga kelgan va uning xususiyatlarini aks ettirgan bo‘lsa-da, faqat yaratilgan dam uchungina mansub bo‘la olmaydi. Taniqli rus psixolog L.S. Vigotskiyning: “San’atni ko ‘proq darajada kechikkan munosabat deyish mumkin, negaki, uning dunyoga kelishi bilan ta’sir ko ‘rsata boshlashi o‘rtasida hamisha ozdir-ko ‘pdir zamoniy oraliq bo‘ladi⁴”, – degan fikri ham bunga dalil bo‘ladi.

Mana shunday zamoniy oraliqning borligi o‘quvchi-talaba yoki tahlilchiga adabiy asardan o‘zi yashayotgan zamonga muvofiq idrok etish, asarning badiiy tizimidan davriga mos zavq olabilish va shunga yarasha xulosa chiqarish imkonini beradi. Ba’zan keyin yuz bergan hayotiy hodisalar yoxud ijtimoiy tafakkur tarzidagi o‘zgarish va yangilanishlar oldin yaratilgan badiiy asarning tamomila boshqacha qabul qilinishiga sabab bo‘ladi. Misol uchun, Usmon Nosirning bir paytlar faxriya xarakterida bitilgan she’riy iqrori shoir shaxsga sig‘inish qurboni bo‘lib ketganidan so‘ng mutlaqo o‘zgacha ma’no kasb etib, ijodkorni bashoratchi maqomiga ko‘tardi. Ma’lumki:

Ilhomimning vaqt yo‘q, selday keladi,

Jalloddek rahm etmay, dilni tiladi.

Ayondir bir kuni aylaydi xarob...

satrlari bitilgan fursatda shoir o‘zining qatag‘onga yo‘liqib, Sibir o‘rmonlarida xor-u zor holatda abgor holatga tushishini xayoliga ham keltirmagan, albatta. She’rdagi: “Ayondir bir kuni aylaydi xarob...” misrasi shoir taqdiri yoxud jismiga emas, balki uning yuragi (dili)gagina tegishli bo‘lgan.

⁴ Выготский Л. С. Психология искусства. -М.: «Педагогика», 1987. -С. 341.

Usmon Nosir bu satrga ijtimoiy ma’no yuklamagan, o‘z taqdirini bashorat qilishni mutlaqo o‘ylamagan, ammo yuqoridagi misra shoirning qatag‘onga yo‘liqqanidan xabardor o‘quvchi-talaba uchun tamomila bo‘lakcha mazmun tashiydi.

Turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qilishning ijtimoiy va ilmiy ahamiyati. Shoir Mirtemirning “Betobligimda” she’ridagi: “*Majnuntol tagiga o‘tqazing meni, Men uchun yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim*” misralari, aslida, bemor san’atkorning tushkun ruhiy holati ifodasidir. Sho‘ro davridagi zug‘umlarni bilgan zamondoshlarimizning dunyoqarashi va didi bu she’riy qatorlarniadolatsiz zamondan norozi isyonkor shoirning nolasi tarzida qabul qilishga moyil. She’rdagi o‘sha satrlarni olim va shoir Rahimjon Rahmat qanday izohlaydi: “Shoirning hayot va ijodi – inson psixikasi haqidagi bilimlarimizni boyitadigan manba. Biz shoirning hayoti va ijodi timsolida o‘z ruhiyatimizga oid juda qiziqarli, murakkab sir-asrorlardan voqif bo‘lamiz. Ta’bir joiz bo‘lsa, shoirlar – inson ruhiy kamoloti yo‘lida qurban bo‘lguvchi qavm. Shu ma’noda aytish mumkinki, Mirtemir 30-yillarda olgan nafasini 60-yillarga kelib tashqariga chiqardi. U deyarli 30 yil davomida nafas olmay yashadi: ijodiy erki bo‘g‘ilib, qattiq holdan toygan shoir 60-yillar qirg‘og‘iga arang yetib kelib: “Majnuntol tagiga o‘tqazing meni, Men uchun yig‘lasin...”, – deya oldi xolos⁵”.

Badiiy ijod tarixida yuqoridagilardan ham ta’sirliroq misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu holat ko‘rsatadiki, adabiy asarning badiiy tahlili uchun ijodkor obrazini idrok etish, muallifning tajallisiga aylanish yagona asos sifatida qaralishi tahlil mohiyatini to‘lig‘icha ifodalay olmas ekan. Tekshirilayotgan badiiy asardan xulosa chiqarish, uni tadqiq qilish tahlil etuvchining saviyasi, didi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va boshqa bir qator omillarga bog‘liq ekanligi haqiqatdir.

Rauf Parfi va unga izdosh bo‘lgan ijodkorlarning asarlari turli o‘zbek

⁵ Раҳимжон Раҳмат. Дала гуллари (Адабий мақолалар, кузатишлар ва шеърлар). -Т.: 2006. 35-36-бетлар.

sinchilari tomonidan mutlaqo bir-biriga zid tarzda tahlil etib kelinganligi, ularning har biri shoirning badiiy niyati, san’atkorlik mahoratini o‘zicha anglaganligi ham shundan dalolatdir.

Olimlar orasida badiiy tahlilni asar matnidagi turli estetik unsurlarni qidirib topish va ularning o‘zaro mutanosibligini aniqlashga qaratilgan faoliyat deb qaraydigan mutaxassislar ham bor. Chunonchi, rossiyalik olima G. N. Taranosova nazarida: “...tahlil adabiy asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va jo‘n tushunish o‘rniga uni fikran ma’noli qism va unsurlarga bo‘lib qabul etishni ko‘zda tutadigan ilmiy faoliyatdir⁶”. Bu xilda fikrlaydigan mutaxassislarning qarashlarida ham anchagina asosli o‘rinlar mavjud. Darhaqiqat, badiiy tahlilgina adabiy asarni jo‘n, to‘pori qabul etishdan, uni hayot hodisasi bilan aralashtirib yuborishdan, “Qahramonlarning keyingi taqdiri nima bo‘ladi, falonchi pistonchiga uylandimi?”, “Falon asarlarning qahramonlarn hozir nima qilishmoqda?” singari asarning badiiy o‘ziga xosligini, estetik hodisa ekanini yo‘qqa chiqaruvchi qarashlardan qutqaradi. Lekin masalaning boshqa tomoni ham bor. Ma’lumki, har qanday asl badiiy asar yaxlit poetik butunlik hisoblanadi va bu butunlikka sun’iy ravishda daxl qilish uning jozibasiyu sehrini yo‘qqa chiqarishi mumkin. G. Taranosova ham o‘z ishida badiiy asarga yaxlit hodisa sifatida yondashish badiiy tahlilining birinchi tamoyili ekanini ta’kidlaydi. Lekin olima adabiy tahlil mohiyatini tushuntirishda badiiy asarni “qismlar” va “unsurlar”ga ajratib o‘rganishni asosiy tadbir hisoblaydiki, bu hol amalda uning oldingi qarashlariga zid keladi. Bundan tashqari, asarni ma’noli qismlarga shunchaki ajratish uning badiiyligini ta’milagan sirtqi jihatlarnigina namoyon etib, mohiyatini ochmasligi xavfi ham bor. Shuningdek, biror adabiy asarni fikran ma’noli qismlarga bo‘lib idrok etish hech kim uchun asosiy maqsad bo‘lishi mumkin emas. Tahlildan maqsad o‘rganilayotgan asarning mohiyati va estetik qimmati nimadan iborat ekanini aniqlash bo‘lishi mumkin.

⁶ Тараносова Г. Н. Анализ художественного текста в системе подготовки учителя русского языка и литературы в национальной школе. Дисс. докт. пед. наук. —М.: 1991. -С. 15.

Ma’noli qism va unsurlar ana shu mohiyat va qimmatga qanchalik xizmat qilgani bilangina ahamiyatlidir.

Badiiy asarlarni filologik tahlili tushunchasining mohiyati.

O‘zbekistonlik olimlar: J. Azizov va G. Usovalarning qalamiga mansub “Adabiy tahlil nazariyasi va amaliyoti” risolasida: “...tahlil adabiy asarning badiiy mantig‘iga singishish maqsad qilib qo‘yilgan ilmiy izohdir”⁷ tarzida ta’rif beriladi. Badiiy tahlilning asl mantig‘ini aks ettirishi jihatidan J. Azizov hamda G. Usovalarning qarashlari haqiqatga juda yaqin. Chindanda, “muallif obraziga yetishish” ham, “adabiy asarni fikran qism va unsurlarga ajratish” ham aslida badiiy mantiqni kashf etish, uni anglash yo‘lidagi bosqichlardir. Biroq, yurtdosh olimlar juftligiga mansub mazkur xulosada ham, bizning nazarimizda, kichik bir yoqlamalik borday. Chunonchi, ularning ta’rifida badiiy mantiq hisobga olingani holda hayotiy mantiqni anglash zarurligi ko‘zda tutilmaydi. To‘g‘ri, badiiy adabiyot uchun estetik mantiq birlamchi ahamiyat kasb etadi, ammo bu holat adabiy asarlardan kelib chiqadigan hayotiy mantiqning muhimligini aslo inkor etmaydi. Shuning uchun ham badiiy tahlil tushunchasini xarakterlashda badiiy va hayotiy mantiq tushunchalari yonma-yon qo‘ylisa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqilsa, badiiy asar tahlili tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin bo‘ladi: *Adabiy asarning yozilgan hamda o‘rganilayotgan vaqtagini badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasini anglashga yo‘naltirilgan ilmiy faoliyatga badiiy tahlil deyiladi*. Adabiy tahlilga ana shu tariqa ta’rif berilganda, hodisaga xos deyarli barcha asosiy xususiyatlar qamrab olinadi deyish mumkin. “Tahlil” atamasi arabcha “halala” o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, “eritib yuborish”, “murakkab butunni soddarroq qismlarga ajratish” ma’nolarini anglatadi.

Ba’zi mutaxassislar “tahlil” so‘zi zamiriga “halollash” ma’nosi ham yuklangan deb hisoblashadi. Ya’ni tahlil deyilganda, badiiy matnning ma’nosi

⁷ Азизов Д., Усова Г. Теория и практика литературоведческого анализа. -Т.: «РУМЦ». 1992. -С. 52.

va jozibasining qayerdaligi halol ko‘rsatishga, o‘quvchi-talaba uchun murakkab bo‘lgan badiiy matnni ilmiy mantiq kuchi bilan eritib, uning shuuriga joylashga qaratilgan faoliyat ko‘zda tutiladi. San’at asaridan kelib chiqadigan hayotiy ma’noni topish, undagi o‘ziga xos betakror estetik unsurlarni kashf etish, o‘rganilayotgan asarning shu siradagi boshqa bitiklardan farqini aniqlash, milliy yoki umuminsoniy badiiy tafakkurni rivojlantirishga qo‘sghan hissasini ko‘rsatish g‘oyat muhim. Ayni vaqtida, badiiy zavq manbai nimada ekanini, kitobxonni muayyan asardan ta’sirlanishga olib kelgan badiiy omillar, ko‘rkam so‘zning mantiqiy tushunchalar doirasiga sig‘maydigan jozibasi qayerdan kelib chiqayotganini aniqlash ham o‘ta ahamiyatlidir.

Badiiy asarlarni filologik tahlilning shakliga ko‘ra turlari. Badiiy tahlil shakliga ko‘ra: *a) og‘zaki; b) yozma* singari ikki turga bo‘linadi. Badiiy asar og‘zaki shaklda ham tahlil qilinadi. Zero, badiiy matn to‘g‘risida ko‘proq og‘zaki yo‘sinda fikr yuritiladi. Ayni vaqtida og‘zaki tahlilga ham yozma ravishda tayyorgarlik ko‘rilsa, tahlil kechimi samaraliroq bo‘ladi.

Kitobxonlik va adabiyottanuvchilik amaliyotida badiiy tahlilning yozma shakli keng yoyilgan va ustuvor maqomga ega. Badiiy asarning ilmiy tahlili deyilganda, asosan yozma tahlil ko‘zda tutiladi. Chunki og‘zaki tahlil o‘tkinchi xususiyatga ega, unga qaytib, kerak bo‘lganda foydalanib bo‘lmaydi. Tahlilning yozma turi faqat yozilgan vaqtning o‘zi uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmay, keyinchalik, katta zamoniy oraliqlardan so‘ng ham odamlarga ta’sir ko‘rsatishi, inson badiiy tafakkurini shakllantira olishi, botalabardan urpoqlarga meros bo‘lib o‘tishi bilan xarakterlanadi.

Tahlilning maqsadiga ko‘ra turlari va nutqiy kompetentlikni o‘stirishdagi ahamiyati. Badiiy asar tahlilini amalga oshirilayotgan tahlilning maqsadiga ko‘ra: *a) ilmiy (filologik); b) o‘quv (didaktik)* singari ikki turga bo‘lish mumkin.

Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asardagi tasvirning yozilgan hamda o‘rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga

xosligini anglashga yo‘naltirilgan intellektual-hissiy faoliyatdir. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilg-an xulosalarning adabiyottanuvchilik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo‘lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o‘rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o‘rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri darajasi ko‘rsatilishi ko‘zda tutilishi kerak.

Filologik tahlil ommaboplidan yuqoriroq turib, har qanday adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qaralishini taqozo qiladi. Ilmiy tahlildagi asosiy narsa adabiy asarning badiiyligi, ta’sirchanligi, jozibasi va sehrini ta’minlagan jihatlarni ko‘rsata bilishdir. Shu ma’noda, filologik tahlil ilmiy-estetik faoliyatdir. U, asosan, bir kishi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy tahlil bilan shug‘ullanayotgan mutaxassis vaqt jihatidan ham, imkoniyat jihatidan ham deyarli barcha cheklovlardan xoli bo‘ladi. Ilmiy tahlilni amalga oshirayotgan kishi faqat o‘zi belgilab olgan bosh maqsad bo‘lmish badiiy matn mantig‘i va jozibasini ochish sari intiladi.

O‘quv tahlili (didaktik) badiiy asardagi tasvirning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchi va talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. O‘quv tahlili mobaynida tahlil kechimini boshqarayotgan professor-o‘qituvchi ham, shu kechimning ijrochi va qatnashchilari bo‘lmish o‘quvchi-talabalar ham asarni tanlash imkoniga ega emaslar. Shuningdek, tahlil etiladigan asar belgilab qo‘yilgan muayyan vaqt davomidagina o‘rganilishi, bu jarayonda sinfdagi o‘quvchi-talabalarining yosh va intellektual darajasi hisobga olinishi lozim bo‘ladi. Shu jihatdan didaktik tahlil filologik tahlilga nisbatan bir qadar cheklov larga ega, binobarin, murakkabroqdir.

Adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida professor-o‘qituvchi va o‘quvchi-talaba faoliyati quyidagi uch yo‘nalishda uyushtirilishi mumkin:

- a) muallifga yoki matnga ergashib tahlil qilish;

- b) asardagi obrazlarga tayanib tahlil qilish (badiiy timsol asosidagi tahlil);
- v) muammoli tarzda tahlil qilish.

Birinchi yo‘nalishda adabiyot professor-o‘qituvchisi badiiy matnning faqat mohiyatigagina emas, balki uning qurilish tartibiga ham suyanadi va matn mantig‘ini, uning ichki tartibini aslo o‘zgartirmagan holda asar zimnidagi ma’noni, badiiy jozibani o‘quvchi-talabalar bilan birgalikda kashf eta boradi. Buni **tekstual tahlil** usuli deyish ham mumkin va bunday tahlil kechimida ko‘proq professor-o‘qituvchi faollik ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish, ya’ni obrazlarga tayanib tahlil qilishda professor-o‘qituvchining e’tibori asardagi personajlarga qaratiladi va asarning badiiy ma’nosi obrazlar ruhiyatini anglab borish asnosida o‘zlashtiriladi. Adibning san’atkorlik mahorati ham badiiy obrazlarning qanchalik jonli va ta’sirchan ishlanganligini tahlil qilish asnosida oolib boriladi. Bu yo‘nalishni boshqacha shaklda **timsolli tahlil yo‘li** deyish mumkin va bu yo‘nalishda tahlil kechimida o‘quvchi-talabalarning ancha faol ishtirok etishlariga imkon beriladi.

Uchinchi yo‘nalishda esa tahlil asosan o‘quvchi-talabalar tomonidan olib borilishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi talabalari oldiga badiiy-hayotiy muammo qo‘yadi va ularga bu muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib, ularni bu kechimda foydalanish mumkin va lozim bo‘lgan qo‘shimcha adabiyotlar bilan ta’minlaydi. Asar tahlili jarayonida o‘quvchi-talabalar faqat bilgan tushunchalaridangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirib olishga ham majbur bo‘lishadi. Negaki, o‘quvchi-talabalar jamoa bo‘lib ishlaydilar: o‘zaro fikr almashadilar, bahslashadilar. Tabiiyki, jamoa bo‘lib ishlash kechimida o‘quvchi-talabalarning ma’naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Muammoli tahlil faqat jamoaviy shaklda emas, balki individual yo‘sinda amalga oshirilishi ham mumkin. Biror asar yuzasidan qo‘yilgan hayotiy-estetik muammoni yechish uyga vazifa qilib berilganda, individual muammoli o‘quv tahlili yuzaga keladi.

Alohida ta’kidlash kerakki, tahlilning aytilgan usullari bir-birini inkor

qiluvchi alohida yo‘nalishlar tarzida tushunilmasligi kerak. Adabiy ta’lim amaliyotida o‘quv tahlilining har uch usuli ko‘pincha aralash, qorishiq, holda qo‘llaniladi. Tekstual tahlilni obrazlarga tayanmay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Muammoli tahlilni ham badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Har qanday muammo matndan kelib chiqishi, har qanday mustaqil fikr ham matnning sehru jozibasini ochishga xizmat qilishi joiz. Tekstual tahlilda matnning maromini buzmaslik, muallif yurgan yo‘lga, u o‘rnatgan badiiy tartibga rioya qilish ustuvor maqomda bo‘ladi, lekin tahlilning qolgan ikki turida ham badiiy matn asosiy o‘rin tutadi. Shu ma’noda, har qanday tahlil mohiyat e’tibori bilan tekstual tahlildir.

Tekstual tahlil ko‘proq yoshroq o‘quvchi-talabalari bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi. Ko‘pincha, lirik yoki kichikroq hajmli nasriy asarlarni didaktik tahlil etishda bu usul juda qo‘l keladi. Ta’kidlash joizki, asar yuzasidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat faqat matnga tayanishi, matndan kelib chiqishi, matnning jozibasini ochishga xizmat qilishi lozim. Shuning uchun ham har qanday usulda didaktik tahlilini amalga oshirishdan oldin, albatta, o‘quvchi-talabalar badiiy matn bilan yaxshi tanish bo‘lishlari shart. Aks holda, tahlildan kuzatilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Katta hajmli epik asarlar ko‘proq yuqori kurslarda o‘rganiladi. Ularni o‘rgatishda timsolli tahlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki o‘rganiladigan asar hajman katta, ajratilgan vaqt esa qisqa bo‘lgani uchun ularni tekstual tahlil qilish imkonи yo‘q. Bunday vaqtarda asosiy e’tibor o‘rganilayotgan asardagi obrazlarga qaratiladi. Muayyan asardagi timsollarning ruhiyati, o‘y-kechinmalari, xatti-harakatlari, sa’jiyalari tasviri hayotiylik va badiiylik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, shu yo‘sinda muallifning badiiy mahorati va asarning estetik qimmati namoyon etiladi.

O‘quv tahlilida o‘quvchi-talabalar timsollarni jonli odamlar, o‘z taqdiriga, o‘ziga xos tabiatga ega tirik kishilar tarzida qabul qilishlariga erishish kerak. Shundagina, bu timsollar tuygan tuyg‘ular o‘quvchi-talabalarga ham yuqadi,

ularga ta’sir qiladi. Demak, tarbiyalaydi. Shuningdek, biror asarning o‘quv tahlili mobaynida badiiy timsollarning ijobiylari salbiy kabi qarama-qarshi guruhlarga ajratilishiga yo‘l qo‘ymaslik, har bir badiiy timsolning qarama-qarshi tabiatli kishi nuqtai nazaridan qanday baholanishi mumkinligiga e’tibor qaratilishi lozim. Atrofimizdagi odamlarni jo‘ngina yaxshi va yomonga ajratish mumkin bo‘limganidek, badiiy timsollarni ham ijobiylari salbiyga ajratib tashlash to‘g‘ri emasligini o‘quvchi-talabalar ongiga quyi sinflardanoq singdirib borish zarur.

Olam cheksiz va o‘ta murakkab bo‘lgani kabi, odam ham g‘oyat murakkab va tabiatining qirralari adadsiz tovlanishlarga ega bo‘lgan mavjudotdir. Shuning uchun ham murakkab insonning timsolini qandaydir tavsifiy qolipga tushirib qo‘yish uning qiyofasini nursizlantiradi. Hayotdagi har bir alohida odam to‘liq va bir xil yechimi hech qachon topilmaydigan muammodir. Yetuk badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, jilvalari, soyalari va tovlanishlari bilan tasvir etish orqali o‘quvchi-talabani o‘zgani his etishga, begona kishining dardini anglashga odatlantiradi. Timsoliy tahlil natijasida har bir o‘quvchi-talabada uning tabiatini yo‘nalishi va professor-o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan pedagogik vazifaning xarakteriga qarab, muayyan axloqiy-ma’naviy sifatlar hosil qilinadi. Qandaydir shaxslik fazilatlari shakllantiriladi. Eng muhimi, o‘quvchi-talabalarda oldin boshqa odamlar, so‘ng o‘z xatti-harakatlariga akseologik yondashuv tarzi qaror topadi.

Milliy metodika ilmida adabiy asarni muammoli tahlil qilish yo‘llari juda kam o‘rganilgan bo‘lib, adabiy ta’lim amaliyotida ham u yetarlicha qo‘llanilmaydi. Bu usulning nazariy jihatlari metodist olimlar tomonidan hali to‘la-to‘kis ishlab chiqilmaganligi uchun ham adabiyot professor-o‘qituvchilarining ko‘pchiligi uni qay yo‘sinda tadbiq etishni bilishmaydi. Ayrim novator, o‘z ustida ishlaydigan va izlanadigan professor-o‘qituvchilargina muammoli usul bilan badiiy tahlil qilishni tashkil etadilar. Badiiy asar muammoli tahlil etilganda, o‘quvchi-talabalarning fikri cheklash

bilmaydi, xayoloti erkin parvoz qiladi, oldilarida turgan badiiy va hayotiy muammoni o‘z tushuncha va hayotiy tajribasidan kelib chiqib hal etishga urinadi.

O‘quvchilar puxta muammoli tahlil qila olishlari uchun badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to‘liq hazm qilgan bo‘lishlari ham kerak. Chunki to‘liq o‘zlashtirilgan fikrgina mag‘izli fikr uyg‘otadi, singdirilgan hissiyotgina o‘zgada ham tuyg‘u qo‘zg‘ata biladi.

Muammoli usul bilan tahlil etishda o‘quvchi-talabalarni shunchaki muammo yuzasidan bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun intellektual kuchi tekshirilayotgan badiiy matnning mag‘zini chaqishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Muammoli tahlil kutilgan samarani berishi uchun matnga sinfdagi o‘quvchi-talabalar hayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chiqib erkin yondasha olishlari zarur.

Maktabda Sofoklning “Shoh Edip” asari muammoli yo‘l bilan tahlil etiladigan bo‘lsa, professor-o‘qituvchi talabalar oldiga: “Edip aybdormi yoki gunohkor?” tarzida savol qo‘yadi va o‘quvchi-talabalardan o‘z fikrlarini badiiy matnga tayangan holda asoslashlarini talab etadi. Gunoh, gunohkorlik, ayb, aybdorlik, qismat, unga ishonish, kibr, inson ma’naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida o‘quvchi-talabalar fofija matni bilan ishlaydilar va Edip shaxsining ulkan fojiasini yaqindan, bevosita, his etadilar. O‘zlarining hayotiy va ma’naviy-axloqiy tajribalaridan kelib chiqib, Edip va atrofidagilarning xatti-harakatlariga baho beradilar. Bu hol, ma’lum darajada, o‘quvchi-talabalarni o‘z xatti-harakat va tutumlarini baholashga ham o‘rgatadi.

Biror faoliyatning yuzaga kelishi uchun bajarilishi shart bo‘lgan talablar yig‘indisi tamoyil deb ataladi. Badiiy asarning hayotiy, badiiy mantig‘i hamda estetik jozibasini ochish muayyan tamoyillarga suyangan holda amalga oshiriladi. Badiiy asarning butun sehru jozibasi to‘liq namoyon bo‘lishi, o‘rganilayotgan asarning mazmunigina emas, balki unda aks ettirilgan inson ruhiyati manzaralari ham to‘la anglashilishi uchun badiiy tahlil amalga

oshirilganda, muayyan ilmiy tamoyillarga tayanilishi kerak. Shuni yodda tutish zarurki, badiiy tahlilda fanniy tushunchalar asosida ish ko‘rilib, ilmiy xulosalar chiqarilsada, undan boshqa ilmlarga o‘xshab xulosaning bir xilligini kutish mumkin ham, kerak ham emas.

Badiiy asarni mantiq va nafosat talablariga muvofiq tarzda ilmiy tahlil etish uchun rioya qilinishi shart bo‘lgan muayyan talablar tizimi mavjudki, ularga bo‘ysunmaslik mumkin emas. Shu sababdan ham badiiy tahlil kechimida amal qilinishi zarur bo‘lgan bir qator tamoyillar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tahlil tamoyillari. Badiiy tahlilga qo‘yiladigan birinchi talab **tahlilning notugalligi tamoyilidir.** San’at hodisasiga xos xususiyatlarni mantiq kategoriyalari va tafakkur tushunchalari qolipiga to‘liq, tugal beshikast va hamma tomonidan bir xilda qabul etiladigan yo‘sinda ag‘darish mumkin amas. Mantiqiy kategoriyalarga to‘liq ag‘darish, barcha jihatlarini beistisno tugal tushuntirish mumkin bo‘lgan hodisa san’atga tegishli emas. San’at fenomeni mantiqiy tushunchalar torlik qilib qolgan joyda yuzaga keladi. Binobarin, eng zo‘r tadqiqotchi ham asl ijod namunasini to‘liq, o‘zgacha talqinga o‘rin qoldirmaydigan tarzda tahlil qilolmaydi.

Aytish kerakki, kommunistik mafkura badiiy asarlarning mantiqiy qoliplarga to‘liq tushadigan, to‘lig‘icha izohlash imkoniyati bo‘ladigan tarzda yaratilishini talab etardi. Mazkur talabga bo‘ysungan, o‘z talantini g‘ayri estetik ko‘rsatmaga moslashtirmoqchi bo‘lgan ijodkorlar yaratgan bitiklar shuning uchun ham asl badiiyat namunasi bo‘la olmaganlar. Cho‘lponning “Go‘zal”, “Binafsha”, “Sirlar”, Rauf Parfining “Yoshlik zangor fasl...”, “Xato qildim”, “Yomg‘ir tinmadi...”, “Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal”, Abdulla Oripovning “O‘ylarim”, “Genetika”, “Dengizga”, “Bahor”, “Saraton”, “Onajon” va hokazo asarlarini oxirigacha, hammani qoniqtiradigan, boshqa so‘z aytishga imkon qoldirmaydigan tarzda izohlab, tushuntirib berish mumkin emas. Ularni mantiq ilmining tor va hissiz qoliplariga to‘liq tushirish imkonsizdir. Badiiy adabiyot

aql bilan izohlash mushkul bo‘lgan holatlarning ifodasi o‘laroq yaratiladi.

Chinakam badiiy matn o‘z umri bilan yashaydi. U matnni idrok etgan avlodning saviyasi, didi, intellektual darajasiga muvofiq ravishda davrlarda turlicha qabul etilishi mumkin. Hatto, ba’zan bir asarning o‘zi bitta odamning o‘zi tomonidan ham kayfiyatining qandayligiga qarab har xil idrok etilishi mumkinki, bu asl badiiy matnning xususiyatidir. Turli davrlarda idrok etilgan ayni matn turlicha talqinini topaveradi va bu tabiiy holdir. Demak, badiiy matnning tahlili hech qachon to‘liq tugallanmaydi.

Badiiy asar tahlilida amal qilinadigan ikkinchi tamoyil har qanday ilmiy tahlilning faqat shaxsiy fikr ekanligi va u hech qachon mutlaq haqiqatlik da’vosini qilishi mumkin emasligidir. Tahlilchi qanchalik bilimdon, talantli, tajribali va mohir bo‘lishiga qaramay, uning fikrlari hamisha ham faqat shaxsiy mulohaza, subyektiv qarash maqomida bo‘ladi. Ilmiy haqiqatlar hammaga birday tegishli bo‘lsa, estetik haqiqatlar haqida bunday deyish mumkin emas. Har bir o‘quvchi-talaba, kitobxon, mutaxassis har qanday asarni o‘zicha o‘qiydi, o‘zicha tushunadi, o‘zicha ta’sirlanadi, o‘zicha his etadi. Demakki, o‘zicha xulosa chiqaradi. Bir asarni o‘qigan ko‘pchilik kishilar o‘rtasida o‘zaro o‘xshash, bir-biriga to‘g‘ri keluvchi fikrlar bo‘lishi mumkin bo‘lgani singari, bir-birini mutlaqo inkor etadigan qarashlar bo‘lishi tabiiy hol ekanini ham hisobga olish kerak.

Bu tamoyil, hatto, hazrat Navoiyning Atoyi g‘azalining “*Ul sanamkim suv yaqosida paritek o‘lturur, G‘oyati nozuklugudin suv birla yutsa bo‘lur*” matla’si borasidagi tanqidiy to‘xtamiga ham taalluqlidir. Shunday bo‘lgani uchun ham boshqa baytlar emas, aynan “...qofiyasida aybg‘inasi bor” bo‘lgan shu bayt to hozirga qadar nafaqat Atoyi, balki mutoz badiiyatning yuksak timsoli bo‘lib kelmoqda.

Kommunistik mafkura har qanday asarning hamma tomonidan birday qabul etilishini talab qilardi. Aslida, bu - jamiyat a’zolarini estetik yo‘l bilan bir qolipga solishga urinish edi. Bu hol, tabiiy ravishda, badiiy adabiyotning

jo‘nlashishiga olib kelardi. XX asrning 40- yillari adog‘ida kommunistik partiyaning oliy organi bo‘lmish Siyosiy byuro tomonidan “Zvezda”, “Leningrad” jurnallari haqidagi, M. Zoshchenko, A. Axmatovalarning ijodi to‘g‘risidagi qatag‘onga chorlovchi qarorlarning yuzaga kelishi sababi ham bu jurnallarda tilga olingan ijodkorlarnig ommani bir xil o‘ylashga, aniqrog‘i o‘ylamaslikka o‘rgatish talab etiladigan adabiy siyosatga ma’qul kelmaydigan asarlari bosganida edi. Chunki bu asarlarda talantli ijodkorlar har xil odamlarning har xil holatlarini aks ettirib, har xil qabul qilinishi shart bo‘lgan obrazlarni tasvirlashgan edilar.

Asarning bir mutaxassis tomonidan qilingan tahlili nechog‘lik chuqur bo‘lsa-da, o‘zga bir shaxs bu xildagi talqinni mutlaqo qabul etmasligi va badiiy hodisaga o‘z pozitsiyasidan kelib chiqib baho berishi mumkin. Badiiy asarning o‘ta individual faoliyat natijasi ekani uning qabul etilishi ham g‘oyat individual kechim bo‘lishini taqozo etadi. Cho‘lpon she’rlari o‘tgan asr boshlarida Ayn, Usmon kabi tanqidchilarda o‘zgacha, Qodiriy bilan Oybekda esa tamomila bo‘lakcha taassurot qoldirganligi va bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi xulosalarga kelishiga sabab bo‘lganining boisi ham shunda.

Adabiy asarning ilmiy tahlili oldiga kuyiladigan talablardan yana biri san’at asariga muayyan g‘oyani ifodalash vositasi deb qarash mumkin emasligi va uning estetik hodisa ekanini hisobga olish keraklidir. O‘zbek adabiyotshunosligi va filologik ta’limida hanuzgacha ham san’at asarlariga ijtimoiy yondashish ustuvor mavqedan turibdi va badiiy asarga, albatta, qandaydir g‘oyani o‘tkazish yo‘li deb qarashdan qutulish birmuncha qiyin kechmoqda. Bu yondashuv badiiy tahlil amaliyotida ancha uzoq davom etadigan holatga o‘xshaydi.

Badiiy asarlar tahlilida tayanilishi zarur talablardan yana biri san’at hodisalariga borliqniig nusxasi tarzida munosabatda bo‘lish mumkin emaslidir. San’at asarini voqelik bilan, real borliq bilan solishtirib baholash, undan hayotning badiiy nusxasi bo‘lishni talab qilishning ildizi «mimesis»

nazariyasiga borib taqaladi. San’at hodisasini ijodkorning tabiat yoki ijtimoiy hayotga taqlididan iborat deb tushunish tadqiqotchidan har qanday asarga uning voqelikka mos kelishi yoxud kelmasligi nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi. Buyuk mutafakkir, mimesis nazariyasining asoschisi Aristotel yashagan zamonlardayoq odamlarga san’at hodisalarining hayotga hamisha ham muvofiq kelavermasligi ma’lum bo‘lgan va buni Sofokl va Evripid tragediyalarini qiyoslash munosabati bilan allomaning o‘zi ham ta’kidlagan edi.

Badiiy adabiyot insonning ichki tuyg‘ulari, nozik sezimlari, so‘zga bo‘y bermaydigan ruhiy holatlarini ifodalash vositasi ekanligi ko‘zda tutilgandagina biror asar tahlili sog‘lom mantiqka muvofiq amalgaga oshirilishi mumkin. Negaki, badiiy mantiq hamisha ham hayot mantig‘iga muvofiq kelavermaydi. Ba’zan badiiy tasvir hayot hodisasiga qaraganda teranroq, ahamiyatliroq, salmoqliroq bo‘lishi ham mumkin. Chunki badiiy asar ko‘pincha tartibsiz, xaotik ko‘rinishdagi hayot voqeligidan yaxlit va ichki intizomga bo‘ysunuvchi, qat’iy badiiy mantiqqa binoan harakatlanuvchi estetik voqelik yaratish natijasida vujudga keladi. Bu haqda norvegiyalik modernchi adib va adabiyotshunos E. Xovardsholm: “*Poeziya real borliqqa qilingan taqlid ham yoki uning qandaydir talqini ham emas. Poeziyaning o‘zi o‘z holicha ortiq darajadagi reallikdir*”⁸. Shuning uchun ham badiiy asarga yondashilganda, uning hayot manzarasini qanchalik real ko‘rsatganligini mezon qilib ish ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Ayniqsa, lirk yoxud satirik asarlar talqinida badiiy matnga hayot haqiqati ifodasi tarzidagi yondashuv ularning jozibasini ham, ta’sir kuchini ham anglamaslikka olib kelishi mumkin.

Badiiy tahlilning eng muhim tamoyillaridan yana biri yaxlitlikdir. Yaxlitlik talabi, avalo, o‘rganiladigan badiiy asarga istalgancha tarkibiy qismlarga ajratib tashlash mumkin bo‘limgan estetik butunlik tarzida yondashishni taqozo qiladi. Darhaqiqat, asl san’at yaxlitlikdan iboratdir. San’at

⁸ Ховардсхолм Э. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами». -М.: «Прогресс». 1986. -С. 459.

asarining ichki butunligiga daxl qilinmagandagina uning mohiyatini anglash mumkin. Buning ustiga, tahlil yordamida barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirish ham ko‘zda tutilar ekan, shaxs faqatgina yaxlit holda shakllantirilishi hisobga olinishi zarur. Chunki inson tanasining muchalari birdaniga paydo bo‘ladi. Unda keyin yuzaga kelgan soqol, so‘gal, xol kabi unsurlar vujud uchun deyarli keraksiz bo‘ladi. Shuningdek, odamning ma’naviyati ham yaxlit holda shakllantiriladi. Unga, avval, aqliy, so‘ng axloqiy, so‘ngra jismoniy, undan keyin mehnat, undan so‘ng vatanga muhabbat, ulardan keyin insonparvarlik va hk. tarzidagi sifatlarni singdirib bo‘lmaydi. Inson o‘z umrining muvofiq bosqichlariga mos keladigan turli omillar ta’sirida bir qator ma’naviy fazilatlar majmuiga ega yaxlit bir shaxs sifatida shakllanadi yoxud hech qachon to‘la ma’nodagi shaxsga aylanolmaganicha qolaveradi. Ezgu insoniy fazilatlarning biri ikkinchisini, albatta, taqozo qiladi, biri boshqasidan kelib chiqadi, biri o‘zgasini keltirib chiqaradi.

Agar badiiy asarga mo‘jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmaydigan bo‘lsa, uning siru jozibasi bir zumda yo‘qqa chiqadi va adabiy asar o‘ziga xos ta’sir qudratidan tamomila mahrum bo‘ladi. Tahlil qilinayotgan asarning barcha jihatiga birvarakayiga sinchkovlik bilan yondasha bilish va uning qismlaridagi jozibani kashf etishga e’tibor qaratish tahlilning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan omildir.

Badiiy tahlilda amal qilinishi zarur bo‘lgan tamoyillardan yana biri **tizimlilikdir**. Tizimlilik prinsipi yaxlitlik tamoyilining mantiqiy davomi bo‘lib, tahlil kechimida badiiy asarni tashkil etgan unsurlarning muayyan tizimli ko‘rinishga ega bo‘lishi hisobga olinishini talab qiladi. Asl san’at asarida biri ikkinchisiga bog‘liq bo‘lmagan biror badiiy unsur uchramaydi. Demak, har qanday san’at asari muayyan estetik vazifani o‘taydigan tizimdir va u ma’lum miqdordagi ost hamda usttizimlardan iborat bo‘ladi. Har qanday badiiy butunlik nimadandir kichik, binobarin, qandaydir butunning qismi va nimadandir katta, binobarin, qandaydir qismga nisbatan butun hisoblanadi.

Shuni ham aytish kerakki, ko‘chim, portret, o‘xshatish, peyzaj, mutualabag‘a, kichraytirish singari qator tasvir vositalari, turli-tuman badiiy san’atlar bir asar vujudiga tasodifiy ravishda yig‘ilib qolmaydi. Ularning ayni shu asarda, ayni shu tartibda guruhlashuvining ichki mantiqiy-kommunikativ, tasviriy-ifodaviy qonuniyati mavjudki, tahlil mobaynida ayni shu qonuniyat ochilishi kerak. Shuning uchun ham tahlilni uyushtirishga tutingan mutaxassis tizimlilikka amal qilishi joiz.

Tizimlilik tamoyili badiiy asarning har bir unsuriga estetik zaruriyat, sababiy aloqadorlikning namoyon bo‘lishi tarzida qarashni ko‘zda tutadi. «O‘g‘ri» hikoyasidagi amin portreti asar umumiy organizmidan uzilgan holda, shunchaki personajning qanday qiyofali ekanini bildirib ko‘yish uchungina berilmaganligi, balki ayni shu portret tasviri asar yaxlitligi, syujet rivoji tabiyligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanligi tahlilchilar nazaridan qochirilmasligi zarurdir. Zero, bu portret tasvirisiz amin va Qobil bobo munosabati tushunarli bo‘lmash edi.

Badiiy asar tahlilida hamisha suyaniladigan tamoyillardan biri **tarixiylikdir**. Garchi badiiy asarga tarixning illyustratsiyasi yoxud uning shunchaki estetik in’ikosi deb qarash to‘g‘ri bo‘lmasa-da, har qanday adabiy asarning muayyan zamonda, muayyan tarixiy sharoitda, konkret vaqtida yashab o‘tgan odam tomonidan yaratilganligi va unda aks attirilgan voqealargina emas, balki ruhiy holat manzaralarida ham o‘sha tarixiy davrning tamg‘asi bordir. Bundan tashqari har qanday badiiy matn konkret zamon va makonda yashayotgan muayyan odam tomonidan qabul etiladi. Binobarin, tahlilga tortilgan har qanday badiiy asarning yaratilgan davrini va imkonni bo‘lsa, uning yaratilishiga turtki bo‘lgan asosiy sababni bilmay turib, asarni chuqur o‘rganish, teran tahlil etish va haqqoniy xulosaga kelishning imkonni yo‘q. O‘rganilayotgan asarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilmasa, qahramonlar ruhiy holatini ham, ularni faoliyatga undagan sabablarni ham tushunmaslik mumkin.

Zamonaviy o‘zbek adiblarining aksar asarlariga tarixiylik tamoyiliga

tayanmay turib, faqat estetik mezonlar bilan yondashishning o‘zi tahlilchini maqsadga olib kelmasligi mumkin. Chunki agar mumtoz adabiyotning asl namunalari yaralishidanoq sof san’at asari tarzida dunyoga kelgan, san’atkor ajdodlarimiz uchun badiiy shakl ustuvor maqomda turgan bo‘lsa, zamonaviy ijodkorlar uchun o‘zgacha holat xosdir. Olamni estetik idrok etishda turkona o‘ziga xoslikdan, ma’lum darajada chekinib, global tasvir yo‘nalishida ketayotgan o‘zbek adabiyotining bugungi namoyandalari tomonidan yaratilgan deyarli barcha asarlar biror hayotiy turtki tufayli vujudga kelgan va o‘sha tarixiy sharoit hisobga olinmasa, asarni to‘g‘ri tushunish hamda tushuntirish imkonsiz. Chunonchi, G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan”, E. Vohidovning “Nido”, “Ruhlar isyoni”, Rauf Parfining “Abdullajon marsiyasi”, “Cho‘lpon”, “Ona Turkiston”, O. Matjonning “Ko‘rdim, Shukur Burhon”, “Qaysi yil ko‘klamda Jayxun bo‘yida”, “Eng so‘nggi xazina” singari asarlarini tahlillashda tarixiylik tamoyiliga tayanmay turib, samaraga erishib bo‘lmaydi.

Adabiy asarni tahlil qilishning muhim prinsiplaridan biri **estetik asoslarning ustuvorligi** tamoyilidir. Filologik ta’lim amaliyotida badiiy tahlilning maqsadi nimaligi hamisha ham to‘g‘ri belgilab olinavermaganligi uchun estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga ko‘pincha amal qilinmaydi. Badiiy asar inson ruhiyati manzarasi bo‘lgani bois o‘qirmanlarni eng qabariq, eng ta’sirchan tuyg‘ular tasviri bilan yuzma-yuz qiladi. Shu tariqa, kitobxonlar o‘zga odamlarning ruhiyatiga oshno bo‘ladilar. Ko‘pincha muayyan odam o‘z ruhiyatini anglashga qiynalayotgan bir paytda, chin kitobxon o‘zgalarning kechinmalarini his etishga odatlanadi. Natijada, kishining tuyg‘ulari o‘tkirlashadi, fikri teranlashadi, kechinmalar ni noziklashadi. Tahlilda estetik asoslar ustuvor bo‘lsagina, o‘quvchi-talabalarning qalb ko‘zi ochiladi va ular tuyg‘usizlikdan, hissizlikdan qutuladilar. Badiiy asarni o‘rganish asnosida yurakdagи beparvolik illati solgan zanglar, qo‘tirlardan tozalanish inson ma’naviyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Ma’lumki, tekshiriladigan asarning badiiy jozibasi asar sirtginasida

manaman deb turmaydi. Asardagi nafosatni, zariflikni anglash uchun uning badiiy qatlamlarini kashf etish zarur. Buning uchun muayyan adabiy bilimlar majmuidan tashqari estetik farosat va go‘zallikni kerakli joydan qidira bilish malakasi ham shakllangan bo‘lishi kerak. Yashiringan go‘zallikni topish oson emas. Yashirinmagan narsa-hodisada esa, go‘zallik bo‘lmaydi. Ijodkor “shifrlab qo‘ygani uchun” yuzada turmaydigan badiiy ma’noni, estetik jozibani topish adibning estetik idealini, tasvirlash mahoratini payqay olgan mutaxassisgagina nasib etadi. Estetik tahlilga tortilmagan badiiy asar test savollariga o‘xshash noma’lumlikdir. Badiiy tahlil ana shu noma’lum shifrga ega qulfni ochadigan mantiqiy-estetik kalit vazifasini bajaradi. Badiiy tahlilni estetik asoslar ustuvorligida amalga oshirish asardagi nozik sezimlarni ilg‘ashga kalit topish demakdir.

Tahlilda estetik asoslarga yetarli e’tibor bermaslik o‘rganilayotgan asarni faqat mantiqiy sillogizmlar tarzida tushunishga olib keladi. Tahlilga bu xilda yondashish asl san’at asarlarini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Hazrati Navoiyning **“Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o‘t, Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o‘t”** matla’si bilan boshlanadigan g‘azali faqat mantiqiy tushunchalar asosida tahlil qilinsa, bu asardan juda ham chuqur ma’no topilmasligi mumkin. Bu asarga estetik butunlik va yuksak ruhiy holat ifodasi tarzida yondashilgandagina uning chinakam jozibasini his etish mumkin bo‘ladi. Qip-qizil bo‘lib ochilgan cheksiz-chegarasiz lolazor qo‘ynida turgan qalbi go‘zallikka tashna lirik qahramon ma’shuqasiga yetolmay qattiq kuyganidan ichi olovga to‘lib ketgan. Uning nazarida, ufqlarga qadar tutashib ketgan bepoyon qizillik lolazor emas, balki ma’shuqa firog‘idan kuygan g‘amboda oshiqning ohidan dunyoni tutib ketgan olov. Lolazor borib tutashgan ufq tepasidagi qizillik ham shafaq nuri emas, balki oshiqning ohidan chiqqan olov yerni yondirib bo‘lib, osmon yer bilan tutashgan joydan ko‘kka tutashdi va endi bir qirg‘og‘idan osmon ham yonib kelmoqda. Shu xildagi izohgina asarning jozibasini ochishga xizmat qiladi.

Tahlilga estetik tamoyil asos qilib olinganda muallif tomonidan yaratilgan obrazli estetik reallikka kirish, badiiy voqelikning ichki qonuniyatlarinn kashf etish mumkin. Har qanday ijodkor aslida yozganlarini ko‘pchilik tushunishini, his etishini istaydi. Buning uchun adib o‘quvchi-talaba darajasiga tushishi emas, balki o‘qirman ijodkor darajasiga ko‘tarilishi talab qilinadi. Badiiyat bag‘ridagi yashirin go‘zallikni sezmaslik kishining nafaqat nafosat va ma’naviyat nuqtai nazaridan, balki aqliy taraqqiyot jihatidan ham kamolot bosqichida emasligini ko‘rsatadi.

Badiiy tahlilni amalga oширишда **emotsionallik tamoyili** ham katta o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotning o‘zi - boshlicha hissiyotga asoslangan hodisa. Demak, badiiy tahlilda hissiyotni ko‘zda tutish muhim. Tahlilda hissiyot hisobga olinmaydigan bo‘lsa, badiiy asarning estetik o‘ziga xosligi yo‘qqa chiqadi. Tahlil shunday uyushtirilishi kerakki, asar badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasini ochishga qaratilgan har bir tadbir kishining tuyg‘ulari olamiga daxl qilsin, ularda muayyan hissiyotlar uyg‘otsin.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy asarlarni filologik tahlil qilishning maqsad va vazifalari haqida fikr bildiring.
2. Badiiy asarlar tahlil qilishning ijtimoiy va ilmiy ahamiyati va nutqiy kompetentlikni oshirishdagi roli qanday?
3. Badiiy asarlarni filologik tahlili tushunchasining mohiyati haqida o‘z fikringizni bildiring.
4. Badiiy asarlarni filologik tahlil qilishning shakliga ko‘ra turlarini ayting.
5. Tahlilning maqsadiga ko‘ra turlarini sanang va misollar orqali izohlang.
6. Badiiy tahlil tamoyillariga yana qanday tamoyillarni qo‘shgan bo‘lardingiz?
7. Ilmiy (filologik) nima?
8. O‘quv (didaktik) nima?

9. Konstruktivistik pedagogikaning: “Dunyodagi birorta pedagog birorta o‘quvchini o‘qita olmaydi”, - degan xulosalari asoslimi?
10. Turli janrlardagi asarlarni tahlil qilishning o‘xhash va farqli jihatlarini ayting

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ховардсхолм Э. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами». -М.: «Прогресс». 1986. -С. 459.
2. Бушмин А.С. Наука о литературе. –Москва. 1980.
3. Долимов ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967.
4. Лихачев Д.С. О точности литературоведения // Литературные направления и стили. –Москва. 1976. Долимов С., Убайдуллаев X., Ахмедов К., Адабиёт ўқитиши методикаси, -Т.: “Ўқитувчи”, 1967.
5. Зуннунов А. ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси, -Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
6. Йўлдошев К. ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: 1994.
7. Йўлдошев К. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997.
8. Қозоқбай Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. –Т.: “Камалак”, 2016.
9. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.
10. Ҳусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. –Т.: “Муҳаррир”, 2013.
11. Ҳусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Barkamol Fayz-Media”, 2020.
12. Резь З. Я. и др., Методика преподавания литературы. -Москва: 1985.
13. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. –Т.: “Tamaddun”, 2010.



IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT:

TALABALARNI ADABIYOT SABOQLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH YO‘LLARI

REJA:

- 1. Kompetensiya tushunchasi mohiyati**
- 2. Kompetentlilik inson qobiliyatining amaliy isboti**
- 3. Kompetentlilikning tarmoqlari**
- 4. Kompetentlilikning vazifalari**
- 5. Kompetentlilikning tarkibi**

Tayanch tushunchalar: kompetensiya kompetentlilik, kompetentlilikning tarkibi, kompetentlilikning vazifalari, kompetentlilikning tarmoqlari, bilish kompetentliliği, ijtimoiy-fuqarolik kompetentliliği, mehnat kompetentliliği, maishiy-iste'molchilik kompetentliliği, madaniy va dam olish kompetentliliği.

Kompetensiya tushunchasi mohiyati. Insoniyatning o‘zi bilan birga paydo bo‘lgan pedagogika, ayniqla, uning ta’lim tarmog‘i juda uzoq zamonlardan buyon o‘qitish ob’ektlari bo‘lmish talabalarda **bilim shakllantirishga** o‘zining asosiy vazifasi sifatida qarab keldi. Necha minglab yillardan buyon davom etib kelayotgan bunday yondashuv **XX asrning ikkinchi yarmidan** e’tiboran ko‘pchilik yetakchi pedagog-mutaxassislar tomonidan shubha ostiga olindi. Yangi asrning boshlaridan buyon esa, endilikda ta’lim tizimini bilim berishgagina tayangan holda tashkil etish bugun uchun yetarli emasligi, zamonaviy talabalarning tobora globallashib borayotgan raqobatlar kurashiga to‘la dunyoda qiynalmay yashab ketishlari uchun ular kompetentli qilib shakllantirilishi kerakligi kun tartibiga qo‘yildi.

Rivojlangan pedagogik ilm va amaliyotga ega mamlakatlarda bu borada ancha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. *Ta’lim muassasalarida talabalarga tayyor bilim berish o‘rniga ularni turli hayotiy vaziyat uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni mustaqil egallay oladigan shaxslar sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.* Bunda tayyor bilim faqat standart holatlardagina yaroqli bo‘lishi, odam esa deyarli hamisha turli-tuman kutilmagan nostandart sharoitlarda hayot kechirishga mahkum ekanidan kelib chiqib ish ko‘rilmoxda.

Ma’lumki, oldinlari har bir mamlakat yoshlarni faqat o‘z ehtiyojlari uchun tayyorlar edi. Enlikda dunyo kichraydi, mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralar mustahkamlangani sari undan o‘tishni istaydiganlar miqdori ko‘payib bormoqda. Demak, bugungi yoshlar dunyo ayvonida faoliyat ko‘rsatadigan, kuchli raqobatlar kurashi sharoitida mavjud bo‘lgan mehnat bozoridan o‘z o‘rnini topa bilishi zarur. Bundan tashqari, hayot faqat o‘qish yoki ishlashdangina iborat emas, bu hol talaba yoshlarni dunyoning turli burchaklarida qiynalmay, odamga munosib hayot kechirib ketishni uddalaydigan tarzda tayyorlash zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham ta’lim kechimida kompetentlilikka erishish bugungi pedagogikaning dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Bu hol o‘qituvchilar armiyasi va ta’lim muassasalarida kompetensiya va kompetentli shaxs borasida muayyan ilmiy tushunchalar berilishi hamda oldin o‘qituvchilarda, ular orqali talabalarda kompetentlilikni shakllantirishga doir tadbirlarni amalga oshirishni kun tartibiga chiqardi.

Kompetensiya “*layoqat*”, “*erishish*”, “*eplash*” ma’nolaridagi lotincha “*competere*” so‘zidan olingan tushuncha. **Kompetensiya** *muayyan shaxsning hayotda yashab faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va ma’naviy sifatlariga ega ekanligini* anglatadi.

Kompetentlilik inson qobiliyatining amaliy isboti. Kompetentlilik esa “*layoqatli*”, “*eplaydigan*”, “*erishadigan*” ma’nolaridagi lotincha *competens* so‘zidan olingan bo‘lib, mutaxassisning muayyan soha bo‘yicha ish ko‘rishi

uchun kerakli bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va ma’naviy sifatlariga ega ekanligini anglatishdan tashqari, bu faoliyatga zamonaviy shaxs sifatida yondashuvni ham o‘z ichiga oladigan tushunchadir. ***Kompetentlilik shaxsga odamlar bilan yashab keta olish hamda hayotning biror sohasida samarali mehnat qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va ma’naviy sifatlarga egalikni anglatuvchi tushunchadir.***

Kompetentlilik shaxsning muayyan sohada faoliyat ko‘rsata olishdan tashqari, hayotda boshqa odamlar bilan yashab keta bilishini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, amaliy imkoniyat va malakaviy darajalarni anglatadi. Har qanday odamda tabiatan a) **uyg‘otiladigan qobiliyat** va b) **mahsuldor qobiliyat** mavjud bo‘ladi. Mahsuldor qobiliyat shaxsning fitratida tabiiy ravishda mavjud bo‘lib, u faoliyat ko‘rsata boshlashi bilan o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi. Uyg‘otiladigan qobiliyat esa shaxsda mazmunli hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan sifat-xususiyatlarni ta’lim-tarbiya yordamida shakllantiriladi. Ana shu **uyg‘otiladigan** qobiliyatning **mahsuldor** qobiliyatga aylantirilishi natijasida kompetentlilik yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, kompetentlilik shaxsning ta’biatida biror ishni qilishga qo‘l keladigan, ya’ni uyg‘otiladigan qobiliyatning yuzaga chiqarilishidir.

Kompetentlilikning **shakliga** ko‘ra a) bilim holatidagi **nazariy** hamda b) ko‘nikma, malaka, tajriba va tutumlar shaklidagi **amaliy** singari ikki ko‘rinishi mavjud. Kompetentlilik yechilishi zarur bo‘lgan muammolar mohiyatini bilish va uni hal etishni, buning uchun shaxsdan bilimlarini tinimsiz yangilab borishni, mavjud bilimlarini kutilmagan sharoitlarda qo‘llash uchun eng yangi ma’lumotlardan xabardorlikni, ya’ni **bilimlarning tezkor, harakatchan va to‘xtovsiz boyitib borilishi** shaxsning hayotga moslashuvchanligi bilan qo‘shilib ketishini taqozo qiladi. Bu sifatlarga egalik shaxsga kognitiv kompetentlilik xususiyatini baxsh etib, unga o‘z sohasi bo‘yicha xolis mulohaza yuritish va kerakli qarorlarni qabul qilish, muammoni hal etishning eng to‘g‘ri yo‘lini bexato tanlay olish imkonini beradi.

Kompetentlilikning vazifalari. Aytiganidek, insoniyatning bugungi hayot tarziga muvofiq keladigan kadrlarni tayyorlash ehtiyoji kuchayganligi natijasida keyingi paytlarda jahon ta’lim amaliyotida kompetentli yoshlarni tayyorlash bu yo‘nalishdagi muassasalarning eng muhim vazifasiga aylandi. Negaki, *birinchidan*, komponentlilik tushunchasida ta’limning intellektual va amaliy jihatlari uyg‘unlashtiriladi; *ikkinchidan*, kompetentlilik tushunchasi o‘qitish kechimida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish borasida standart ko‘rsatkichlarni belgilab beradi.

Kompetentlilikning tarkibi. Dunyoning globallashuvi, mutaxassislarining endi birgina mamlakat hududida emas, balki butun yer sharidagi istalgan mamlakatda yashab, faoliyat ko‘rsatishi, raqobatbardosh bo‘lishi uchun uning kompetentli bo‘lishi taqozo etilmoqda.

Shaxsning kompetentligi odamning kundalik tirikchilik o‘tkazish, kasbi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish yoxud ijtimoiy turmushda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga doir hayotiy muammolarni yechishga yaroqli bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalarni egallaganlik holatining qaysi jihatlariga tegishli ekaniga ko‘ra muayyan tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Kompetentlilikni quyidagi yo‘sinda tasniflash mumkin:

- bilish kompetentliligi;
- ijtimoiy-fuqarolik kompetentliligi;
- mehnat kompetentliligi;
- iste’molchilik kompetentliligi;
- dam olish va madaniy kompetentlilik.

Shaxs tomonidan kompetentlilikning muayyan darajasiga erishish davomida shakllanadigan bilim va amaliy tajribalar orasida quyidagi jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

- mustaqil bilim ola bilish;
- tanqidiy tafakkurga egalik;
- mustaqil ishlay bilish;

o‘z aqliy va mehnat faoliyatini uyushtira olish;
 o‘z-o‘zini nazorat qila bilish;
 odamlar bilan til topisha olish;
 erishiladigan natijani oldindan chamalay bilish;
 qabul qilgan qarorining oqibatlarini chamalay olish;
 hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ilg‘ay bilish;
 muammoni topish, uning yechimini ko‘ra bilish;
 muammoni hal etish.

Kompetentlilikning tarmoqlari. Kompetentlilik xususiyati muayyan shaxsnинг imkoniyat va qobiliyati uning hayotida uchraydigan qaysi yo‘nalishdagi muammolarni hal etishga qaratilganiga ko‘ra quyidagicha tasnif etilishi mumkin:

Turli yo‘l bilan, jumladan, rasmiy ta’lim muassasalaridan tashqaridagi manbalardan bilim olish yo‘llarini egallash ko‘zda tutilgan ***bilish kompetentliliği (kognitiv tarmoq)***.

Shaxsning fuqarolik, saylovchilik, saylanish, o‘zga odamlar bilan munosabatda bo‘lish va bq. vazifalarini bajarishga qaratilgan faoliyatini tashkil etishga yaroqli sifat-xususiyatlarga egaligini anglatadigan ***ijtimoiy-fuqarolik kompetentliliği (ijtimoiy tarmoq)***.

Odamning o‘z kasbiga doir hamda mehnat bozorini bilish, undagi vaziyatni tahlil qila olish, o‘zining professional imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, odamlararo munosabatlardagi axloqiy qoidalarni hisobga olish va amal qilish, o‘z mehnatini tashkil eta bilish kabilarni o‘z ichiga oladigan ***mehnat kompetentliliği (mehnat tarmog‘i)***.

Shaxsning o‘z salomatligi, oilaviy turmushi va boshqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi hamda tashkil eta bilish singari jihatlarini qamrab oladigan ***maishiy-iste’molchilik kompetentliliği (oila tarmog‘i)***.

Odamning bo‘sh vaqtini tashkil etish va undan to‘g‘ri foydalanish, o‘z shaxsini madaniy-ma’naviy jihatdan rivojlantirishga doir faoliyatini o‘z ichiga

oluvchi *madaniy va dam olish kompetentliliqi* (*madaniy tarmoq*).

Mamlakatimizdagi mavjud o‘qitish tizimida ta’limiy tadbirlar har bir talabaning yuqorida sanab o‘tilgan komponentlilik xususiyatlariga ega shaxslar sifatida shakllantirilishini ko‘zda tutgan holda tashkil etilsa, ta’lim tizimini isloh qilishda ko‘zda tutilgan natijalar qo‘lga kiritilishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, komponentlilik tushunchasi nafaqat kognitiv va ijtimoiy-mehnatga doir, balki ma’naviy-axloqiy, maishiy turmushga doir xususiyatlarga ham ega hodisadir. U o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakani egallash shaklida o‘qitishga doir jihatlarni olgani singari qadriyatlarga munosabatlar tizimi, odad va qiliqlarni ham qamrab oladi. Komponentlilik ko‘proq o‘qish kechimida shakllantiriladi, lekin faqat maktab yoki boshqa o‘quv yurtidagina emas, balki oilada, ishda, siyosatda, diniy aqidalarga amal qilishda, madaniyatga munosabatda ham qaror topadi. Shu sababli komponentlilikni shakllantirish barcha ta’limiy-madaniy vaziyatning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Topshiriq:

KOMPITENTLILIK TARMOQLARIDAN KELIB CHIQIB, HAR BIR KOMPETENTLILIKNI BADIY ASAR

MISOLIDA IZOHLAB BERING.

- ✓ *bilish kompetentliliqi;*
- ✓ *ijtimoiy-fuqarolik kompetentliliqi;*
- ✓ *mehnat kompetentliliqi;*
- ✓ *iste’molchilik kompetentliliqi;*
- ✓ *dam olish va madaniy kompetentlilik.*

2-AMALIY MASHG‘ULOT:

FILOOGLARDA KREATIV KOMPETENTLILIKNI SHAKLLANTIRISH

REJA:

- 1. Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida*
- 2. Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o‘rni*
- 3. Bo‘lajak filologlarni badiiy asar tahliliga o‘rgatish omillari*

Tayanch tushunchalar: Filologning kasbiy tayyorligi, tahlil kompetentliligi, nutqiy kompetentlilik, badiiy tahlilning filologik ta’limdagi o‘rni, tahlilga o‘rgatish yo‘llari.

Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida. Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon fikr egalarining diqqatini tortib kelgan. Turli davrda yashagan, har xil maqom va darajadagi olimlar badiiy tahlilning mohiyati va unga xos xususiyatlarni tasniflab, ushbu tushunchaga ta’rif berishga urinib kelishgan. Miloddan to‘rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish ham mumkinligi aytildi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga islomiy-turkiy dunyoqarash asosida yondashuv namoyon bo‘lgan.

Qator yillar davomida badiiy asar bilan ishlash va uni tadqiq etish kechimini kuzatishlar shundan dalolat beradiki, oliy o‘quv yurtida saboq olayotgan yoki oliy filologik ma’lumotga ega bo‘lib, o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, hatto, oliy o‘quv yurtlarida ishlayotgan filolog mutaxassislarning kattagina qismi badiiy asarni tahlil qilish borasida yetarlicha malakaga ega emaslar. Badiiy asarni tahlil qila bilmaslik domladan talabaga,

o‘qituvchiga aylangan sobiq talabadań o‘quvchiga, talabaga aylangan kechagi o‘quvchidan yana talabaga tarzida uzilmas halqa bo‘lib davom etib kelmoqda. Bu holni adabiyot o‘qitish amaliyotining aybidan ham ko‘ra fojiasi deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, na talabalar va na o‘qituvchilar va, hatto, na Oliy o‘quv yurtida ishlaydigan filolog o‘qituvchilalar badiiy matnni tahlil qilish yumushiga maxsus o‘rgatilmaydi. Oshib borsa, biror domla tomonidan qilingan matn tahlili shundayicha olinib, o‘qitish amaliyotiga ko‘chiriladiki, badiiy matnga yondashishda bir xillik va fikrlashda qolipni yuzaga keltiradigan bunday yo‘lning foydasidan zarari ko‘proqdir.

Bundan qirq yillar oldin kuyunchak o‘zbek adabiyotshunos olimlari oliy o‘quv yurtiga kirish uchun yozilayotgan insholarning bir xilligidan norozi bo‘lib va bu holatni o‘zgartirishga urinishib matbuotda qator chiqishlar qilgan edilar. Yaxshi niyatda qilingan bu harakatlarning samara keltirmasligi oldindan aniq edi. Negaki, respublikadagi barcha maktablardagi adabiyot saboqlarida badiiy asarlar yagona qolip asosida tahlil qilinadigan o‘sha vaqtarda insholarning bir xil bo‘lmasligi mumkin emasdi. Insholarning bir xilligi o‘quvchilar bir xil fikrlashining emas, balki adabiyot o‘qitishning bir xil fikrlashni, demakki, amalda fikrlamaslikni talab qiladigan tarzda yo‘lga qo‘yilishi oqibati edi. Afsuski, maktab adabiy ta’limida bu hol hozirga qadar ham davom etib kelmoqda.

Albatta, badiiy asarni maromiga yetkazib tahlil qila oladigan adabiyotshunoslар hamma davrda ham bo‘lgan. Ammo ularning malakasi, tahlil kechimida tayanadigan ilmiy tamoyillari hamda qo‘llaydigan usullari ilmiy g‘oyaga aylantirilmagan edi. Shuning uchun ham imkon boricha milliy sinchilikning tahlil borasidagi tajribalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mutaxassis badiiy tahlil o‘zi nima, uni amalga oshirishda qanday ilmiyestetik asoslarga tayanish kerak, matn tahlili jarayonida nimaga birlamchi e’tibor qaratilishi lozim qabilidagi ko‘plab savollar atrofida fikrlashish lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich maktabdan tortib, oliy filologik ta’limga qadar bosqichlardagi

tahlil amaliyotida bugungi kunda muayyan darajada qo‘l keladigan ilmiy taklif va tavsiyalarni taqdim etib, ular to‘g‘risida fikrlashish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy tahlilga o‘rgatishdan **maqsad** filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga odatlantirishdan iborat deb belgilash baravarida badiiy tahlilning o‘zidan qanday **maqsad** kuzatiladi degan savolga ham javob berish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mualliflardan tahlil nima, tahlilchi kim, uning adabiyottanuvchidan farqi bormi qabilidagi masalalarga ham yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, to‘xtalishni taqozo qiladi.

Badiiy tahlil nima va uning mohiyati nimadan iborat degan muammoni yechishga ushbu kitobdan alohida bo‘lim ajratilganini nazarda tutib, bu o‘rinda adabiy tanqid va uning belgilarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblandi. Adabiyot va san’at to‘liq mafkuralashgan sovet sharoitida, xuddi badiiy adabiyotga bo‘lgani kabi, adabiy tanqidga ham uning asl imkoniyati va funksiyasidagidan ko‘ra ko‘proq yuk ortilgan edi. Sovet davrida muayyan asarning badiiy-estetik qimmati va milliy adabiy jarayon taraqqiyotidagi o‘rnini belgilab berishi kerak bo‘lgan tanqidchilik ko‘p hollarda estetik qozilik yoki qoralovchilik vazifasini bajarishga yo‘naltirilardi.

Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o‘rni. Adabiyotshunoslikning ilmiyligi badiiy adabiyotga doir yetarlicha turg‘unlikka ega bo‘lgan qonuniyatlar hamda adabiy hodisalar bilan ularning rivojlanish tamoyillari orasidagi muhim va muqim bog‘liqliklarni belgilab berishda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikdan uning tabiatiga xos bo‘lmagan tarzda o‘ta aniqlikni talab qilishga urinuvchilar bilan bir qatorda badiiy asarni ilmiy izohlash kerak emas deb qaraydigan yondashuv tarzi ham mavjud. Bu tamoyil tarafдорлари o‘z qarashlarida fan hech qachon san’at asarining sehrli ohanrabosi va sirli jozibasini berolmasligiga asoslanadilar. Ular ilmiy tahlil natijasida asarning badiiy-estetik tarkibi buzilib, jozibasi yo‘qolishi mumkin, deb qaraydilar. Badiiy matnga xos muhim qonuniyatlarni ochmoqchi bo‘lib, uni tahlil qilishga

kirishgan sinchi oldida asarning yaxlitligiga daxl etib, amalda uni vayron qilish xavfi ham turadi. Ijodiy intuitsiyaning mahsuli bo‘lmish san’at asari faqat intuitiv yo‘sinda qabul qilinishi, intuitiv bilishning natijalari faqat subyektiv taassurot hamda g‘ayrishuuriy (irratsional) tuyg‘ular shaklida qayd etilishi lozim. Bu taassurot va tuyg‘ularni badiiy asarning o‘zi bilan jiddiy yo‘sinda solishtirish kerak emas. Negaki, ularning fikricha, *adabiyotshunoslik uchun ilmiylik* nafaqat *keraksiz*, balki *zararli* ham. Zero, adabiyottanuvchilik fandan ko‘ra san’atga – asardan ta’sirlanish va o‘z kechinmalarini hissiy, imkon qadar obrazli yo‘sinda bayon etish san’atiga yovuqdir.

Holbuki, badiiy asarni ilmiy tahlil qilish mumkinligini tan olmaydigan mutaxassislar badiiy adabiyotga doir tushunchalar bilan adabiyot haqidagi ilmning tamoyillarini aralashtirib, adabiyot hamda adabiyotshunoslikni qorishtirib yuboradilar. Ilmiy tafakkurdan uning tabiatiga yot bo‘lgan obrazli badiiylik mahsulini kutadilar. Mashhur rus adabiyotshunosi A. Bushmin ancha yillar oldin haqli ravishda ta’kidlaganidek: “*Ma’lumki, ilmiy fikrlash tarzi badiiy obrazni bus-butun qamrab ololmaydi, undagi ko‘pma’noli mohiyatning barcha qirralarini to‘liq ilg‘ayolmaydi, u ko‘rsatgan ta’sir o‘rnini bosolmaydi. Shunday qilish mumkin bo‘lganda, san’atning keragi bo‘lmay qolardi*”⁹. Mantiqiy kategoriyalar, ilmiy atamalar, tushunchalar, ta’rifu qoidalar badiiy obrazni bilishning mohiyati bo‘lib, ular badiiy asardagi asosiy jihatni ajratib, uning qonuniyat darajasidagi muhim qirralarini qabariq tarzda ko‘rsatish orqali bizning asar haqidagi hissiy kechinma va tasavvurimizni to‘ldiradi, boyitadi.

San’at odam hissiy-intellektual va ijodiy (kreativ) faoliyatining oliy ko‘rinishidir. Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘qirman tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. Hayotda

⁹ Bushmin A.S. Nauka o literature. –Moskva. 1980. S. 112.

mavjud, ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlar borliqqa ta’sir qilolmagani kabi his etilmagan, anglanmagan go‘zallik ham shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish, ya’ni badiiy asar o‘qitish orqali yoshlarda ezgu ma’naviyat hamda yuksak did shakllantirish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallagan bo‘lishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay turib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Buning uchun esa filolog mutaxassislar o‘rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishlari kerak. Chinakam badiiy tahlil qilish yo‘llari egallanmagan o‘quv muassasalarida badiiy asar o‘quvchilarning tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Pifagor teoremasi yoki suvning formulasini bilganda ham, bilmaganda ham kishining, uni o‘rab turgan olamning mohiyati o‘zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning: “*Lolazor ermaksi, ohimdin jahonga tushdi o‘t, Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o‘t*” matla’li yoki: “*Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas*” bayti bilan boshlanadigan g‘azallarining badiiy jozibasi va mantiqiy qudratini his etgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo‘lib qolishi aniq. Bulardan bexabar yoki bahasiz odamning ruhiyatida esa anchagina kemtiklik bo‘lishi ham shubhasizdir. Demak, asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiatи va manaviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi.

XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab, millat ijtimoiy hayoti va taraqqiyotida asar tahlilining katta ahamiyatga egaligi bir qadar anglanadigan bo‘ldi. O‘sha anglanishning, asar tahlili inson ma’naviyati shakllanishida tutgan yuksak mavqe tan olinishining natijasi o‘laroq, XX asr so‘nggi dekadasida

«Badiiy tahlil asoslari» degan fan yaratilishiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shu ehtiyoj natijasi o‘laroq respublikamizning bosh oliy maktabi – O‘zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetida 1996 yildan maxsus kurs, 1998 yildan e’tiboran tanlama fan sifatida o‘tila boshlandi. 2004 yildan boshlab esa ushbu kurs o‘zbek filologiyasi yo‘nalishida mutaxassislik fani sifatida o‘qitilishi o‘zbek oliy filologik ta’limi uchun juda katta ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi.

Qachonki, bo‘lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan darajasida o‘rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratiqni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan asl maqsadga to‘liq erishilishi mumkin emas. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa «ijtimoiy nasihat»ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – ma’naviy barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, oliy adabiy ta’limda badiiy asarning butun jozibasini ochish ilmiy asoslarda yo‘lga qo‘yilmaganicha qoladi. Chinakam badiiy tahlil o‘rniga quruq chaqirig‘u aqidabozlik sabab o‘quvchi hamda talabalar haqiqiy adabiyotni soxtasidan farqlay olmaydilar. Shu bois ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirilmay qolaveradi.

Badiiy asarni tahlil qilish malakasiga yetarlicha ega bo‘limgan filolog mutaxassis talabalarga nima «berish»ni bilmaganidek, ulardan nimani «talab etish»ni ham tasavvur qilolmagani bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga kerakli yuk qo‘yilmaydi. Talabalar xayolotini yuksaltirmaydigan, aqlini zo‘riqtirmaydigan yengil-yelpi “bilim”lar adabiyot bo‘yicha ijobiy baho olish uchun yetarli hisoblanib kelinadi. Chunonchi, fizika fanida butun olam tortilish qonunini yaratish uchun Nyutonning boshiga tasodifan tushib ketgan olma turtki bo‘lganini aytgan, ammo qonunning mohiyatini bilmagan talabaga «yomon» baho qo‘yiladi va to‘g‘ri qilinadi. Ammo Alisher Navoiy “Xamsa”sining besh dostondan iboratligi, uning ikki yarim yil mobaynida yaratilgani va

dostonlarning joylashish tartibini bilgan talabaga, garchi u “Xamsa”ni ochib ko‘rmagan bo‘lsa-da, “ijobiy” baho qo‘yilaveradi. Adabiyot bo‘yicha nimani talab qilish kerakligi aniq belgilab olinmagani uchun o‘scha “bilim” ham yetarli deb qaraladi.

Badiiy asar matni bilan ishlashni o‘z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta’lim avval-boshdan samarasizlikka mahkumdir. Badiiy tahlilsiz adabiy ta’lim natijasi ma’naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogika o‘z oldiga ma’naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maqsadini qo‘ygan ekan, adabiy ta’limda badiiy tahlil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir. Malakali badiiy tahlil bo‘lman joyda mo‘jizaviy asarning sehri, siri, jozibasi yo‘qqa chiqadi. Chunki uning zamiridagi badiiy va hayotiy ma’no payqalmay qolaveradi. Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlilga e’tibor g‘oyat sust bo‘lganligi uchun ham millat ahlining bir necha avlodi Navoiy, Bobur, Mashrab va Qodiriy asarlarini o‘qigani holda ularsiz yashab kelmoqda. Chunki milliy adabiyotshunoslik tomonidan hali bu ijodkorlarning asarlariga xos badiiy jihatlarni butun ko‘lami, ko‘pqirraliligi bilan aniqlab, talaba va o‘quvchilarga yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgani yo‘q.

Bo‘lajak filologlarni badiiy asar tahliliga o‘rgatish omillari. Badiiy tahlil yo‘llari o‘zlashtirilmaguncha talabalar ham, o‘quvchilar ham haqiqiy adabiyot namunasini qiziq syujetli yengil-yelpi bitiklardan farqlay olmaydilar. Chunki ular asl badiiy matnning qimmati nimadan iboratligini bilmaydilar. Bu holat ularni badiiy shabko‘rlik – daltonizmga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabko‘rlik, didsizlik esa ma’naviy kemtiklik va axloqiy loqaydlik kabi illatlarga sabab bo‘ladi. Adabiy asar o‘qimaydigan, uni tahlil qila olmaydigan, binobarin, undan ta’sirlana bilmaydigan kishi ma’naviy qadriyatlarni tuymaydi, tushunmaydi, binobarin ularga mensimay qaraydigan bo‘ladi. Bunday odamga o‘zgani his etish, birovga dariddosh bo‘lish tuyg‘usi begona. Unda tor amaliyotchilik, xudbinlik, manfaatparastlik illatlari mavjud bo‘lish xavfi katta.

Shuning uchun ham badiiy tahlilni amalga oshirish oddiy didaktik yumushgina emas, balki o‘ta muhim ma’naviy-axloqiy tadbir hamdir.

Fanlar metodologiyasida ilmning biror tarmog‘i alohida fan hisoblanishi uchun quyidagi uch shartga javob berishi kerak deyiladi: a) o‘ziga xos mustaqil tadqiqot predmeti bo‘lishi; b) o‘ziga tegishli ilmiy-tadqiqot usullar tizimiga egaligi; v) salmoqli ijtimoiy ahamiyati borligi.

Shu ma’noda badiiy tahlilning boshqa biror fan bevosita shug‘ullanmaydigan o‘z obyekt va predmeti mavjud. Ochun bo‘yicha eng qadimgi zamonlardan bugunga qadar yaratilgan og‘zaki va yozma badiiy asarlar badiiy tahlilning *obyektidir*. Badiiy tahlilning *predmeti* adabiy asarning badiiyligini ta’milagan omillar, uning estetik jozibasini yuzaga chiqargan unsurlar, yozuvchining uslubi, badiiy asar va ijodkor dunyoqarashi, badiiy asar hamda jamiyat munosabati, badiiy yaratiqda inson ruhiyatining ifodalananish yo‘sini kabi bir ko‘p jihatlarni nazariy tekshirib, ularga asosli ilmiy baho berish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir.

Bo‘lajak filolog mutaxassislarni istalgan badiiy asarni professional darajada ilmiy tekshirishga o‘rgatish badiiy tahlilning *maqsadidir*. Fanning *vazifalari* sirasiga filolog-mutaxassislarga muayyan adabiy yaratiqning milliy badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni, konkret asarning o‘ziga xos jihatlari, tasvirdagi yutuq va kamchiliklar hamda bularning sabablari nimadan iboratligini topish yo‘llarini o‘rgatish singarilar kiradi.

Ilmning har qanday tarmog‘i kabi badiiy tahlilning ham o‘ziga xos tadqiqot metodlari mavjud. Chunonchi, *kuzatish*, *dalillash*, *umumlashtirish*, *baholash*, *akseologiya*, *shartlilik*, *komparativistika*, *ruhiy asoslash*, *badiiy qimmatni tayin etish*, *solishtirish*, *umumlashtirish*, *evristik* singari ilmiy-tadqiqot metodlari mazkur fanga doir dalillarni to‘plash, umumlashtirish, tahlil etish, tizimga solish va muayyan ilmiy to‘xtamga kelish kechimida qo‘llaniladigan usullar hisoblanadi. Bu tadqiqot metodlaridan ba’zilari boshqa fanlarni tekshirishda ham qo‘llanishi mumkindir, lekin unday holatda o‘zgacha yo‘sin va maqsadda

ishlatiladi.

Badiiy tahlil – ulkan *ijtimoiy-estetik ahamiyatga ega*. Asosli badiiy tahlil bo‘limgan joyda adabiy asar to‘la anglanmaydi. Badiiy matnni to‘la anglamagan filolog o‘zga odamlar ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyati mobaynida kutilgan samaraga erisha olmaydi. Holbuki, filologlar millat ahli ma’naviyatini shakllantirishga mas’ul bo‘lgan kasb egalaridir. Jamiyat a’zolari hayotida badiiy adabiyotning baland martabada ekanligi, ta’lim tizimida adabiyot alohida imtiyozli mavqeda turishining sababi uning ulkan ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqadi. Ezgu ma’naviyat, yuksak axloqiy qadriyatlar shu yo‘nalishdagi tajribalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan shakllantiriladi. Bu xil tajriba har bir odamning, albatta, o‘z boshidan kechirilishi shart emas. Balki badiiy asar qahramonlari holatini chuqur anglash, ularning hissiyotlari qo‘zg‘alishi, tuyg‘ulari junbushga kelishi sababini tushunish kishida adabiy qahramonlarniki singari ijobiy sezimlarning tarkib topishiga sabab bo‘ladi.

Tilga olingan ana shu omillar filolog mutaxassislarda badiiy tahlil kompetentliligin shakllantirish ular faoliyatining samaradorligini oshirish omili ekanini ko‘rsatadi.

Topshiriq:

**FILOOGLARDA KREATIV KOMPETENTLILIKNI
SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMILLAR SIFATIDA
NIMALARGA E’TIBOR BERASIZ? FIKRINGIZNI ANIQ
DALILLAR BILAN IZOHLANG**

3-AMALIY MASHG‘ULOT:

TAHLILDA ADABIY TUR VA JANRGA XOS XUSUSIYATLARNI HISOBGA OLİSH

REJA:

- 1. Adabiy tur tushunchasi va uning badiiy tahlil kechimidagi o‘rni*
- 2. Janr tushunchasi va tahlilda uni hisobga olish zarurligi*
- 3. Epik turdag'i asarlarni tahlil qilishda unda aks etgan muammoning o‘rni*

Tayanch tushunchalar: Adabiy tur tushunchasi, janr tushunchasi, tahlil, epik tur, asar, epos, lirika, drama.

Adabiy tur tushunchasi va uning badiiy tahlil kechimidagi o‘rni. Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. To‘g‘ri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma’lum darajada o‘zgarishi aniq. Munosabat yo‘sini, nuqtai nazar esa har qanday ilmiy-ijodiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har bir badiiy asar takrorlanmas va tamomila o‘ziga xos estetik hodisa ekani, ayni vaqtda u shunday hodisa sifatida o‘zi mansub turga doir umumiyligi jihatlarga ega bo‘lgani uchun ham tahlilda adabiy turga tegishli belgilar hisobga olinishi zarurdir. Lirik asarni tahlil qilishda foydalanilgan usul bilan romanni

o‘rganish mumkin bo‘lmaydi. Shuningdek, hikoyani o‘rganishda qo‘l kelgan tahlil usuli dramani tekshirishda ish bermay qolishi mumkin va bq. Adabiy tur tabiatidagi o‘ziga xoslik bu turdagи asarni tahlil etishda hisobga olinadi.

O‘zbek adabiyot nazariyasidagi *adabiy tur* atamasi rus ilmidagi «rod», ya’ni jins so‘zi orqali ifodalansada, har ikki tilda ham bir tushuncha ko‘zda tutiladi. Adabiy turning bosh xususiyati shundaki, uning vujudida muayyan badiiy butunlikning qanday **maqsadda** yaratilgani (*kuylash, o‘qish yoki ko‘rsatish uchun*) va **nimani ifodalashi** (*tuyg‘u, voqeа, yoki harakat*) kodlashtirilgan bo‘ladi. Demak, tahlil jarayonida ham badiiy matnning maqsadi va ifoda imkoniyatlari hisobga olib ish ko‘rilsa, kutilgan samaraga erishilishi mumkin bo‘ladi.

Asarning til qurilishi va badiiy tasvirining bevosita ***ob’ekt***, ya’ni asardagi voqelikka yoki ***sub’ekt***, ya’ni muallifga yoxud badiiy ifoda aktining o‘zi, ya’ni tasvirlanayotgan ***xarakterlarga*** yo‘naltirilganligi uning turini tayin etadi. Chunonchi, har bir badiiy asarda yo borliqni tasvir etish, yoki so‘zlovchining holatini aks ettirish, yoxud so‘zlashish jarayonining o‘zini qayta tiklash singari holatlardan biri bosh maqsad sifatida tanlangan bo‘ladi. Umumlashtirib aytganda, mana shu uch holat uch adabiy yaratiqning qanday turga mansubligini belgilab beradi. Ayrim mutaxassislar adabiy turlarning uchga bo‘linishi bilan tilshunoslik ilmidagi shaxs-son va zamon kategoriyalari orasida muayyan analogiya ko‘rishadi. Ya’ni ***lirika*** – «men» va «hozirgi zamon», ***epos*** – «u» va «o‘tgan zamon», ***drama*** – «sen» va «kelasi zamon». Bu o‘xshashliklar barcha badiiy asarlarda ham istisnosiz uchraydi deb bo‘lmaydi. Lekin shu jihatlar hisobga olib ish ko‘rilsa, shubhasiz, tahlilning ilmiy saviyasi ortadi.

Badiiy asarlarning muayyan adabiy turga xos xususiyatlari ularning san’atning boshqa turlaridan qaysi biriga yaqinligida, qaysi san’at turi yordamida badiiy interpretatsiya qilish mumkinligida ham namoyon bo‘ladi. Chunonchi, epik asarlar grafika va rangtasvirga osonroq ko‘chadi. Lirik asarlar

esa musiqaga tez muvofiqlashadi. Dramatik asarlar esa teatrda namoyon bo‘ladi hamda pantomimaga ancha yovuq turadi.

“Eposda odam voqeа-hodisa... oqimida oqadi; dramada inson voqeа ustidan hukmronlik qilib, uning fonida turlanib ko‘rinadi; lirikada inson o‘z holicha qoladi”,— deydi shoir va adabiyottuvchi Jamol Kamol¹⁰. Ko‘rkam tahlil jarayonida ham ayni shu jihatlar ma’lum darajada hisobga olib ish ko‘rilishi samara keltiradi. Aks holda badiiy tahlil ilmiy qimmat kasb etmay qolishi mumkin.

Janr tushunchasi va tahlilda uni hisobga olish zarurligi. Adabiy yaratiqning turi va janri nafaqat bitikning qurilish yo‘sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so‘zlarning tabiatiga ham ta’sir qilishi to‘g‘risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o‘zining “Hermenevtika” asarida: *“Asarning janri muallif niyatiga ko‘ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. She’riy asar ustida ishlayotgan muallif so‘zlarni nasrdagidan tamomila o‘zgacha yo‘sinda ishlatadi. Poetik so‘zni nasriy sochma so‘z kabi talqin etishga urinish uning ma’nosini buzishdir. Nasrda o‘z ma’nosidagi so‘zni, she’riyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi”*¹¹, - deb yozadi.

Lirk turdag'i asarlarning asosiy belgisi ochiq ko‘rinib turgan yoki poetik tasvir zamiriga yashiringan sub’ektning ruhiy holati, sezimlari, hissiy olami, tuyg‘ular tizimi ekan, bu turdag'i matnni tekshirishda ayni o‘sha jihatlarga e’tibor qaratilishi, tuyg‘ularning samimiyligi, ifodaning hissiyligi va she’rxonda emotsiyonal intellektni qo‘zg‘aydigan darajada bo‘lishi singari lirk asarning saviyasini yuksaltiradigan omillarni topishga, ularning qanchalik o‘rnida qo‘llanilganini tekshirishga diqqat qilinishi joiz. Lirk asarlar tahlilida so‘zlarning ta’sirchan, ma’noning tig‘iz, ifodaning serqatlam bo‘lishiga alohida diqqat qaratilishi maqsadga muvofiqli.

¹⁰ Адабиёт назарияси. 2- жилд. —Т.: «Фан», 1979. —Б. 239.

¹¹ Верклер А. Генри. “Герменевтика”. Gospel literature services, Schaumburg, Illinois, USA, 1995. C. 55.

Adabiy tur badiiy makon va zamon munosabatlarining shartlilik darajasini belgilashda ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, lirkada zamon va makon muvofiqligining omonatligi, shartliliqi maksimal darajaga yetadi. Hatto, ayrim lirk asarlarda makon tushunchasi mutlaqo bo‘lmasligi ham mumkin. Chunki bu turdagи asarlar ko‘pincha voqeaband bo‘lmasligi uchun ularda tuyg‘uning qaerda junbishga kelgani emas, balki muvozanatdan qanday chiqib, qanday ko‘rinish olganini aks ettirish muhimroq sanaladi. Lirk asarlarda zamon tushunchasiga bog‘liqlik ham shu kabi ancha shartli va omonat. Lirk asarlarda bugunning o‘tmish, o‘tmishning keljak, keljakning hozir bilan ajratish mushkul bo‘lgan darajada qorishib ketishi holatlari ko‘p uchraydi. G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan”, “Turksib yo‘llarida”, A. Oripovning “Bahor”, “Sarob” kabi she’rlarida zamoniy qorishiqlik yaqqol ko‘zga tashlanadiki, ularni tahlil qilish mobaynida bu holat hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. H. Xudoyberdievaning “Yo‘ldadirman”, “Begin Sizni xudoyim”, Zebo Mirzaevaning “Umrimni o‘tkinchi saboga berdim” she’rlarida zamon to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmaganini ko‘rish mumkinki, bu xildagi erkinlik lirk she’rlarning ta’sir kuchi doimiy va davomiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Epik turdagи asarlarni tahlil qilishda unda aks etgan muammoning o‘rni. Epik asarlarni tahlil qilishda bu turdagи asarlarning moyasida ozdirko‘pdир tafsilot bo‘lishi ko‘zda tutilishi lozim. Demak, epik asar tahlilini amalgao shirishda asardan badiiy timsol bilan tafsilotning qanchalik muvofiqligi yoki nomuvofiqligi yoxud aloqasiz tasviri bergan estetik natija qidirilishi lozim bo‘ladi. “Alpomish” dostoni tahlil etilayotganda Barchindan xabar kelgan kuni Hakimbekka enchi sifatida berilgan biyadan tug‘ilgan yarg‘oq toychoq, ya’ni bo‘lajak Boychiborning sag‘risi toshib, o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolgani, buni ko‘rgan Boybo‘rining uni Alpomish ko‘zidan yiroqlatish uchun to‘qaydagi yilqilarga qo‘shtirib yuborgani, shu sababli Alpomishning ot so‘rab Qultoysa borishga majbur bo‘lishi, Qultoyning unga ot bermasligi, ustiga ustak, kaltaklashi, o‘z moliga egalik qilolmay, quruq qaytgan noshud yigitga

Qaldirg‘ochoy qilgan achchiq iddaolar singari tafsilotlar ifodasida timsollar mohiyati teran aks etadi. Tekshirilayotgan asar mohiyati anglanmay turib esa, badiiy tahlil yuzaga chiqmasligi ayon haqiqat.

Adabiy turlarga xos xususiyatlarni hisobga olishning o‘zi tahlilning to‘kisligi uchun hali yetarli bo‘lmaydi. Negaki, adabiy turlarda universallik ko‘p bo‘lib, konkret asarga xos jihatlarni aniqlashda unchalik qo‘l kelmasligi mumkin. Ma’lumki, adabiy turlar janrlarga bo‘linadi va ular ham bir qator jiddiy o‘ziga xosliklarga egadir. Janr turga nisbatan kichikroq qamrovni o‘z ichiga oladi. Unda badiiy bitikning ifoda yo‘sini, obrazlar tizimidagi mavjud **an’analar tufayli shakllangan o‘ziga xoslikka** tayaniladi. Tekshirilayotgan asarning janriga xos xususiyatlar ham ko‘zda tutilgandagina tahlilda kutilgan ilmiy samaraga erishish mumkin. Chunonchi, lirik turning g‘azal janrini tahlil qilishdan tuyuq, muvashshah yoxud chiston singari janrlarga mansub bitiklarni tadqiq etish tamomila farq qiladi. Shuning uchun ham badiiy tahlil kechimida adabiy janrlarga xos jihatlar ham ko‘zda tutib ish ko‘rilganda tahlilchi to‘xtamlari nisbatan chuqur va aniq bo‘ladi.

Badiiy tahlil jarayonida asarning janr xususiyatlari turga xos belgilariga nisbatan kamroq ahamiyat kasb etsada, uning badiiy butunlikni tadqiq etishda salmoqli o‘rni borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda janr tushunchasiga doir belgilarga atroflicha to‘xtalib o‘tirish shart bo‘lmasada, janr adabiy tur ichidagi shakl, mazmun yoki vazifasiga doir umumiyligi belgilariga ko‘ra o‘zaro birlashadigan badiiy yaratiqlarga xos o‘rtoq jihatlarni anglatishini qayd etish zarur. Shuni ham aytish kerakki, barcha asarlar ham aniq janriy tabiatga ega bo‘lavermaydi. Shuningdek, turga xos xususiyatlar nisbatan turg‘un bo‘lsa, janrga xos xususiyatlar birmuncha tez o‘zgaruvchan va omonat bo‘ladi. Ba’zan u yoki bu janr yangidan paydo bo‘ladi, ba’zan borlari yo‘qolib ketadi. Chunonchi, bugungi o‘zbek adabiyotida muammo, tarix singari janrlarda deyarli asar yaratilmaydi. Ayni vaqtida, oldinlari bo‘lmagan sonet, ballada, tasbeh, fiqra,

uchchanoq, xoyku, tanka kabi janrlar paydo bo‘lib, ancha keng yoyilib bormoqda.

Epik turdag'i asarlar ko‘proq hajmiy belgilariga ko‘ra janrlarga bo‘linadiganday taassurot qoldiradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, adabiyottanuv ilmida *katta epik janr* (roman, epopeya), *o‘rta epik janr* (qissa), *kichik epik janr* (hikoya, novella, badiiy publitsistika) tushunchalari qo‘llaniladi. Badiiy asarning hajmi estetik butunlikning faqat tashqi miqdoriy jihatni emasligi shunda ko‘rinadiki, har bir janrga mansub asarni tekshirishda o‘scha janrga xos xususiyatlar hisobga olinmasa, tekshirilayotgan badiiy asar to‘g‘risida haqqoniy ilmiy to‘xtamga kelish mumkin bo‘lmaydi.

Jumladan, hikoyaning kichik hajmi poetikaning romannikidan o‘zgacha tamoyillariga amal qilishni, muayyan badiiy usullarni qo‘llashni talab qiladi. Chunonchi, bu holat, avvalo, badiiy tasvir vositalari va ularni qo‘llash miqyosida ko‘zga tashlanadi. Hikoyaga ko‘pincha yuqori darajadagi badiiy “tejamkorlik” xos bo‘lib, unda uzundan-uzoq tafsilotlar bayoni, turli-tuman chekinishlar, qistirma lavhalar berilishi maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Shu bois hikoyada, ayniqla, peyzaj, portret, interer va eksterer tasviridan ko‘ra, ramziy-majoziy tafsil (detal)larga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Ramziy tafsil yuqori darajada ifodaviylik kasb etadi va odatda o‘qirmanning xayolot olamini qo‘zg‘ab, uni tafsildagi ramziy ma’noni anglashga, ya’ni ijodiy sheriklikka undaydi. Har qanday kichik epik janrdagi asar singari **hikoyada ham uning tugallanishi juda muhim**. Hikoyalar odatda yo syujet tugunining mantiqiy yechimi yoxud kutilmagan hissiy yakun bilan tugallanadi. Milliy hikoyachilik rivojining hozirgi bosqichida **konfliktning yechimini emas, balki uning yechimsizligi aks etgan** tugallanishlarga ko‘proq ahamiyat berilmoqda.

Hikoya janriga mansub asar tahliliga tutinilganda, uning ko‘pincha o‘tkir va tez rivojlanadigan syujetga egaligi, voqealar rivoji yechimga tomon shiddat bilan borishi, shu asnoda asardagi har bir personajga xos eng muhim jihatlarning yo‘l-yo‘lakay tasvirlanishiga erishish hisobga olingani maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Odatda ko‘pchilik hikoyalarning syujeti siqiq, voqealar **muallifning estetik niyati atrofiga maksimal darajada markazlashtirilgan** bo‘ladi. Syujetning tezkor o‘sishi zarurati undagi personajlar sonining kam sonli bo‘lishini taqozo etadi. Chunki asarga kiritilgan personajki bor qandaydir badiiy-estetik yuk bilan ta’minlanishi zarur. Personajlarning har biriga badiiy yuk ortish zaruriyati syujet yechimi qarqini (sur’ati)ning susayishiga olib kelishi mumkin. Hikoyada epizodik personajlar deyarli bo‘lmaydi, agar kiritilsa ham syujet rivojiga turtki berib bo‘lishi bilan tasvir doirasidan chiqib ketadi. Hikoyada yondosh syujet chizig‘i, muallif chekinishlari bo‘lmaydi hisob, qahramonning ham ko‘proq hoziri tasvirlanadi, uning o‘tmishi syujet rivoji uchun g‘oyat zarur hollardagina qalamga olinadi. Hikoyada voqealar rivojiga bevosita daxldor bo‘lmagan bayon unsurlari minimumga tushirilgan bo‘lib, deyarli hamisha asar boshida keladi. Chunki hikoya yakunida ular yechimga halal berib, o‘qirman diqqatini chalg‘itishi mumkin.

Katta epik janrga mansub roman va epopeya mazmuni, birinchi navbatda, ularda ko‘tarilgan muammoning mohiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Epopeyaning mazmuniy asosini deyarli hamisha ***milliy***, romannikini esa ***romaniy***, ya’ni yo ma’naviy-axloqiy, yoki psixologik, yoxud avantyur muammo tashkil etadi. Shuning uchun ham roman janriga mansub bitik tahlilida tekshirilayotgan asarning shu ikki turdan qaysi biriga mansub ekanini aniqlab olish o‘ta muhimdir. Negaki, roman bilan epopeyaning poetikasi mazmuniy asoslardan kelib chiqib quriladi. Epopeya ko‘pqatlamli syujetga ega bo‘lib, unda qahramon timsolida u mansub tabaqa, etnos yoki xalqqa xos jihatlarning kvintessensiyasi aks etishi ko‘zda tutiladi.

Boshdan-oyoq qiziqarli va tahlikali voqealar tasviriga qurilgan avantyur romanlarda ham syujet ustuvor bo‘lsada, ammo ko‘pincha qahramon tabiatini o‘zgacha yo‘sinda, ya’ni etnik, tabaqaviy hamda jamoaviy aloqalardan atay uzilgan holda tasvirlanadi. Chunki tavakkalchilik (avantyur) romanining syujeti aynan qahramon tabiatidagi tabaqadan ayrilishga intilish hissi tufayli

rivojlanadi. Ma’naviy-axloqiy mazmuniy asoslar ustuvor bo‘lgan romanlar deyarli hamisha psixologik va polifonik xususiyatlarga ega bo‘ladiki, ilmiy tahlil jarayonida ayni jihatga e’tibor qaratilishi lozim.

Har qanday turga mansub **romanning ham asosiy belgisi uning individni tekshirish va tasvirlashga bag‘ishlanganidadir**. Gap shundaki, odam oldin individ sifatida paydo bo‘lsa ham, faqat jamoadagina shaxs sifatida shakllana va o‘zligini namoyon eta oladi. Odatda bir shaxsdan ko‘ra muayyan ijtimoiy qatlam yoki to‘dani tasvirlash osonroq kechadi, shu sababli tasvirning bu yo‘nalishi qadimiylar tarix va boy an’analarga ega. Har bir odamdagи alohidalikdan ko‘ra, muayyan tabaqaning universal jihatlarini tasvirlash o‘ng‘ayroq ham. Lekin insoniyat rivojlangani sayin tabiiy ravishda odamning individuallashuvi kuchayib boraveradi va buni fundamental yo‘sindagina tasvirlash mumkin. Butun jamiyatni yoki ijtimoiy qiyofasi shaxsiy qiyofasidan ustuvor bo‘lgan odam holatini ifodalash uchun she’r, poema, epos, drama, tragediya, komediya va hk. Kifoya qilar, lekin shaxslik qiyofasi, individual jihatlari kuchli, ichki dunyosi murakkab odamni tasvirlash uchun aynan roman kerak bo‘ladi. Odam va odamlararo ichkin munosabatlar butun murakkabligi va miqyosi bilan faqat roman janridagina to‘la berilishi mumkin. Zero, bitta odamning ichki dunyosi butun olamdan katta va murakkabroqdir.

Insoniyat tarixining keyingi yuz ellik yili davomida ayrim xalqlar adabiyotida romanning epopeya deb ataluvchi salmoq dor bir turi yaratila boshlandi. Bu xil asarlar adabiyot tarixida ko‘p dunyoga kelavermasligi ma’lum. Bunga epopeya yozishning qiyinligidan tashqari, unga material bo‘ladigan hayotiy asosning ham har doim uchrayvermasligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Roman-epopeyaga milliy va ma’naviy-axloqiy problematikani qorishiq badiiy tadqiq etish xos bo‘lib, u bu ikki yo‘nalishdagi muammolarni shunchaki qo‘sib qo‘ya qolmaydi, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy izlanishlari xalq va millatning ruhiyati hamda haqiqati bilan bog‘liq holda tasvirlanadi.

Muayyan shaxs taqdiri orqali millatning qismatidagi qaltis bosqichlarni aks

ettirish roman-epopeyalarda ko‘tariladigan asosiy muammodir. Epopeyada butun boshli etnosning barcha qatlamlari uchun tahlikali va hayot-mamot ahamiyatiga ega bo‘lgan voqealar fonida qahramonning izlanishu urinishlari alohida mohiyat, dolzarblik, ahamiyat kasb etadi; epopeya qahramon yoki qahramonlari ko‘pincha nafaqat o‘zining hayotdagi o‘rnini topish, balki millat tarixida burilish yasash zaruriyati oldida bo‘ladi. Epopeya poetikasi uchun tafsilotlar bilan psixologizmning qorishiq kelishi, umumiyligi, o‘rta va yirik plandagi tasvirlarning uyg‘unligi, syujet chizig‘ining ko‘pligi va o‘zaro chirmashib ketganligi, muallif chekinishlarining mo‘lligi singari xususiyatlar xosdir.

Xalqning og‘zaki ijodi va milliy yozma adabiyotda juda ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan **masal** muayyan qoliplar doirasida mavjud bo‘lgan oz sonli janrlar sirasiga kiradi. Masal janrining ayrim belgilari uni ilmiy tahlil qilishning istiqbolli yo‘lini ko‘rsatib turishi bilan ko‘zga tashlanadi. Shulardan birinchisi masalning shartlilik darajasi katta bo‘lib, obrazlar tizimining ba’zan, hatto, fantastik tabiatga egaligidir. **Masalda syujet shartli bo‘lgani sabab syujetning tahlilidan tuzukroq badiiy ma’no chiqarish qiyin kechadi.** Uning timsollar tizimi hamisha majoziy tabiatga ega bo‘lib, zo‘ravonlik, qo‘rqoqlik, soddalik, quvlik singari ma’naviy sifatlarni bildiradi. Shuning uchun ham masal janridagi asar konfliktini real xarakterlar to‘qnashuvidan emas, ana shu ma’naviy-axloqiy sifatlar o‘rtasidagi ziddiyatdan izlagan ma’qul bo‘ladi.

Masal kompozitsiyasida deyarli hamisha ikki qism yaqqol ajralib turadi: a) ko‘pincha dialog shaklida rivojlanadigan syujet; b) albatta, asarning o‘rtasida emas, yo oxiri, yoki boshidagi tasvirdan muallif chiqargan xulosa. U o‘zbek adabiyotshunosligida qissadan hissa, Kunbotish ilmida “moral” deb ataladi. Onda-sonda bo‘lsada, qissadan hissa chiqarilmagan masallar ham uchrab turadi. Bu xususiyat, ayniqsa, zamonaviy masalchilikda keng yoyilib bormoqda.

Ballada epik turga xos tafsilot bilan lirikaga xos hissiylikni uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega poetik janrdir. Balladaning

syujeti unchalik murakkab va ko‘ptarmoqli bo‘lmaydi hamda asar lirik qahramonning shu syujet voqealarini hissiy idrok etishi asosiga quriladi. Ballada she’riy nutq shaklida yozilib, hajmi cheklab qo‘yilmagan. Bu janrga mansub asarga xos eng muhim belgi unda, albatta, dialogik nutq ko‘rinishi ishtirok etishidir. Ammo keyingi paytlarda ballada janriga mansub ayrim bitiklarda dialog uchramasligi ham kuzatilyapti.

Ballada janridagi asarga romantik ko‘tarinkilik, sirlilik, noma'lumlik xosdir. Unga xos ko‘tarinki romantizm fojiali qismat yoxud qahramonlik bilan to‘yintirilgan xarakterlarni qabariq tarzda tasvirlash imkonini beradi. Hamid Olimjonning “Roksananing ko‘z yoshlari”, “Jangchi Tursun”, Usmon Azimning “Dasht haqida ballada”, “Boysun haqida g‘amgin ballada”, “Armon haqida ballada” asarlari o‘zbek balladachiligining sara namunalari sanaladi. Hozirgi o‘zbek balladachiligi taraqqiyotiga Usmon Azim ulkan hissa qo‘shmoqda. Uning ijodida ballada janrida bitilgan yigirmadan ortiq badiiyati yuksak, ta’sirchan asar mavjud. Tahlil jarayonida bu janrning o‘ziga xosligi hisobga olinsa, chiqarilgan ilmiy xulosalar salmoqli qiymat kasb etadi.

Dramatik asarni tahlil qilishda, garchi badiiy adabiyotning bu turi ham so‘z vositasida yaratilsada, uning, birinchi navbatda, sahnaga mo‘ljallanganligi, tomosha ko‘rsatish maqsadida yozilganligi, muallifning ishtirok etmasligi sabab timsollarning xatti-harakatlariga biror darajada ham munosabat bildirish imkoniy yo‘qligi yanglig‘ jihatlar ko‘zda tutilishi lozim bo‘ladi. Shu jihatlar hisobga olingandagina dramatik asarlarning hayotiy va badiiy mohiyati hamda estetik jozibasini to‘la tadqiq etish mumkin bo‘ladi. Dramatik asarlar tahlilida to‘lig‘icha Kunbotish estetikasida qaror topgan ilmiy yo‘riqlardan foydalanish ko‘proq samara keltiradi. Negaki, bu tur Kunchiqishda chuqur ildizga ega bo‘limganligi uchun uni tekshirish borasida hanuzgacha ham ilmiy jihatdan mustahkam tamoyillar ishlab chiqilmagan.

Dramatik asarlar tahlilida ko‘zda tutilishi lozim bo‘lgan yana bir jihat shundaki, bu tur asarlarda zamon va makon aniqligi maksimal darajada aks

etishi zarur bo‘ladi. Klassitsizm nazariyasida qat’iy qilib qo‘yilgan uch birlik talabi, birinchi navbatda, dramatik turdag'i asarlarga tegishli bo‘lgani ham bejizga emas. Adabiyot nazariyasi ilmining bilimdoni V. Xalizev shuni nazarda tutib: “*Dramatik asarlarda bayon etuvchi parchalar qanchalik muhim o‘rin tutmasin, tasvirlanayotgan asar qanchalik bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lmasin, personajlar aytayotgan so‘zlar ularning ichki nutqiga qanchalik muvofiq bo‘lmasin, baribir, drama zamon va makon jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirilgan manzaralarni tasvirlashga moyildir*”^{12,-} deb to‘g‘ri ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyoti uchun ancha yosh, Kunbotishda esa minglab yillik an'anaga ega bo‘lgan dramatik tur keyingi bir yarim asr davomida jiddiy shakliy o‘zgarishlarga uchrab, janrlar chegarasi yemirilib, o‘zaro uyg‘unlashish, sinkretizm holatlariga duch kelindi. Dunyo dramaturgiyasining G. Ibsen, A. Chexov, M. Gorkiy, B. Shou singari yetuk vakillari qalamiga mansub qator dramatik asarlarning janrini aniq tayin etish o‘ta mushkul. Lekin janriy ayirmalari nisbatan toza saqlab qolingga *tragediya* va *komediyalar* ham yaratilayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Qorishiqlik ko‘proq dramatik turning o‘rtasidagi drama janrida ko‘zga tashlanadi. Fojia va komediya janrlariga xos belgilar, avvalo, ularning pafosida namoyon bo‘ladi. Fojia (tragediya) uchun badiiy konfliktning tabiatli birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Badiiy tahlil jarayonida asardagi qahramonlar qanchalik urinishmasin, mavjud ziddiyatni qon to‘kishsiz hal qilishning iloji yo‘qligiga e’tibor qaratilishi joiz. Fojida ziddiyatning ko‘pqatlamli ekani, ko‘rinishdan butun konflikt personajlar o‘rtasidagi to‘qnashuvdangina iboratday ko‘rinsada, aslida fojia zamirida deyarli doim qahramon shaxsiyatining o‘z-o‘zi bilan kurashidan kelib chiqadigan psixologik ziddiyat yotishi hisobga olinishi kerak.

Komediya janridagi asarlar uchun mazmuniy asos bu bitiklardagi hajv, hazil va kinoya pafosidir. Bunday asarlarning mavzu-muammolari cheksiz

¹² Хализев В.Е. Драма как род литературы. -Москва: 1986. С. 46.

bo‘lsada, ko‘proq ijtimoiy-madaniy yo‘nalish ustuvorlik qilishi ko‘zda tutilishi lozim. Badiiy tahlil jarayonida komediyalarning uslubidagi nutqiy xilma-xillik, o‘tkir va shiddat bilan rivojlanadigan syujetga egalik, kuchli darajadagi shartlilik singari jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Badiiy tahlil asosan u yoki bu timsol, sahna, ko‘rinish, luqma, jumlaning nima sababdan komik va kulgili ekanligini hamda komik effektga qanday erishilganini ochishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Topshiriq:

**BADIY ASARNI ILMIY TAHLIL QILISHDA TUR VA
JANRLARNING AHAMIYATINI BADIY ASARLAR
MISOLIDA TUSHUNTIRIB BERING.**

4-AMALIY MASHG‘ULOT:

LIRIK ASARLARNI O‘RGANISH SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR TEXNOLOGIYASI

REJA:

1. *Adabiyottanuv ilmida lirik turga xos asosiy xususiyatlar*
2. *Lirik she’rlarda portret masalasi*
3. *She’riyatga xos unsurlar*
4. *Milliy lirikamizning yirik vakillaridan ayrimlari misolida lirik asarlar tahlili*

Tayanch tushunchalar: Adabiy tur tushunchasi, lirika poeziya, she’riyat, poetik ma’no, lirik so‘z, lahzalik kechinma

Adabiyottanuv ilmida lirik turga xos asosiy xususiyatlar. Lirik turga tegishli asarlarda so‘zning ohangi ham kayfiyat ifodasini berish, ham holat tasvirini chizish, ham taassurot manzarasini ko‘rsatish vositasi bo‘lganligi uchun lirik asarni tahlil qilishda badiiy so‘zdagi yetakchi ohangni ilg‘ab olish, asar musiqasini tayin etgan omillarni topishga alohida diqqat qaratish zarurdir. Lirik asarda kayfiyat qay darajada tasvirlanganligi uning estetik qiymatini tayin etuvchi asosiy omildir. Shu sababli bu turdagи asarlarda nima tasvirlanganidan ko‘ra, qanday tasvirlanganini tekshirish muhimroq.

Lirik asarlar tahlili batafsil, chuqur va aniq bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, bu turga mansub asarlarga xos yetakchi belgilarni bilib olish lozim. Adabiyottanuv ilmida lirik turga xos asosiy xususiyatlar sifatida a) his-tuyg‘uni ifodalashi; b) lahzalik kechinmalar ifodasi o‘laroq hajmi kichik bo‘lishi; v) badiiy nutqning she’riy shakli xosligi; g) juda oz bo‘lsada nasriy lirik asarlar

ham borligi; d) nutqning monologik shakli ustuvor ekani; ye) badiiy zamon — “hozirgi zamon” ekanligi; yo) badiiy shaxs — “men” (birinchi shaxs)ligi singari jihatlar sanaladi. Bulardan tashqari, lirk turdag'i asarlarda badiiy ob'ekt va badiiy sub'ekt bitta shaxsda uyg'unlashishi, ya'ni unda asosan muallifning ichki dunyosini tasvirlash maqsad bo'lishi aytildi. “Adabiyotshunoslik lug'ati” kitobida lirika tushunchasiga **“Lirkada voqelik sub'ekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchidir”**^{1,-} tarzida ta'rif berilgan.

Lirk asarlar asosan ruhiyat manzaralarini aks ettirib, junbishga kelgan hissiyot ifodasi sifatida paydo bo'lgani uchun ham bu turga mansub asarlar tahlili jarayonida sezimlar, tuyg'ular tizimi tasviridagi o'zgachaliklarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Lirkada voqealar bayoni, xatti- harakatlar ko'lami emas, balki kechinmalar zamzamasi qay tarzda berilishini tadqiq etish muhimdir.

Milliy adabiyotimiz tarixida lirk turdag'i asarlar salmoq jihatidan ham, sifat jihatidan ham katta o'rin tutadi. Negaki, o'ta ta'sirchan ruhiyatga ega bo'lgani holda o'zbek xalqi o'zaro odatiy muomala- munosabatlarda o'z tuyg'u va kechinmalarini bemalol bildiravermaydi.

Iste'dodli shaxs ko'nglida hamisha ham tashqariga chiqarilavermay, qatlanib yotgan his-tuyg'ular lirk asar bo'lib moddiylashuvi tabiiydir.

Lirk turdag'i asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu turdag'i asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg'ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi. Chinakam lirk she'r tinglovchi yo o'qirmanga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsiyal tafakkuri va ma'naviy-axloqiy quvvatini uyg'otib, faoliyatga undaydi.

Samimiy lirk so'z, hatto, real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum. Shu boisdan ham lirk asar tahlili kishini nafaqat estetik-ma'naviy

jihatdan, balki funksional-aqliy tomondan ham kamolotga yetkazishga xizmat qiladi. Inson aqliyu tilidan tashqari, nozik va ingichka tuyg‘ularga egaligi bilan ham boshqa jonliqlardan farq qiladi. Lirika hayot hodisalarini emas, balki inson ruhiyatida yuz beradigan o‘ta nozik, betakror holatlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Shu holatlarni hisobga olib bo‘lsa kerak, Ortega-y-Gasset “San’atning degumanizatsiyalashuvi” asarida: “*Odam tanasining og‘irligi tufayli xuddi teshilgan havo shari kabi ko‘tarilolmay, goh yerda sudralib, goh daraxtlarga ilashib, goh tomlarga urilib yotgan she’riyatni ortiqcha yukdan xalos etish kerak edi... Endilikda odamlar hayot bir narsa, poeziya esa tamomila boshqa narsa ekanini bilishyapti, bilishmasada, sezishyapti. Bu ikki narsani bir·biriga aralashtrimagan ma’qul. Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi. Birining taqdiri – o‘zining “insoniy” yo‘lidan yurish, ikkinchisining missiyasi esa yo‘q narsani yaratishdir. Shoir dunyoni boyitadi, o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lgan real borliqqa, o‘zining yangi irreal qit’asini qo‘sib, olamni kengaytiradi*”^{1,-} deb yozadi. Bir qarashda tushunarsizday ko‘ringan bu fikr orqali lirkaga odamning hayotida uchraydigan muammolarni hal etishga urinish vositasi deb emas, balki ko‘ngil holatlarini, sababini bilish ham, tushunish ham, tushuntirish ham o‘ta mushkul bo‘lgan ruhiyat jilvalarini aks ettirish yo‘li deb qarash lozimligi ifodalangan. Orteganing: “*Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi*”,- degan qanoatida odamga tegishli bo‘lgan turli majburiyatlarni unuta bilgan kishigina shoir bo‘la olishi qayd etilgan. Zero, shoir borliqdagi reallikdan ko‘ra ko‘proq tasavvur va ko‘ngil realligida bo‘lishni xush ko‘radigan shaxsdir.

Lirika adabiy tur sifatida epos va dramadan keskin farq qilib, tahlil jarayonida unga xos belgilarni to‘liq hisobga olishni talab etadi.

Agar epos va dramada inson turmushining ob’ektiv tomoni aks ettirilsa, lirkada ijodkorning ruhiyati, ongi, ongosti holati, ya’nikim, bevosita o‘ziga tegishli sub’ektiv jihatlari ifodalanadi. Epos va dramaga mansub asarlarda borliq yoki ruhiyat *tasvirlanadi*, lirk bitiklarda esa *ifoda etiladi*. Lirika epos va

dramaga o‘xshab san’atning tasviriy turiga emas, balki tamomila boshqa ekspressiv-hissiy turiga mansubdir. Shuning uchun ham lirik asarlar tahlilida epik va dramatik asarlar tadqiqida qo‘llangan usullardan hamisha ham foydalanib bo‘lmaydi. Bu tur asarlarni tekshirishning o‘ziga xos yondashuv va usullari qo‘llanilishi kerak.

Lirik asarlar tahlilida ustuvorlik qiladigan jihat undagi o‘ziga xos psixologizmni hisobga olishdan iboratdir. Agar epos va qisman dramada timsollar ichki olami tashqaridan turib tasvirlansa, lirikadagi psixologizm ekspressiv-hissiy bo‘lib, sub’ektning izhori ob’ektning ruhiy ifodasiga mos keladi. Shu sababli ham lirika odam ichki olamini kechinma, sezgi va hissiyotlar orqali eposdagiga nisbatan teran, jonli va ta’sirli ifoda etadi.

Lirika, o‘rni kelganda, inson tafakkuriga ham kuchli ta’sir ko‘rsata biladi. Negaki, ruhiyattanuv ilmida “hissiy tafakkur” degan tushuncha bor.

Unga ko‘ra uyg‘ongan hissiyot tafakkurning ham kuchli darajada qo‘zg‘alishiga sabab bo‘ladi. Adabiyot tarixida juda ko‘plab lirik asarlarning kechinma va hissiyotlarni kuchlanadirishdan tashqari, yuksak darajada hissiy bo‘yoqqa ega fikr-mushohada uyg‘otganini ko‘rish mumkin. Bu xil lirik asarlar sirasiga hazrat Navoiyning “Xarobot aro kirdim oshuftahol...” tarji’bandidan tortib, A. Oripovning “Sarob”, “Malomat toshlari”, “Olomonga” kabi she’rlarigacha bo‘lgan ko‘plab bitiklarni kiritish mumkin. Lekin nima bo‘lganda ham lirik asarda ifoda etilgan olam, hammadan burun, ruhiyat olamidir. Bu jihat, ayniqsa, lirik she’rlardagi ayrim tafsil (detal)larni badiiy tahlil etishda hisobga olinishi lozim bo‘ladi.

Abdulla Oripovning “Onajon”, “Bahor” she’rlaridagi istisnosiz barcha tafsillar psixologik bo‘lib, shunchaki sharoitni ko‘rsatishga xizmat qiladigan birorta ham predmetli detal yo‘q. Bu she’rlardagi barcha detallar to‘lig‘icha shoir ruhiy holatidagi turli sezim va kechinmalarni teranroq ifodalashga xizmat qiladi. Mabodo, tabiat tasviriga bag‘ishlangan sof lirik bitiklarda predmetli detal tasvirlari uchragan taqdirda ham ular yo bevosa, yoxud bilvosita lirik

qahramon ruhiyati va kayfiyatini ifodalashga qaratilgan bo‘ladi. Mirtemirning “Betoblikda”, R. Parfining “Yomg‘ir yog‘ar”, A. Oripovning “Yomg‘ir ham tinmadı...” singari she’rlaridagi tabiat manzarasiga oid tafsillar o‘z holicha maqsad emas, balki ruhiy holatni ta’sirli yo‘sinda berish vositasidir. Ko‘rinishdan faqat peyzaj ifodasiga bag‘ishlangan bu kabi she’rlar aslida to‘lig‘icha kayfiyat va ruhiy holatni ko‘rsatishga qaratilgan. Shu bois ham lirkadagi peyzaj tasvirini tabiat manzarasi deyishdan ko‘ra, shoir yoki lirk qahramon kayfiyatlarining vositali manzarasi deyish to‘g‘iroq bo‘ladi.

Lirk she’rlarda portret masalasi. Lirk she’rlarda ahyon-ahyonda uchrab qoladigan portret yoki atrof-olamdagи narsalarga oid tafsillar to‘g‘risida ham shu gapni aytish mumkin.

Tasvirda syujetga o‘xshabroq ketadigan voqeabandlik hamda obrazlar tizimi unsurlari mayjud bo‘lgan lirk asarlar tahlili bir qadar murakkablik tug‘diradi. Negaki, bu xil poetik asarlarda tafsilot borligi sabab tahlilda epos va drama tahliliga mos tamoyil va usullarni qo‘llash kerakday tuyuladi. Bunday qilish mutlaqo noto‘g‘ri, zero, lirk asardagi syujet va personaj aslida “soxtasyujet” va “soxtapersonaj” bo‘lib, epos va dramadagidan tamomila o‘zgacha mohiyatga ega bo‘lib, mutlaqo boshqa – psixologik funksiyani bajaradi. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ridagi o‘zbek dehqoniga bag‘ishlangan bandda dehqon obrazi, uning e’tiqodini anglatuvchi qarashlari tabiat tasviri bilan uyg‘unlashtirilgan holda tasvirlanganki, u, dastlab, xuddi epos va daramatik asarlarni o‘rgangan kabi tahlil etish mumkinday taassurot qoldiradi. Lekin bu taassurot yanglish bo‘lib, dehqon timsoli, uning portreti va so‘zleri alohida katta badiiy qiymatga ega emas, balki O‘zbekistonning yaxlit lirk obrazi ifodasiga hissiy jo‘shqinlik beruvchi yordamchi vosita vazifasini bajaradi. She’r uchun kuzakdagi voqeа ham, dehqonning xatti-harakatlari ham emas, balki shu kichik “syujet”ning hissiy bo‘yoqdorligi muhim.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirkada syujet uchrab qolsada, u mustaqil estetik unsur sifatida mavjud bo‘lmaydi, balki hissiy- psixologik

ifodaviylikni orttirish vositasi hisoblanadi.

Lirik asar tahlilida syujetga ham, personajlarga ham, predmetli tafsillar tasviriga ham bajargan muayyan ruhiy-psixologik vazifasi doirasidagina yondashiladi. Ma’lumki, ayni shu narsalar epik asar tahlilida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Lirik turdag'i asarda muallif yoxud lirik qahramon tahlili muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Lirik qahramon – lirik asardagi odam timsoli, lirik kechinmalar tashuvchisi. Har qanday obraz sifatida lirik qahramon ham betakror, o‘ziga xos individual shaxslik sifatlarini namoyon etibgina qolmay, muayyan umumlashtiruvchi universal xususiyatlarga ham ega bo‘ladiki, bu hol unga shoir shaxsi bilan bir deb qaramaslik kerakligini taqozo etadi. To‘g‘ri, ko‘pincha lirik qahramon o‘z tabiat, odamlar va hayot hodisalariga munosabati bilan shoir shaxsiga juda yaqin keladi, lekin ular deyarli hech qachon to‘liq birlashib ketmaydi. Tan olish kerakki, shoir lirik qahramonni, birinchi navbatda, o‘zining shaxsidan oladi. Lekin shoir har safar, har bir asarining lirik qahramonida o‘z shaxsiyatidagi muayyan qirralarni faollashtirish orqali lirik kechinmalarni umumlashtirish va universallashtirishga erishadi.

Ayni shu umumlashganlik sababli lirik qahramon tuyg‘ulari o‘qirmanlargada yuqadi, ulargada ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham she’rxon lirik qahramonga o‘xshab, u bilan birlashib ketadi. Bu hol nafaqat asar muallifi, balki lirik bitikni o‘qib, qahramon kechinma va tuyg‘ularini tuygan har qanday odamni ham lirik qahramon deyishga imkon beradi. Ko‘p she’rlarda lirik qahramon shoirdan ancha uzoq bo‘lib, real muallifga daxldorligi juda shartli bo‘ladi. Halima Xudoyberdievaning “Yo‘ldadirman”, “Muqaddas ayol”, Usmon Azimning “Gladiator”, “Baxshiyona”, Azim Suyunning “Qodir ovchining o‘limi” va yana shu singari boshqa minglab she’rlarning lirik qahramonini muallifning o‘zi deb bo‘lmaydi.

Lirikaning hajman kichik bo‘lishga intilishi natijasida asarning kompozitsiyasi murakkablashadi va taranglashadi. Lirikada epos va dramaga qaraganda, takrorlash, qarshi qo‘yish, kuchaytirish, qurash kabi kompozitsion

usullar faol qo‘llaniladi. Lirik asar kompozitsiyasida badiiy mazmunning ikki va ko‘pyo‘nalishli bo‘lishiga olib keladigan obrazlarning o‘zaro munosabati juda katta ahamiyat kasb etadi.

Lirik asar kompozitsiyasining asosiy tayanch nuqtasi yakunda bo‘ladi, bu kichik hajmli lirik asarlarda, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ko‘pincha kichik hajmli she’rlarning qolgan qismi eng so‘nggi bir yoki ikki qatorda aytilgan fikr uchun tayyorgarlik vazifasini o‘taganday bo‘ladi.

Lirikaning badiiy nutq sohasidagi uslubiy asoslari: monologizm, ritorika hamda tizma shakldan iboratdir. Lirik asarlarning asosiy qismi lirik qahramon monologi tarzida qurilgani uchun unda bayonchi-roviy nutqi ham, personaj nutqi ham bo‘lmaydi, binobarin, ularning nutqiy xarakteristikasiga zaruriyat sezilmaydi. Ammo ayrim lirik asarlar dialog shakliga qurilgan bo‘lishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Odatda, lirik nutq hissiy ko‘tarinkiligi bilan ajralib turadi hamda unda istiora, majoz va sintaktik figuralar ko‘pligi ko‘zga tashlanadi.

Gassetning: “*Poeziya majozning oliy matematikasidir. Odamdagи ega bo‘lish uchun emas, balki bekitib qo‘yish uchun bir narsani boshqasi bilan almashtirishga bo‘lgan ehtiyoj chindan ham hayratlanarlidir. Majoz bir narsani boshqasi bilan niqoblagan holda juda chaqqon yashiradi; agar ortida odamga xos reallikdan qochish instincti turmaganda, majozning hech qanday ma’nosи qolmagan bo‘lardи*”¹, - degan fikrida lirikaga xos majoziylik zamirida jo‘nlikdan qochish, obrazli fikrlashga intilish orqali murakkab va chigal ruhiy holatlarni ifodalash istagi yotishi o‘rinli qayd etiladi. Lirikada so‘zni faqat o‘z ma’nosida qo‘llash deyarli hech qanday badiiy effekt bermaydi; u yo ramzga o‘ralganda, yoki shaxslantirilganda, yoxud narsalashtirilganda, ya’ni real o‘zlikdan uzoqlashgandagina muayyan poetik ahamiyat kasb etadi va o‘qirmanga ta’sir ko‘rsatadi.

She’riyatga xos unsurlar. She’riyat o‘z tarkibidagi barcha unsurlarning yuqori darajada uyushganligi va ko‘lamdorligi bilan nasrdan ajralib turadi.

So‘zlarning she’r tarkibidagi o‘rni, harakati, ularning o‘zaro munosabatlari, poetik ritm va qofiya doirasida mavjudligi, tizimli (she’riy) nutqda musiqiylikning ustuvorligi, ritmik va sintaktik qurilishning muhimligi singari shaklga doir jihatlar nazmiy asarga nasrda mutlaqo bo‘lmaydigan qo‘sishimcha ifodaviy imkoniyat beradi. Agar juda ko‘plab go‘zal she’rlar sochma (nasr) shaklga solinsa, tuzukroq mazmundan mahrum shunchaki so‘zlardan iborat bo‘lib qoladi. Chunki poetik mazmun tizmadagi so‘zlarning ma’nosidan ham ko‘ra, ularning she’riy shakl ichidagi munosabat va joylashuvidan kelib chiqadi.

Ko‘rinadiki, poetik ma’noni kuchaytirish ehtiyoji tufayli lirkada ritmik qurilish, she’riy shaklga intilish mayli kuchli bo‘ladi. Negaki, she’riy so‘zga nasriy sochma so‘zdagiga qaraganda kuchliroq hissiyot yuklanadi. Ammo bu lirk asar faqat she’riy yo‘ldagina yaratiladi degani emas. Milliy she’riyatimiz tajribasida sochma ko‘rinishdagi lirk asarlar ham oz emas, she’riy shakl lirika uchun asosiy mavjudlik tarzi bo‘lsada, yagona shakliy ko‘rinish emas. Qator ijodkorlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan mansuralar hamda o‘tgan asrning 70- yillarida dunyoga kelgan lirk nasrga oid yaratiqlar fikrimizning dalilidir. Bu holatni, ya’ni lirikaning she’riy emas, balki nasriy shakldan foydalanishi masalasi alohida o‘rganilishga loyiq. Negaki, bu o‘rinda muallifning individual ijodiy o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. “Nasrdagi she’r” ham ritmik tashkillanganlik va she’riy qurilishga ega bo‘limgani holda, ularda kichik hajm, yuqori darajadagi hissiylik, syujetsiz kompozitsiya, sub’ektiv taassurot va kechinmalarni ifodalashga yo‘nalganlik singari barcha lirk turdag'i yaratiqlarga xos umumiy belgilar mavjud bo‘ladi.

Lirk nutqning xususiyatlarini tahlil etish ko‘p jihatdan bu turdag'i asar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan nutqning shiddati va sur’at (qarqin)ini tekshirishdan iboratdir. Negaki, nutqning qarqini, shiddati, takroriyligi kabi jihatlar muayyan kayfiyat hamda ruhiy holatni ifodalashdan tashqari, o‘qirmanlarda shu holatni qo‘zg‘ash xususiyatlariga ham ega bo‘ladi.

Lirk turning o‘ziga xosligi uning mazmun jihatini tekshirishga ham ta’sir

qiladi. Lirik she’r bilan ish ko‘rilganda, birinchi navbatda, uning pafosini anglab yetish, she’rdagi yetakchi hissiy holatni ilg‘ash va aniqlash muhimdir. Ko‘pgina hollarda lirik bitikning pafosini to‘g‘ri aniqlash sinchini she’rning badiiy mazmunga doir boshqa unsurlarini tahlil qilib o‘tirish zaruriyatidan xalos etadi.

Tizma yo‘li bilan yaratilgan bo‘lsada, muayyan miqdorda hayotiy tafsilotlar aks etgan liro-epik janrdagi bitiklar tahlili ham alohida e’tiborni talab qiladi. Nomidan ko‘rinib turganidek, bu xil asarlarda epik va lirik belgilar qorishib, sintezlashgan bo‘ladi. Liro-epik asarlar eposdan, kuchsizroq ko‘rinishda bo‘lsada, syujetlilik, bayon, obrazlar tizimi, real borliqning tasviri singari jihatlarni oladi. Lirikadan esa lirik qahramon, sub’ektiv kechinma ifodasi, nisbatan kichik hajmga intilish, she’riy nutq va psixologizm, ruhiyat ifodasi kabi xususiyatlarni o‘ziga singdirgan bo‘ladi.

Tahlil jarayonida liro-epik asarlardagi liriklik va epiklik xususiyatlardagi ayirmalarni ko‘rsatishga emas, balki ularning bitta badiiy olamdagি sintezi, uyg‘unlashuviga e’tibor qaratish kerak. Bu kechimda lirik qahramon-bayonchi timsolini tahlil qilish hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Liro-epik asarlarda bayoniy nutq osonlik bilan hissiy-lirik nutqqa o‘tib ketadi, sababi bayonchi va lirik qahramon aslida bitta obrazning ajratib bo‘lmас ikki qirrasidir. Shuning uchun ham bu janrda yaratilgan bitiklarda narsalar, odamlar, voqeа-hodisalar bayoni, ya’nikim, bu xil asarlarning barcha unsurlarida lirik qahramon ohangi sezilib turadi.

Lirik asarni tahlil qilishda matndan mantiqiy xulosa chiqarishga shoshilmaslik, imkon boricha, bunday xulosani topishga, umuman, intilmaslik kerak. Lirik asar tahlili uchun, muhimi, she’rda ifoda etilgan ruhiy holatga she’rxon hissiyot olamidagi reaksiya, munosabatning muvofiqligini ta’minlashdir. Lirik asar chuqur tahlil tufayli o‘qirmanlar tomonidan to‘liq qabul etilsa va matndagi she’rxon yuragiga ta’sir ko‘rsatgan, uni bezovta qilgan estetik omillar anglab yetilsa, shuning o‘zi umumlashma xulosadir. Lirik qahramon yoki shoир holatini bevosita his etishga odatlantirish yo‘li bilan she’rxon

o‘zgalarning ruhiyatini ilg‘aydigan, birovning qayg‘usiga dardkash, quvonchiga sherik bo‘la oladigan ma’naviyati yuksak, barkamol shaxs sifatida shakllana boradi.

Lirik asarlardagi inja badiiy san’atlarni, nozik ishoralarni, ko‘zdan yashirin tasvir vositalarini payqash o‘qirmanda badiiy so‘z jozibasini tuyish qobiliyatini qaror topdiradi. Lirik so‘z sehridan zavqlana bilish kishining sezimlarini noziklashtiradi, nutq boyligini orttirib, fikrlash qarqinini tezlatadi. Lirik asar tahliliga o‘qirmanlarning qalb ko‘zini ochish, ularda atrof olam va odam ruhiyatidagi go‘zalliklarga faol munosabat uyg‘otish vositasi tarzida qarash tahlilning ijtimoiy-estetik ahamiyatini oshiradi.

Milliy lirkamizning yirik vakillari asarlar tahlili. Milliy lirkamizning yirik vakillaridan ayrimlari misolida lirik asarlar tahlili qanday amalga oshirilishini ko‘rish mumkin.

Cho‘lpon she’riyatida ruhiyat manzaralari, inson hissiyotining zumlik to‘lg‘onishlari aks ettiriladi. Jumladan, “Go‘zal”she’rida shoir tabiatning juda dilbar manzarasini yaratgan. Lekin u tabiatdan nusxa ko‘chirish, borliqning o‘ziga chiroyli ko‘ringan lavhasini shu holicha tasvir etishnigina maqsad qilmagan. Cho‘lpon bu tizmasida tabiat tasviriga inson ruhini singdiradi, insoniy hissiyot esa tabiatga jon bag‘ishlab, dard bilan, odamiy ishq bilan munavvar qiladi. Shoir izlayotgani tengsiz go‘zalni, dastavval, “*Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib, Eng yorug‘ yulduzdan...*” so‘raydi. Tahvilning ibtidosidanoq, she’rxon shoir hissiyoti olamiga yaqinlashtirilishi darkor. Nega lirik qahramon go‘zalni «qorong‘u kechada» izlay boshladi? Nima sabab ma’shuqasini “*eng yorug‘ yulduzdan*” so‘radi?

Tahlilchi she’r matnidan shu kabi savollarga javob topishga uringani sayin asarning joziba kuchini yaqqolroq tuyadi.

Ma’lumki, ishqqa mubtalo qalb egasiga uyqu – begona. Hazrati Navoiy aytganlaridek, “*Beishq ulusqa kom uyqu, Ishq ahligadir harom uyqu*”. Shu bois “Go‘zal”ning lirik qahramoni – bedorlik bandasi. Bedor odam, qalbiga ishq

oshiyon qurgan dardmand o‘ziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin ishqday o‘ta mahram tuyg‘uni boshqa odam bilan o‘rtoqlashish, izlayotganini undan so‘rash xatarsiz emas. Shuning uchun lirk qahramonning uyqusiz tunda eng yorug‘ yulduzga murojaat qilishi – mantiqan asosli. Cho‘lponning lirk qahramoni, avvalo, yulduzga yuz burib notabiiy yo‘l tutmaydi.

Endi yulduzning go‘zalni o‘ngida emas, “tushda ko‘r”ganligi sababini izohlashga diqqat qaratilishi kerak. O‘zbek go‘zali Kunbotishning ochiq- sochiq yuradigan tunkezar sohibjamollaridan emas, shu bois kechasi bedor bo‘ladigan yaratiqlarning unga ko‘zi tushmaydi. Mabodo, tasodifan ko‘zi tushsada, yuzini emas, qorasini ko‘rishi mumkin. Yulduzning malak ta’rifini eshitishi, eshitganlari tufayli tushlaridagina ko‘rishi mumkinligi sababi ham shunda. Shu vajdan “eng yorug‘ yulduz” malakni faqat tushida ko‘rgani tabiiy. Yulduzning e’tirofi bejiz emas: «*Tushimda ko‘ramen: shunchalar go‘zal, Bizdanda go‘zaldir, oydanda go‘zal!*» Tahlilda sinchi lirk she’rdagi nafaqat har bir so‘z, balki qo‘sishimchalargada e’tibor berishi joiz: lirk qahramon ma’shuqasini bitta “eng yorug‘ yulduz”dan so‘ragan edi. Lekin yulduz: «*Bizdanda go‘zaldir...*» tarzida ko‘plik nomidan javob berdi. Nima uchun? Negaki, bitta yulduz qanchalar porloq bo‘lmisin, osmonning ko‘rki bo‘la olmaydi. Ko‘kning bezagi osmon to‘la sanoqsiz yulduzlardir. Ularning go‘zalligi ko‘pligi va tartibsiz tartibida! Buni “eng yorug‘ yulduz” yaxshi biladi. Shoir she’rdagi juda mayda detallargacha g‘oyat katta e’tibor bilan ishlagan.

Yulduzdan qoniqarli javob ololmagani uchun lirk qahramon nigohinioy chiqqan yoqqa olib, ma’shuqani so‘roqlovni davom ettirishga majbur. Oyunga: «...bir qizil yonoqqa, Uchradim tushimda ko‘milgan oqqa», - debjavob aylaydi. Oyning tushidagi malak ne bois oqqa ko‘milganini oson izohlash mumkin: go‘zalni ko‘rmoq uchun nazar tashlagan Oydan mayin, sutday nimtatir nur taraladi. Taraladi-yu, yerdagi malakning qorasigami, soyasigami tushib uni ham o‘zining oq og‘ushiga oladi. Bundan tashqari, Kunchiqish estetikasida oq – ezgulikni ifodalovchi rang. Go‘zal, garchi uni oy o‘ngida ko‘rmagan bo‘lsada,

albatta, oppoq kiyangan bo‘lishi kerak. Oq yuzli malakning oppoq libosi Oyning oydin nuri bilan qo‘shilib malikani tamomila sehrli bir oqlikka chulg‘aydi.

She’rda «qizil yonoq» sifatlashi ham ishlatilgan. O‘zbek uchun qizil yonoq – sog‘lomlik ham go‘zallik belgisi. Shuning uchun ham oyning tushida namoyon bo‘lgan malak qizil yonoqli. Buning ustiga, go‘zalning qizil yonog‘i tasviri she’rning keyingi bandida quyoshning yondiruvchi qizilligini asoslovchi mantiqiy-hissiy vosita hamdir.

Sirli go‘zalni so‘roqlab tong ottirgan oshiqning yorni «erta tong shamoli»dan surishtirmay iloji yo‘q. Tong nasimi tengsiz malakni tushida emas, o‘ngida ko‘rgan. Lekin bu baxtiyor visol unga «bir» martagina nasib etgan. Uning abadiy sarosar kezmog‘i, hamishalikka telbavor oshiq bo‘lmog‘i uchun o‘sha birgina yo‘liqish kifoya: «...*bir ko‘rib, yo‘limdan ozib, Tog‘u toshlar ichra istab yuramen!*» Sirli go‘zalning tong shamoliga o‘ngida yo‘liqish sababi ancha oson izohlanadi: o‘zbekning bo‘y qizlari saharzez bo‘lishadi. Nechoq‘lik ehtiyyot bo‘lmisin, sirli malak biror marta tong nasimining nigohiga nishon bo‘lishdan qutulolmagan bo‘lishi mumkin.

Nihoyat, ishq otashida kuyib qorong‘u kechadan kunduzga qadar bedor yurgan oshiq olamni munavvar etgan Kun — quyoshga murojaat aylagandagi holat: «*Ulda o‘z o‘tidan bekinib, kochib, Aytadir: bir ko‘rdim tushdamas, o‘ngda. Men o‘ngda ko‘rganda shunchalar go‘zal, Oydanda go‘zaldir, kundanda go‘zal!*» tarzida tasvirlanadi. Astoydil izlagan topadi deganlaridek, Kun ham ul malakni birgina bor ko‘rishga tuyassar bo‘lgan. Lekin o‘sha birgina uchrashuv uning go‘zalga o‘zini unutar darajada oshiq bo‘lishiga kifoya qilgan. Mazkur bandda: «*Ulda o‘z o‘tidan bekinib, qochib...*» misrasiga yashiringan badiiy va hayotiy ma’no e’tibordan aslo chetda qolmasligi kerak. She’riy organizmdagi eng kichik o‘zgachaliklarni payqay olish uni tushunish sari olib boradigan eng to‘g‘ri yo‘ldir. Quyoshga tik qarab, uni ko‘rib bo‘lmasligi hammaga ma’lum. Buni shoirona iste’dodgina: «...*o‘z o‘tidan bekinib, qochib*» tarzida ifoda qila olishi mumkin. Kun falakda suzib yuribdi.

Unga tik qarashingiz bilan ko‘rinmay qoladi. Chunki ko‘zingizni oladi. Shu bois quyosh o‘z o‘tidan bekinib, qochibgina muloqotga kirishadi.

Yulduz, oy, shamol, kun timsollari yordamida lirik qahramon qalbidagi ishq o‘ti alangasi nechog‘lik balandligi, hijron azobining qanchalar og‘irligi anglashiladi. Charx urib, faryod chekib olamdagи eng muqaddas narsasi – ishqini izlayotgan oshiq nolasi o‘qirman qalbida ham aks-sado beradi. She’rning so‘nggi bandi to‘lig‘icha lirik qahramon ruhiy holatining, kechinma-yu kayfiyatining ifodasidan iborat. Hajr yo‘lida o‘rtanayotgan oshiq go‘zaldan yozg‘irmaydi. Chunki asl tuyg‘u minnatdan yiroq bo‘ladi. U visol ta’masini ham xayol etmaydi. Oshiq ishq o‘tida yonayotganidan masrur, dard chekish baxtidan quvonchda. Shu bois, «boshini zo‘r ishga berib» qo‘yganidan unchalar pushaymon emas. Mislsiz muhabbatи va o‘rtanishlari evaziga hech narsa kutmaydigan chin oshiq ruhiy dunyosining nurli to‘lg‘anishlari aks etgan «Go‘zal» she’rini shu tariqa tahlil qilish uning jozibasini to‘larоq, ta’sirliroq anglash imkonini beradi.

Talantli shoirlarning she’rlaridagi har bir satr o‘zining betakror rangi va tovushiga ega bo‘ladi. O‘rtamiyona she’rlarda ham ba’zan o‘ziga xos rang va tovushga ega satrlar uchraydi, lekin ularda faqat satrlargina mavjud, xolos. Bunday she’rlarning boshdan-oyoq barcha unsurlari kishini titroqqa solib, uni o‘z ta’sir doirasida ushlab turolmaydi. Ko‘pincha butun she’r birgina o‘rinli tashbih yoki qaldirqli ifodaga qurilgan bo‘lib chiqadi. Chinakam she’rning esa shohmisrasi yoki shohbaytini topish qiyin kechadi. Chunki undagi har bir she’riy qator oldingisiga qaraganda kuchlanib, ifoda qudrati ortib, hissiy ta’sir quvvati yuksalib boraveradi.

Shoira Zulfiyaning «Oydinda» deb ataluvchi nozik ishoralarga, ingichka ifodalarga boy sof tabiat lirkasining namunasi bo‘lmish ichkin bir she’ri bor. She’rda oxirko‘klam yomg‘iridan keyingi tunlarning birida sanoqsiz yulduzlar charaqlagan osmon, olamni oqlikka o‘ragan oy, xayol kabi to‘zg‘igan bulutlar go‘zalligidan hayajonga tushgan shaxs kechinmalari, hayratlari aks ettirilgan. Bu

she’rda bo‘rtib turgan ijtimoiy ma’no ham, dardkash qalb iztiroblari ham yo‘q. Unda tabiatning beqiyos ilohiy go‘zalligi va undan hayratlanayotgan masrur ko‘ngil entikishlarigina ifoda etilgan, xolos.

Jilib-jilmas to‘lin oy, Bulut xayolday yengil, Oy anhorda qulun-toy,
Gilosda shig‘il-shig‘il...

Tip-tiniq suvli anhor tinimsiz o‘ynoqlab oqqani bois unda aks atayotgan Oy – qulunday yugurik. Yomg‘ir tufayli toza chayilgan gilos mevalarining har birida bittadan to‘lin Oy jilva qiladi, shu bois «gilosda shig‘il- shig‘il». Hovuz tiniq suvga to‘la, ammo u oqmaydi, shu sabab ko‘kdagi oy bir hovuz “yaxlit oynaday bo‘lib» unga yoyilgan. Oyning “yaxlit oynaday”ligi oyning ham xuddi, hovuz kabi yumaloq – aylana shaklida ekani, ya’ni qizlar tez-tez ko‘z tashlab turadigan oynaga o‘xshashida. Hovuzdagi to‘lin oyni va oynani yaxshiroq ko‘rish ilinjida egilgan lirik qahramon oynada boshqa bir oyga, ya’ni o‘ziga «ro‘baro‘» keladi. Chunki u ham – oyday go‘zal. Shoira shohona qiyangan malika yanglig‘ «*ming-ming yulduzni sidirg‘asiga chayqab, yerga sudrab*» bormoqda: tiniq osmonning hovuzdagi aksida sanoqsiz yulduzlar lirik qahramonning kiyimlariga qadalgan bezaklar kabi tuyuladi. She’rxonlar moviy ko‘kni kiyim qilib, undagi yulduzlardan bezak taqib ketayotgan sohibjamolni ko‘z oldilariga aniq keltirishlari mumkin.

Tahlilda she’rdagi go‘zal o‘xhatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarni ko‘rishga, tushunishga e’tibor qilinsa, she’rxon oldida go‘zallikning hadsiz dunyosi ochiladi. Tahlil jarayoni «*Sel unutgan ko‘lmaklar Misli oyning singani*» misralaridagi chiroyli o‘xhatishni payqashdan tashqari «sel unutgan ko‘lmak», «singan oy» tarzidagiobrazli ifodalar haqida o‘yga toldirishi, bu tasvirlarning tagiga yetishga undashi bilan ahamiyatli. Tahlil shu tarzda samimiyl tuyg‘ular ifodasidan hayratga tusha oladigan, chinakam she’riy satrlar bag‘ridagi sehrli go‘zallikni his qilishga qodir kishilarning ma’naviy olamini shakllantirishga xizmat etadi.

V. KEYSLAR BANKI



KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. «Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «stadi» — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1-keys. Qaysi so‘zlar umuman “ajdod” va “avlod” ma’nolarini anglatmaydi?


2-keys. So‘zning uzual va okkazional ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladigan zidlanish qanday enantiosemiyani namoyon etadi?

3-keys. So‘z semantik strukturasidagi ma’nolarning borliqdagi narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni qarama-qarshi tomondan atashi yoki qarama-qarshi tomondan baholashiga ko‘ra qanday enantiosemya farqlanadi?

4-keys. Badiiy asar tahlilini amalga oshirilayotgan tahlilning maqsadiga ko‘ra necha turi bor?

5-keys. Konstruktivistik pedagogikaning: “Dunyodagi birorta pedagog birorta o‘quvchini o‘qita olmaydi”,- degan xulosalari asoslimi?

VI. GLOSSARY



GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Muammo Problem	<p>(arabcha “tugun” ma’nosidagi so‘z) – bilish yoki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelib, hal qilinishi muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar yig‘indisi. Mavjud bilimlar bilan izohlash mumkin bo‘lmagan yangi hayotiy dalil va hodisalar majmui.</p> <p>Muammo kundalik hayotdagi ilmiy savol va masalalardan farq qiladi. Ilmiy masala mavjud bilimlar doirasida yechilishi mumkin. Muammoni hal qilish uchun esa yangi dalillar, ma’lumotlarni to‘plash, ularni yangicha izohlash, mavjud bilimlar doirasidan chiqib, ilmiy bilishning yuqoriqoq darajasiga ko‘tarish zarur. Bilish jarayonida bir muammo bir necha ilmiy masalaning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.</p>	<p>(Arabic for "knot") – An issue or set of issues that arises in the process of cognition or social development and has important practical or theoretical significance to be resolved. A set of new life facts and events that cannot be explained by existing knowledge. The problem is different from the scientific question and issues in everyday life. The scientific problem can be solved within the existing knowledge. To solve the problem, it is necessary to gather new evidence, data, interpret them in a new way, go beyond the existing knowledge and raise it to a higher level of scientific knowledge. One problem in the process of learning can lead to several scientific problems.</p>
Gipoteza	grekcha, "hypothesis"	from the Greek word

Hypothesis	<p>so‘zidan olingan bo‘lib, «asos», «tahlil» degan ma’noni anglatadi. Gipoteza narsa, hodisa va aloqalarning sabablari, oqibatlari haqida ilgari surilgan, ilmiy dalil va ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa-da, haqiqatligi hali isbotlanmagan aqliy xulosadir. Gipoteza ilmiy bilish jarayonida yangi topilgan dalillar, ma’lumotlar mavjud nazariya bilan izohlab bo‘lmay qolgan vaziyatda ilgari suriladi.</p> <p>Gipoteza ko‘lamiga ko‘ra umumiyligi va xususiy, shuningdek, qo‘llanish miqiyosi va hayotiy asosiga qarab, ishchi va ilmiy gipotezalarga bo‘linadi.</p>	<p>hypothesis, meaning "foundation," "analysis." A hypothesis is a mental conclusion that has not yet been proven to be true, although it is based on scientific evidence and data about the causes and effects of things, events, and relationships. Hypotheses are made when new evidence is found in the process of scientific knowledge, when the data cannot be explained by existing theory.</p> <p>Hypotheses are divided into general and specific, as well as working and scientific hypotheses, depending on the scale of application and the basis of life.</p>
Asosiy qism The main part	mavzu yoritib berilishi lozim bo‘lgan, rejadagi asosiy bandlar ifoda etilishi lozim bo‘lgan qismlar. U insho umumiyligi miqdorining 80 foizidan kam bo‘lmasligi maqsadga muvofiqdir	the parts where the topic should be covered and the main points of the plan should be expressed. It should be at least 80% of the total essay
Nazariya Theory	biror hodisani ilmiy asoslarda tushuntirib beruvchi tasavvurlar, g‘oyalar va tamoyillar tizimi. Torroq ma’noda olinganda, nazariya	a system of assumptions, ideas, and principles that explain a phenomenon on a scientific basis. In a narrower sense, a theory is a system of scientific

	voqelikning muayyan sohasining muhim xususiyatlari, qonuniyatlari, sababiy aloqalari, mavjudlik va rivojlanish xarakterini belgilovchi asoslar to‘g‘risida yaxlit, to‘la-to‘kis qarashni ifodalovchi ilmiy bilimlar tizimidir.	knowledge that represents a holistic, complete view of the essential features, laws, causal relationships, and the fundamentals that determine the nature of existence and development in a particular area of reality.
Axborot Information	xabar, ma’lumot, informatsiya.	message, information, information.
Bilim Knowledge	obyektiv borliq yoki hayotning muayyan sohasiga oid ma’lumotlar majmui	an objective being or set of information about a particular area of life
Bilimlilik Knowledge	Obyektiv borliq yoki hayotning muayyan sohasiga oid ma’lumotlarga egalik yoki xabardorlik.	Possession or awareness of information about an objective being or a particular area of life.
Ilm Science	kishining o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajriba asosida orttirgan bilimi, ma’lumoti.	knowledge gained through reading, study, and life experience.
Ilmiy maqola Scientific article	tanlab olingan muammoni yechishga bag‘ishlangan ilmiy asar.	a scientific work devoted to the solution of a chosen problem.
Monografiya Monograph	bitta muammoni tekshirishga bag‘ishlangan ilmiy asar.	a scientific work devoted to the study of a single problem.
Tezis Thesis	Ilmiy asar, maqola, doklad va shu kabilardagi assosiya g‘oyalarning qisqacha va lo‘nda ifodasi	A concise summary of the main ideas of a scientific work, article, report, etc.
Annotatsiya Annotation	(lotin). Kitob, maqola va shu kabilarning g‘oyat qisqa mazmuni.	(Latin). Very short summaries of books, articles, etc.

Fundamental tadqiqotlar Fundamental research	tabiat va jamiyatdagi yangi hodisa va qonuniyatlarni nazariy jihatdan ochib berishga qaratilgan jiddiy ilmiy izlanishlardir.	are serious scientific studies aimed at theoretically revealing new phenomena and laws in nature and society.
Innovatsiya Innovation	ilmiy-tadqiqot yoki ixtiro natijasida yaratilgan, o‘zidan oldingi shu xil tuzilmalardan ustun turadigan obyekt tushuniladi. Innovatsiya hayotiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida yuzaga kelgan yangilikdir.	an object created as a result of research or invention that is superior to similar structures before it. Innovation is an innovation that occurs in order to meet the needs of life.
Ixtiro Invention	hayot va ilmning muammolari yuzasidan taklif etilgan yangi g‘oya va yechimlar majmuidan iborat bo‘lib, masalani hal qilish imkonini beradi.	is a set of proposed new ideas and solutions to the problems of life and science, which allows to solve the problem.
Kashfiyot Discovery	dunyoning hodisa, xossa va qonuniyatlariغا doir obyektiv mavjud, ammo mohiyati shu vaqtgacha noma’lum bo‘lgan va insonning bilim darajasiga tub o‘zgartirish kiritadigan qarashlar tizimi. Fan bu biz yashayotgan dunyonи anglash va uni tushunib yetishdir. Bunga muvofiq fan inson va dunyo to‘g‘risida obyektiv bilimlarni yaratish bo‘yicha maxsus ixtisoslashtirilgan va puxta tashkillashtirilgan faoliyatni aniqlashni ham o‘z ichiga	a system of views that is objective about the phenomena, properties, and laws of the world, but whose essence is hitherto unknown, and that radically changes the level of human knowledge. Science is to understand and comprehend the world in which we live. Accordingly, science includes the identification of specialized and well-organized activities to create objective knowledge about man and the world.

	oladi.	
Adabiy quroq	bayramlar munosabati bilan amalga oshiriladigan tadbirlar sirasiga kirib, biror mavzuga bag‘ishlangan asarlarni og‘zaki tarzda yoddan aytish yoki biror mavzuga tegishli asarlardan quroq tarzida gazeta chiqarish yo‘li bilan yuzaga keladi.	as part of a series of holiday events, such as by memorizing works on a topic orally or by publishing a newspaper in a dry form from works on a particular topic.
Ilmiy ijod Scientific creativity	obyektiv vogelikdagi hodisa va jarayonlar, ularning harakat va rivojlanish qonunlarining mohiyati to‘g‘risida tushuncha, ta’rif, tenglama, formula va hokazolar shaklida ifodalangan subyektiv qarashlar majmui.	a set of subjective views expressed in the form of concepts, definitions, equations, formulas, etc. about the events and processes in objective reality, the essence of the laws of their motion and development.
Fan	inson faoliyatining obyektiv borliq va inson tafakkuri hamda ruhiyat olamiga doir qarashlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan jabhasi.	the aspect of human activity aimed at the development of a system of views on the objective being and human thought and the spiritual world.
Ijod	insonning sifat jihatidan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratishga yo‘naltirilgan ruhiy va amaliy faoliyati.	the spiritual and practical activity of man aimed at creating qualitatively new material and spiritual values.
Fakultativ mashg‘ulotlar Optional classes	fransuzcha facultas – "imkoniyat", "qobiliyat" so‘zlaridan olingan bo‘lib, umumta’lim maktablari talaba-o‘quvchilarining istak-xohishlariga muvofiq biror o‘quv fani, mavzu yoki	French facultas - derived from the words "opportunity", "ability", which are organized on a voluntary basis in order to expand and deepen their knowledge on a subject, topic or question in accordance

	savol yuzasidan ularning bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ixtiyoriy asoslarda uyushtiriladigan va majburiy bo‘lmanan pedagogik tadbirdir.	with the wishes of students of secondary schools and is a non-compulsory pedagogical activity.
O‘quv tahlili Learning Analysis	badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali talaba-o‘quvchilarda barkamol shaxsga xos ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatdir.	is a scientific and pedagogical activity aimed at the formation of spiritual qualities of a harmoniously developed personality in students by discovering the vital and artistic logic and aesthetic appeal of the text of the work of art.
Adabiy konferensiya	bir yozuvchining bir yoxud bir turkum asarlari bo‘yicha alohida tayyorgarlik bilan o‘tkaziladigan adabiy tadbir	a literary event with special preparation for one or a series of works by the same author
Adabiy kecha Literary night	biror adibning tavalludi yoxud tanlangan mavzu bo‘yicha uyushtiriladigan adabiy-badiiy tadbir bo‘lib, maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Maxsus ma’ruzachilar tayin etiladi. Adabiy kechalar she’r aytish, qo‘sish, kuylash, raqsga tushish singari ko‘ngilochar ish turlari bilan birga olib borilishi mumkin.	is the birth of a writer or a literary and artistic event on a chosen topic and requires special training. Special speakers will be appointed. Literary evenings can be accompanied by recreational activities such as poetry, singing, and dancing.
Epigraf Epigraph	ijodiy ishning asosiy yo‘nalishini belgilab berishga xizmat qiladigan so‘z, ibora, jumla, maqol yoki parcha. U biror mashhur	a word, phrase, sentence, proverb, or passage that serves to define the main direction of the creative work. It can be quoted from a

	shaxsnинг асаридан көлтирилishi ham, талаба-о‘кувчining о‘зи томонидан аytilishi ham mumkin.	famous person or narrated by a student.
Insho Essay	talaba-o‘кувчining muayyan mavzu yuzasidan o‘z fikr va mulohazalarini tilning grammatik qoidalariga muvofiq tarzda mustaqil yozma bayon qilish usuli.	a method by which a student independently expresses his or her thoughts and opinions on a particular topic in accordance with the grammatical rules of the language.
Tamoyil The principle	biror faoliyatning yuzaga kelishida amal qilinishi shart bo‘lgan talablarni anglatadi.	means the requirements that must be met in order for an activity to occur.
Reja Plan	insho yozishda talaba-o‘кувчining mavzu yuzasidan bilganlarini muayyan tartibga solish, ifodani chegaralash, fikrni tizim holiga keltirish vositasidir.	when writing an essay, it is a means of organizing the student's knowledge of the subject, limiting the expression, and systematizing the thought.
Dalil Evidence	talaba-o‘кувчining о‘з qarashlarini asoslash va bayon etilajak asosiy fikrning to‘g‘riligini isbotlashga xizmat qiladigan ma’lumotlar yig‘indisi.	a set of data that serves to substantiate the student's point of view and to prove the correctness of the main idea to be stated.
Kirish Introduction	yozma ishning zarurligi, mavzuning dolzarbligi, asosi nimadan iborat ekanligi ko‘rsatilishi ko‘zda tutilgan, inshoda gap nima haqda borishi izohlaniladigan ijodiy ekskurs. “Kirish” miqdori insho umumiylaj hajmining 10 foizidan oshmasligi kerak.	a creative excursion that explains the need for written work, the relevance of the topic, what the basis is, and what the essay is about. The amount of "introduction" should not exceed 10% of the total volume of the essay.
Ifodali o‘qish	asarning mazmuni, muallif	the content of the work is to

Expressive reading	yoki personajlarning ruhiy holatini o‘z sezimlariga ta’sir qiladigan tarzda o‘qish-o‘zlashtirishdir.	read and master the mental state of the author or characters in a way that affects their feelings.
Xulosa Conclusion	ijodiy ish mavzusi yuzasidan bir necha fikrlarga tayanib chiqarilgan umumlashma to‘xtam. Xulosa inshodagi asosiy umumlashtiruvchi fikr bo‘lib, talaba-o‘quvchining yozma ish faoliyati yakunini ko‘rsatadi.	a generalization based on a few ideas on the topic of creative work. The conclusion is the main summary of the essay and shows the outcome of the student's written work.
Qo‘pol xatolar Mistakes	talaba-o‘quvchining kerakli grammatik qoidalarni bilmasligi, u yoki bu so‘zning qanday yozilishi zarurligidan xabarsizligi sababli yo‘l qo‘yiladigan xatolar bo‘lib, inshoning bahosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.	mistakes are made because the student does not know the required grammar rules, does not know how to spell a word, and has a negative impact on the value of the essay.
Qo‘pol bo‘limgan xatolar Minor mistakes	talaba-o‘quvchining shoshganligi, e’tiborsizligi, charchaganligi va bq. sabablar tufayli grammatik talablarga to‘liq va qat’iy rioya qilolmaganligidan yuzaga kelgan xatolar bo‘lib, bahoga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi.	student urgency, carelessness, fatigue, etc. are errors that occur due to reasons that do not fully and strictly follow the grammatical requirements and do not adversely affect the price.
Adabiyot o‘qitish metodikasi Methods of teaching literature	adabiyot o‘qitishni nima uchun va qanday tashkil etishga qaratilgan, oz intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda, kattaroq o‘quv	literature is a science that explores why and how to organize teaching, and how to achieve greater learning outcomes with less intellectual effort and

	natijalarga erishish yo‘llari tadqiq etiladigan fan.	pedagogical resources.
Adabiyot o‘qitish metodikasining bosh maqsadi The main purpose of teaching literature	sog‘lom e’tiqodli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zga insonning tuyg‘ularini anglaydigan, o‘z xatti-harakatlariga javob bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish.	to form the spiritual world of a person of sound faith, sharp-witted, high-spirited, morally mature, mentally mature, able to understand the feelings of another person, able to respond to his own actions.
Adabiyot o‘qitish metodikasining vazifalari Tasks of literature teaching methods	talaba-o‘quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish, ularni ko‘rkam asarlarni o‘qiydigan, o‘qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to‘g‘risidagi fikrlarini og‘zaki yoki yozma tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib shakllantirishdan iboratdir	to instill in students a love for fiction, to make them read works of art, to understand and analyze what they read, to express their opinions about the literary text orally or in writing, and is to form it in a way that it can express freely
Adabiyot o‘qitish metodikasining mazmuni Content of literature teaching methods	o‘zbek va jahon adabiyotining badiiy yuksak namunalari hamda o‘qilgan asarlarni tushunish va tahlil qilish malakalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi nazariy ma’lumotlardan iborat.	high artistic samples of Uzbek and world literature, as well as the amount of theoretical information necessary for the formation of skills of understanding and analysis of the read works.
Ta’lim metodi Teaching methods	muayyan ta’lim mazmunining talaba-o‘quvchilar tomonidan professor-o‘qituvchi rahbarligida o‘zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi.	means a joint activity aimed at organizing the mastery of a particular educational content by students under the guidance of a professor.

Ekstrafaol usul Extrafaol method	(extra – tashqi) axborotlar oqimi ta’lim oluvchilardan tashqarida bo‘lib, ularga yo‘naltiriladi. Talaba-o‘quvchi tom ma’noda “talaba-o‘quvchi” maqomida bo‘ladi va tashqaridan yuborilayotgan axborotlarni qabul etish bilangina shug‘ullanadi. Bu usul passiv yoki nofaoldir, negaki, unda talaba-o‘quvchi emas, balki o‘qitish tizimi faollik ko‘rsatadi	(extra) The flow of information is outside the learner and directed to them. The student is literally a "student" and is responsible for receiving information from outside. This method is passive or inactive because the teaching system is active, not the student
Interfaol usul Interactive method	(inter - aro, o‘zaro, birgalikda, act – harakat, faoliyat, tadbir) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham, yo‘naltirish ham va o‘zlashtirish ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda talaba-o‘quvchi talaba-o‘quvchi bilan, bir talaba-o‘quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda professor-o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.	(inter-, reciprocal, joint, act - action, activity, event) where the flow of information is created, directed and assimilated as a result of the joint activity of all participants. In this method, the student interacts with the student, one group of students interacts with the other group, each individually or together with the professor-teacher.
Mustaqil o‘qish Independent study	dasturda ko‘zda tutilgan, darslikdan o‘rin olgan adabiy materialning dars vaqtida, sinfxonada talaba-o‘quvchilarning o‘zлari tomonidan o‘qilishi va tahlil	means that the literary material in the syllabus is read and analyzed by the students themselves during the lesson, in the classroom.

	qilinishini anglatadi.	
Sinfdan tashqari o‘qish Extracurricular activities	talaba-o‘quvchilarning o‘zlari yoqtirgan badiiy asarlarni o‘z vaqlari hisobiga o‘qishini angtatadi.	means that students read their favorite works of art at the expense of their time.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони

III. Maxsus adabiyotlar

8. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Hook 1, 2.
9. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

10. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ., Адабиёт ўқитиши методикаси, -Т.: “Ўқитувчи”, 1967.
11. Зуннунов А. ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси, -Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
12. Йўлдошев Қ. ва бқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: 1994.
13. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997.
14. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.
15. Ҳусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. –Т.: “Муҳаррир”, 2013.
16. Ҳусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Баркамол Файз-Медиа”, 2020.
17. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий. –Москва: ИКАР, 2009.
18. Коллектив. Настольная книга учителя литературы. –Москва: «Астрель», 2004.
19. Резь З. Я. и др., Методика преподавания литературы. -Москва: 1985.
20. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиши. –Т.: “Тамаддун”, 2010.

IV. Internet saytlar

1. <http://lex.uz>
2. <http://lib.bimm.uz>
3. <http://natlib.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <https://www.dissercat.com/content/formirovanie-umenii-i-navykov-u-uchashchikhsya-selskikh-shkol-v-protsesse-zanyatii-khudozhes>
6. http://library.navoiy-uni.uz/files/adabiyot_oqitish_metodikasi.pdf

VIII. TAQRIZLAR



**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRALARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
MARKAZI PROF. Q.YO‘LDOSHEV TOMONIDAN TUZILGAN
“ADABIYOT O‘QITISHNI YANGILASH METODIKASI” NOMLI FAN
DASTURI VA O‘QUV-USLUBIY MAJMUAGA**

T A Q R I Z

“Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi” moduli uchun tuzilgan o‘quv-uslubiy majmuada tinglovchilarda o‘qitishning eng qulay, zamonaviy metod va usullaridan ta’limning turli bosqichlarida foydalana olish bo‘yicha va - adabiyot o‘qitish kechimiga kreativ yondashuvni, adabiyot o‘qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligini, adabiy ta’limning mazmunini tashkil etadigan pedagogik unsurlarni, adabiyot o‘qitish samaradorligiga erishishda professor-o‘qituvchining talabalar bilan, talabalarning o‘zaro bir-biri bilan sherikligini yo‘lga qo‘yishni, adabiyot o‘qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini, adabiy ta’lim birinchi navbatda kishining tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirish vositasi ekanini hamdakasbiy faoliyati haqidagi dastlabki bilimlar bilan quollantirish; ko‘nikma va malakasini shakllantirish asoslari belgilangan.

Tinglovchilarga o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarining ilg‘or yutuqlarini, amalda adabiyot o‘qitish kechimiga kreativ yondashuvni, adabiyot o‘qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligini, adabiy ta’limning mazmunini tashkil etadigan pedagogik unsurlarni, adabiyot o‘qitish samaradorligiga erishishda professor-o‘qituvchining talabalar bilan, talabalarni esa o‘zaro bir-biri bilan sherikligini yo‘lga qo‘yishni, adabiyot o‘qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini, bugungi odam ma’naviyati shakllanishi uchun badiiy asarni o‘qish, tushunish va tahvil qilish hamda bitikdan kelib chiqadigan ijtimoiy-estetik ma’noni anglash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini hamda adabiy ta’lim birinchi navbatda kishining tuyg‘ulariga ta’sir

ko‘rsatish orqali ularda ezgu ma’naviy sifatlarini shakllantirishning maqsad, vazifalarini anglatishdan iborat.

O‘quv-uslubiy majmua “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi” moduliga oid asosiy masalalarning mohiyatini yoritishga yordam beradi.

Xullas, Q.Yo‘ldoshev tomonidan tuzilgan “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi” nomli fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua zamonaviy adabiyotshunoslik hamda o‘qitishning ilg‘or texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi, uni bemalol nashrga tavsiya etish mumkin.

R.Niyozmetova



TDO‘TAU professori,
pedagogika fanlari doktori

**TOSHDO‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA
O‘QITILADIGAN
“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI”
YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi o‘z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko‘rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “Lingvodidaktika”, “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi”, “Til ta’limiga psixolingvistik yondashuv”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Jahon adabiy ta’limining ilmiy–nazariy asoslari”, “Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlash zarur.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakkantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamонави uslublari bo‘yicha so‘nggi yantuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Amaliy mashg‘ulotlarda zamонави ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsija etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari modullarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbaalardan foydalanish yuzasidan ham zarur tavsiyalar berilgandigini alohida ta’kidlash mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta’lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori

S.Normamatov





T.C.
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi kursi o‘quv dasturiga

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta’lim sifatini yanada oshirish, ta’lim jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarni, ayniqsa noan’anaviy ta’lim metodlarini joriy etish, jahoning yetakchi oliy ta’lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o’zlashtirishdan iborat.

Shu ma’noda “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o‘quv dasturi yuqorida sanab o’tigan maqsad-vazifalarni to’liq qamrab olgan deyish mumkin.

“Kursning maqsad va vazifalari” qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliyk darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning zamonaviy usullari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O‘quv dasturining 1-moduli “Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar” deb nomlangan. Ushbu modulda kredit modul tizimi va o‘quv jarayonlarini tashkil etish, tinglovchilarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, jumladan, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direek, Mendeley tizimlari asosida yanada takomillashtirish masalalariga diqqat qaratilgan. Darhaqiqat, bu talab va shartlar amalga oshirilganda, aniqrog’i pedagog-tinglovchilarda bunday malaka va ko’nikmalar shakllanganda uning dunyo pedagogikasi bilan integratsiyasi yanada oshadi, shuningdek, uning ta’limini olgan talabalarning ilmiy saviyasi risoladagidek bo’ladi.

2-modul “Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish” deb nomlangan.

Vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “Slipped classroom” kabi zamonaviy pedtexnologiya asoslarini o’zlashtirib, ta’lim jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ushbu modul ham maqsad-vazifalarning aniqligi va zarurligi nuqtai nazaridan ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, har yetuk pedagog o‘z fani doirasidagi muhim ma’lumotlarni ingliz tilida bilishi va fikrlarini og’zaki va yozma ravishda yetkaza olishi davr talabidir. Modulning 2-qismida ana shu masalaga ham alohida e’tibor berilgan.

3-modul “Mutaxassislik fanlari”ga ajratilgan bo’lib, bu modulda til va tafakkur munosabatlari, semantika, jahon adabiy ta’limidagi konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlarga o’rin ajratilgan. Adabiyotshunoslik va adabiyot o‘qitishga doir yangiliklarning milliy ta’limga tatbiq etilishi, shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning interfaol usullarini o’zlashtirish hamisha ijobiy natija beradi. Mazkur modelda shu kabi masalalarning aks etganligini ijobiy yutuq sifatida alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib mazkur dasturni ta’lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori